TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUHAMMAD FUZULIY

58

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUHAMMAD FUZULIY

58

1619321
TDYU ...
AKM (kutubxona)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT – 2022

UO'K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5
F 96

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Ergash Ochilov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-5-4

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

LAYLO SHE'RIYATNING MAJNUN SHOIRI

Otashnafas she'rlari bilan turkiy xalqlarning mushtarak shoiriga aylanib ketgan, asrlar davomida turkiy she'riyatga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy 1498-yili Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Otasi Ozarbayjonning Bayot qabilasidan bo'lib, XV asr o'rtalaridagi siyosiy notinchlik tufayli ko'plab qabiladoshlari qatori, o'rta asrning madaniy markazlaridan bo'lgan Bag'dodga ko'chib boradi.

Fuzuliyning yoshligi shoh va shoir Ismoil Xatoiy hukmronlik qilgan, ozarbayjon tili, adabiyoti va madaniyati gullagan davrga to'g'ri keladi. "Bu adabiyot turkiy xalqlar adabiyoti orasida Navoiy adabiy maktabidan keyingi eng ilg'or adabiy maktab edi"[1]. U Karbalodagi boshlang'ich maktabda savodini chiqarib, so'ng Bag'dod madrasalarida tahsilini kamolga yetkazadi, o'zi ham mudarrislik qiladi. Uning bir o'g'li bo'lib, Fazliy taxallusi bilan she'rlar yozgan va o'z zamonida ancha shuhrat qozongan.

Juda yoshligidan qo'liga qalam olgan Fuzuliy boy adabiy an'anaga ega bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotning Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Xoqoniy Shirvoniy, Mujrim Baylaganiy, Salmon Sovajiy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Imodiddin Nasimiy, Atoiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi atoqli so'z san'atkorlari ijodini mehr bilan o'qib-o'rganib, ularning mahorat sirlaridan bahramand bo'ladi. Uning she'riyatdagi ilk ustozi ozarbayjon mumtoz adabiyotining taniqli namoyandasi Habibiy edi. Shoir ijodiga, ayniqsa, Lutfiy bilan Navoiy kuchli ta'sir ko'rsatgan.

---

[1] *Rasul X.* Muhammad Fuzuliy (So'zboshi) // *Muhammad Fuzuliy.* Asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. Devon. — Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 8-bet.

Fuzuliy nuqtayi nazariga ko'ra, shoir barcha diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor, xalq tarixi va madaniyati, qadriyat va an'analarini chuqur biladigan, dunyoqarashi keng, donishmand va alloma darajasidagi kishi bo'lishi kerak. "Zeroki, ilmsiz she'r asosi yo'q devor o'lur va asossiz devor g'oyatda bee'tibor o'lur"[1], — deydi shoirning o'zi bu haqda devoniga yozgan debochasida. Shuning uchun u shoirligi muqarrar bo'lgach, umrining bir qismini sarflab, turli ilmlarni egallaganini aytadi. Asarlarining mazmunan teran, falsafiy jihatdan quyuqligi, hikmat darajasidagi fikr-mulohazalarga boyligi Fuzuliyning o'z davrining har jihatdan yetuk, fozil va mutafakkir kishisi bo'lganligidan dalolat beradi. Zamondoshlari uni bejiz Mavlono deb atamaganlar.

Fuzuliy butun umr moddiy jihatdan qiynalib yashagan. U shoh-u amaldorlar, hokim-u din arboblariga bag'ishlab ko'plab qasidalar bitganiga qaramay, o'zi kutgan yordamni ololmagan. "Masalan, 1534-yilda Bag'dod shahrini fath etishi munosabati bilan usmonli turk sultoni Qonuniy Sulton Sulaymonga bag'ishlangan "Keldi burji avliyoya podshohi nomdor" deya boshlanuvchi qasidasi mashhur. Shuningdek, usmonli saltanati davlat arbobi — sadri a'zam Maqbul Ibrohim Poshsho, qoziaskar Abdulqodir Chalabiy, nishonchi Jalolzoda Mustafo Chalabiy, Bag'dod hokimlari Ibrohim Xon Musuliy, Uvays, Ja'far, Ayoz va Muhammad Poshsholarga ham qasidalar bitgan"[2]. Sulton Sulaymon marhamat ko'rsatib, shoirga kuniga 9 aqchadan nafaqa tayinlagan bo'lsa-da, u bu pulni ololmagan va Mustafo Chalabiy nomiga o'zining mashhur "Shikoyatnoma"sini yozgan. Forsiy qasidalaridan ma'lum bo'lishicha, u diniy doiralarga yaqin bo'lgan va asosan ularning qo'llab-quvvatlashi hisobiga tirikchiligini o'tkazgan[3].

Iroqning Bag'dod, Hilla, Najaf kabi qator shaharlarida bir qancha muddat yashagan Fuzuliy ona shahri Karbaloga qaytib, 1556-yili shu yerda vabo kasalidan vafot etgan.

---

[1] *Rasul X.* Muhammad Fuzuliy, 20-bet.

[2] *Jo'raboyev O.* Fuzuliyning "Suv qasidasi" // "O'zbek tili va adabiyoti", 2006-yil, 5-son, 45-bet.

[3] Bu haqda qarang: *Arasli G.* Velikiy azerbaydjanskiy poet Fizuli. — Baku, 1958. Str. 58–61.

Fuzuliy o'zidan boy adabiy-falsafiy meros qoldirgan: she'riy devoni, "Layli va Majnun" dostoni, "Matla' ul-e'tiqod" ("E'tiqodning boshlanish joyi") falsafiy risolasi, "Hadiqat us-suado" ("Baxtiyorlar bog'i"), "Suhbat us-asmor" ("Mevalar munozarasi"), "Shikoyatnoma", "Bang va boda", "Anis ul-qalb" ("Qalb do'sti"), "Yetti jom" ("Soqiynoma" deb ham yuritiladi), "Rind va Zohid", "Sihhat va Maraz" ("Sog'liq va Bemorlik") kabi o'nlab nazmiy-nasriy, falsafiy-didaktik asarlar. Shuningdek, u arab va fors tillarida ham mahorat bilan qalam tebratgan zabardast zullisonayn shoir hisoblanadi. U badiiy yuksak asarlari bilan ozarbayjon adabiyotini yangi bosqichga ko'tardi.

G'azal bildirur shoiring qudratin,
G'azal orttirur noziming shuhratin[1], —

deb yozgan Fuzuliy ijodida g'azal yetakchi o'rin tutadi: uning devonidan 300 ga yaqin g'azal, 75 ruboiy, 42 qit'a, bir necha tarje'band, tarkibband, muxammas va murabbalar o'rin olgan. U Sharq mumtoz so'z san'atidagi zabardast qasidanavislardan biri ham hisoblanadi — shoirning turkiy devonida — 27, forsiy devonida — 46, arabiy devonida — 12 qasida mavjud[2]. Qasidalari g'azallari va boshqa janrdagi asarlaridan til va uslub jihatidan bir qadar murakkabligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, har bir payg'ambarning bir mo'jizasi bo'lgan. Iso alayhissalomning mo'jizasi esa o'liklarga jon ato etish edi. Shunga ishora qilib, Sharq mumtoz adabiyotida o'zining hassos, otashnafas she'rlari bilan ko'ngillarga o't soladigan, muz yuraklarni eritadigan shoirlarni "Isonafas" deb ulug'lashgan. Chunonchi, Navoiy o'zining g'azalchilikdagi ustozlarini sanar ekan, "Biri Isonafaslik rindi Sheroz" deb, Hofiz Sheroziyga ishora qiladi[3]. O'zining otashin she'rlari bilan turkiy adabiyotning Hofiz Sheroziysi nomini olgan

---

[1] *Muhammad Fuzuliy* . Asarlar. 1-jild, 21-bet.

[2] *Jo'raboyev O.* Fuzuliyning "Suv qasidasi", 46-bet.

[3] *Qarang: Alisher Navoiy.* Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 6-jild. — Toshkent, 1990, 516-bet.

Fuzuliyni[1] ham ayni jihatdan "Isonafas" deb ta'riflasak, mubolag'a bo'lmas. Chunki Fuzuliy she'rlari turmush tashvishlari, hayot mashaqqatlari girdobida halokatga mahkum dillarni uyg'otib, ularga qayta hayot baxsh etadi, zang bosgan yuraklarni muhabbat, oliyjanob tuyg'ular o'tida poklab, yuksak samoviy hislarga oshno qiladi.

Fuzuliy — dilo'rtar shoir. Uning she'rlarini xotirjam, sokin o'qib bo'lmaydi. Bu she'rlar qatida yashirin o'tli tuyg'ular, shoirning haroratli nafasi, ishq tandiriga aylangan oshiq qalbining qaynoq hovuri sizni ham chulg'ab oladi.

Fuzuliy she'riyati — buyuk bir ishq chashmasi. Shoir g'azallari ana shu chashmadan to'ldirilgan limmo-lim may qadahiga o'xshaydi. Bu may o'z ichkuchisini mast-u xumor qilmay qo'ymaydi. Shuning uchun ham u asrlar davomida oshufta ko'ngillar kuychisi sifatida ardoqlanib keladi.

Fuzuliy she'riyatining asosiy mavzusi ham, harakatlantiruvchi kuchi ham, bu she'rlarni ichdan nurlantirib turgan quvvat manbai ham, ularni jozibali va sevimli qilgan ham — barcha-barchasi ishq. Shoir uchun ishq — ustoz, ishq — shogird, ishq — do'st, ishq — mahram, ishq — hayot mazmuni, ishq — yashash sharti, ishq — insoniylikdan maqsad, ishq — kamolot mazmuni, ishq — Ollohga yetish kafolati, ishq — qalbdagi gavhar, ishq — boshdagi afsar (toj), ishq — ko'zlardagi nur, qo'yingki, ishq — hamma narsa!

Sarmanzili har muroda rahbardir ishq,
Kayfiyati har kamola mazhardir ishq,
Ganjinayi koinota gavhardir ishq,
Har zohir o'lan nash'aya masdardir ishq.

Bu ishqqa sohib bo'lish uchun uning behad-du behisob sinovlari, chek-chegarasiz ranj-u mashaqqatlari, ibtido-yu intihosi yo'q azob-u hijronlaridan qo'rqmaydigan, ularga sabr eta biladigan, ma'shuqaning barcha noz-u karashmalarini ko'tara oladigan va bundan injimaydigan, bu yo'lda taqdirning nayranglari, charxi

[1] *Bu haqda qarang: Jalolov T.* Fuzuliy (So'zboshi) // *Fuzuliy.* Devon. — Toshkent, 1959, 5–6-betlar.

kajraftorning turfa o'yinlariga matonat bilan chidaydigan mard va tanti, oliyjanob va himmatli, jur'atli va shijoatli oshiq bo'lish kerak. Fuzuliy o'zini ana shunday oshiq hisoblaydi va bu oshiqlik qoshida Farhod-u Majnunlarni bor-yo'g'i bir shogirdvachcha sanaydi. Mening ishq yo'lidagi shijoatim oldida Farhod o'z kuch-qudratidan lof urmasa ham bo'ladi, chunki u bitta tog'ni qazish uchun mingta teshani o'tmas qilgan bo'lsa, men mingta tog'ni bittagina tirnog'im bilan qo'porishga qodirman, deydi:

Ko'hkan kund aylamish ming teshayi bir tog' ilan,
Man qo'porub solmisham ming tog'i bir tirnog' ilan.

Jonim chiqsa ham, o'zim ishq yo'lidan chiqmayman, deydi shoir boshqa bir she'rida, shuning uchun mening qabrimni ishq ahli o'tib-qaytadigan yo'l ustida tiklang:

Ey, Fuzuliy, chiqsa jon, chiqmam tariqi ishqdin,
Rahguzori ahli ishq uzra qiling madfan mango.

U ishq yo'lida shunchalik sodiqki, qani mingta jonim bo'lsa, ularni bitta-bitta senga fido qilardim, deydi:

Ming jon o'laydi koshki man dilshikastada,
To har birila gez o'laydim fido sanga.

Ishqning Sharq mumtoz she'riyatida bu qadar ulug'lanishining sababi — uning kamolot vositasi ekanligida. Chunki bu ishq Ollohga atalgan va o'z Parvardigorini sevgan hamda uning vasliga intilgan, rozi-rizoligini istagan banda o'zidagi qusurlardan qutulishga va fazilatlar kasb etishga harakat qiladi. Zero, Parvardigori olam faqat komil insonlarni sevadi va ularni o'ziga yaqin tutadi. Shuning uchun ham Fuzuliy aytadiki, men ishqni sira tark etmayman, zero, u pirovard-natijada meni kamolga erishtiradi:

Ey Fuzuliy, qilmazam tarki tariqi ishqkim,
Bu fazilat doxili ahli kamol aylar mani.

Ishq asiri dunyo bandiga tushmaydi. Ishq dardi dunyo g'amini o'ziga yaqin yo'latmaydi. Ishq shunday bir o'tki, uning alangasida tirikchilik tashvishlari, kundalik ikir-chikirlar g'ami, hoy-u havaslar yonib kul bo'ladi. Mumtoz adabiyotda o'tning ishqqa nisbat berilishi, ulug'lanishi, oshiqning Yaratgandan qalbidagi ishq o'tini yanada sarbaland etishini so'rashi shundan. Fuzuliy bu haqda yozadi:

Ishqa to dushding, Fuzuliy, chekmading dunyo g'amin,
Bilki, qaydi ishq emish domi taalluqdin najot.

Barcha mumtoz shoirlar kabi Fuzuliy ham insonni haq yo'ldan ozdiruvchi, uning kamolotiga to'siq bo'luvchi, qalbini o'ldiruvchi sifatida dunyo, nafs, mol-u davlatni qattiq mazammat etadi. Bu dunyoga ko'ngil berib, oxirida pushaymon bo'lmagan kishi yo'q. Shuning uchun ham o'tmish so'z san'atida dunyo noz-u ishva bilan hammani yo'ldan uradigan, o'ziga oshiq-u shaydo etadigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan bevafo ma'shuqaga o'xshatiladi. Fuzuliy ham salaflari an'anasini davom ettirib, ruboiylaridan birida dunyoning avvali hirs-u oxiri hasratdir deydi:

Advori zamon doirayi hayrat emish,
Asbobi jahon maholiku mehnat emish.
Dunyoya tama' etmamak-etmakdin yig',
Chun avvali — hirs-u oxiri — hasrat emish.

Mana bu mashhur baytida esa shoir dunyoni har kim o'zida borini — dunyo ahli siym-u zarini, hunar ahli fazl-u kamolini namoyish qiladigan bozorga qiyos etadi:

Dahr bir bozordur — har kas mato'in arz edar:
Ahli dunyo — siym-u zar, ahli hunar — fazl-u kamol.

Albatta, Fuzuliy mutasavvif shoir bo'lgan. Shoir she'riyatini tasavvufdan ajratib olib o'rganish mumkin emas. Bir qator she'rlarida u yer-u ko'kning sohibi Olloh taoloni madh etadi, unga munojotlar qiladi, zohidlarga ta'na-malomat toshlarini yog'dirib, so'fiy va darveshlarni ulug'laydi, faqr-u fanolik maqomiga intiladi, ilohiy

mahbubani ta'rif-tavsiflab, vahdat sharobi mastligidan so'z ochadi, ishq-u oshiqlikni tarannum aylab, dunyoga berilishni qoralaydi va hokazo. Chunonchi, so'fiylar mahsharda Olloh jamolini ko'rish umidi bilan yashaydilar. Olloh o'z jamolini ko'rsatsa, ular uchun do'zax ham jannatdan afzal, aksincha, Olloh o'zini ko'rsatmasa, jannat ham do'zaxdan battardir. Bu haqda shoir yozadi:

Mahshar kuni ko'ram deram ul sarvqomati,
Gar onda ham ko'runmasa, kel, ko'r qiyomati!

Ollohga — ilohiy mahbubaga jondan kechmay turib yetib bo'lmaydi. Bu ishqning haqiqiy qurbonlari abadiy barhayotdirlar. Shoirning mana bu bayti shu xususda:

Bermayan jonin sango bo'lmas hayoti jovidon,
Zindai jovid ango derlarki, qurbondir sango.

Tasavvuf ahli nuqtayi nazariga ko'ra ko'nglidan dunyo mehri, tirikchilik tashvishlari, turfa hoy-u havaslarni quvib, yolg'iz Olloh ishqi bilan qolgan kishining qalbi oyinaday musaffo bo'lib, unda Parvardigor jamol ko'rgizadi. Komillik istagan kishi ana shu maqomga yetishi kerak. Fuzuliy ham ayni maqomga ko'tarilganligini ta'kidlab yozadi:

Pok qildi suratimdan za'f dahr oyinasin,
O'yla mahv o'ldimki, bir zarra g'uborim qolmadi.

Ya'ni, o'zlikdan kechib, O'zi bilan qoldim, demoqchi shoir.

Fuzuliyning bir qator ruboiylari xayyomona chuqur falsafiy mazmunga ega. Chunonchi, quyidagi ruboiy Umar Xayyomning bu dunyoda doim mast-u alast yuraman, u dunyoga ham kayfi taraq holda ketaman, mening hatto qabrimdan ham may isi kelib, uning yonidan o'tganlar xumor bo'ladi, vujudim tuproqqa aylansa-yu, undan ko'za qilsalar, undan ham may hidi anqiydi kabi fikrlariga hamohang:

Xush ulki, dami ajal chekub bodayi nob,
Sarmast yotam qabrda to ro'zi hisob.
G'avg'oi qiyomatdaduram mast-u xarob,
Na fikri hisob o'la, na idroki azob.

Albatta, mumtoz she'riyatda may ham, mastlik ham majoziy ma'noda qo'llanilib, ilohiy ishq va unga mubtalolik nazarda tutiladi.

Mana bu ruboiy esa Xayyomning u dunyo — nasiya, bu dunyo, mavjud hayot, shu tiriklik — naqd. Shunday ekan, xayoliy do'zax-u jannatni orzu qilib, behuda g'am chekma, jannatda nima bor-yo'qligini bilmaysan-ku qabilidagi ruboiylari ruhida:

May man'ini aylayub shior, ey voiz,
Dutding rahi ta'ni ishqi yor, ey voiz.
Tarki may-u mahbub edariz jannat uchun,
Sharh aylaki, jannatda na vor, ey voiz?

Quyidagi ruboiysida o'tkinchi umrni qadrlashga, fursatni boy bermay, ilm-u hunar egallash, ezgu ishlar qilishga undaydi. Bag'rida gavhari bo'lmagan sadafning qimmati bo'lmaganidek, insonni ham ilm-u hunari ulug'laydi:

Ilm-u adab ast moyayi izzu sharaf,
Gavhar ki naboshad, chi buvad qadri sadaf?
To fursati kor hast, bekor mabosh,
Mapsand, ki behuda shavad umr talaf[1].

Shoirning forsiy ijodiga mansub mazkur ruboiyning mazmuni quyidagicha: "Izzat va sharafning asosi ilm-u adab hisoblanadi. Gavhar bo'lmasa, sadafning qadri nima ham bo'lar edi? To ishlashga fursat bor ekan, bekor o'tirmay biror ish bilan mashg'ul bo'l. Umrning behuda o'tib ketishiga yo'l qo'yma".

Yoniq bir ehtiros, yorug' bir hasrat, samimiy kechinmalar, nafis tuyg'ular bilan yo'g'rilgan, falsafiy teran va badiiy mukammal bu she'rlar har qanday so'z oshig'ini o'ziga maftun etadi. Ilohiy bir ilhom bo'lmasa, bunday jozib misralarni ojiz bandasining yaratganiga ishonmaysiz. Fuzuliy har bir misrasini obrazlilik asosiga quradi, har bir fikrini badiiy san'atlar bilan bezaydi. Aslida shoirlikning o'zi go'zal va teran fikrni nafis va mukammal shaklda ifoda etmoqdir. Shu ma'noda, shoir ijodida shunchaki tizilgan satr, oddiy qilib aytilgan fikrlar yo'q. Butun boshli she'rini bittagina tashbeh,

[1] Gulchini az gulzori nazmi Fuzuliy. — Dushanbe, 1960. Sah. 108.

detal' yoki fikr asosiga quradigan hozirgi o'zbek she'riyatining navqiron avlodi uchun Fuzuliy ijodi ayni jihatdan buyuk mahorat maktabi, ulkan tajriba ustaxonasidir. Chunonchi, havoda ma'shuqa sochining isi, suvda orazining aksi bo'lganligi uchun ham hubob (ko'pik) yelni bag'riga bosib, suvga ko'z tikmish, deydi shoir bir she'rida:

Yelda bo'lmish bo'yi zulfing, suvda aksi orazing —
Kim, yeli bag'rina bosib, suya ko'z dikmish hubob.

Ko'pikning faqat suv yuzida bo'lishi-yu, havoda shishib turishini qanday go'zal tashbeh bilan ta'riflaydi shoir. Boshqa bir o'rinda esa, mahbubaning gavhar kabi tishlarining ta'rifini sabo dengizga so'ylasa, dengiz qa'ridagi sadaf ichida turgan dur ham uni berilib tinglaydi deydi:

Bahra lo'lo' dishlaring vasfin magar so'ylar sabo —
Kim, quloq tutmish sadaf ichra duri g'alton ango.

Alisher Navoiy kabi turkiy xalqlar orasida Fuzuliyning otashin she'riyati kirib bormagan xonadon yo'q. Ma'lumki, Sharq xalqlari orasida asrlar davomida qissaxonlik va she'rxonlik kechalari an'ana tusini olgan edi. Bu o'ziga xos adabiy davralarda, xususan, hofizxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik mashhur bo'lgan. Fuzuliy g'azallari va "Layli va Majnun" dostoni turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqalgan. Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Hofiz Sheroziyning "Devon", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Chor devon" kitoblari qatorida, Fuzuliy asarlari ham madrasalarning o'quv dasturiga kiritilgan.

Shoir asarlarining xalqimiz orasida qanchalik keng tarqalgani, ota-bobolarimiz uning ijodini sevib o'qiganlari, hikmatli bayt va misralarini takrorlab yurganlarini atoqli adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlaridagi lavhalarda ham ko'rishimiz mumkin. Ota-ona orzu-havasi tufayli Zaynabga uylanish majburiyati ostida qolgan va bu bilan sevgilisi Kumushning qayg'usiga sabab bo'lgan Otabek Fuzuliyning "ma'nolik she'rlari"dan najot axtaradi. Shuning ustiga kelib qolgan Kumush:

" Fuzuliy yaxshi kitob, men ham yolg'iz qolg'an kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, sizammi?"[1] — deydi.

Ma'lum bo'ladiki, Fuzuliy she'rlari dardmand yuraklarga malham, yolg'iz ko'ngillarga hamdam, ishqqa tashna, ilmga oshna qalblarga doimiy mahram bo'lib kelgan. O'zi savodsiz bo'lsa-da, adabiyot muhibi bo'lgan oddiy xalq vakillari ham bunday she'riyat davralariga qatnashib, ulardan bahramand bo'lganlar. Natijada buyuk shoirlarning hikmatlaridan ayrimlari ularning ham qalbiga mahkam o'rnashgan. Ular bu hikmatlarga amal qilganlar, birbirlariga so'ylab yurganlar, o'z nutqlarini bezaganlar. Chunonchi, "Mehrobdan chayon" romanida oddiy qorovul Tohir aka Fuzuliyning "Dahr bir bozordur — har kas mato'in arz edar" misrasini keltirib, olam va odam haqidagi o'z fikr-mulohazalarini tasdiqlaydi[2].

Yoki "Layli va Majnun"dagi:

Gul g'unchaligida xor ilandur,
Ochilsa, bir o'zga yor ilandur, —

misralarini takrorlab yurmaydigan shoir muxlisi topilmasa kerak. Ayni jihatdan, xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov "Ozarbayjon" she'rida:

Bir lahza qo'lidan qo'yganmi o'zbek,
O'zing ayt, Fuzuliy bitgan devonni, —

deb yozganida haq edi.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida falsafiy mazmun va ruh quyuq, kuchli. Shunga muvofiq ravishda, asar kompozitsiyasi ham birmuncha murakkab. Tili va uslubi ham og'ir. Uni teran tushunish uchun muayyan tayyorgarlik va mushohada taqozo qilinadi. Shuning uchunmi, xalq orasida Fuzuliyning "Layli va Majnun"i ko'proq mashhur bo'lgan. Bu doston sodda va xalqchil uslubda yozilgan. Tili ham yengil va tushunarli. Hassos ruhi, jozib

---

[1] *Bu haqda qarang: Abdulla Qodiriy*. O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. — Toshkent, 1994, 150–151-betlar.

[2] *Abdulla Qodiriy*. O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon, 538-bet.

ohangi, haroratli misralari bilan o'ziga tortadi. Dostonning el ichida bu qadar mashhurligiga sabab qilib ba'zi mutaxassislar Fuzuliy o'z asarini Majnun bo'lib yozganligini ko'rsatadilar[1]. Hamid Olimjonning quyidagi misralari ham shoir dostonining xalq orasida qanchalik mashhur bo'lganligidan dalolat beradi:

Fuzuliyni oldim qo'limga,
Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi.

XVII asrdan boshlab Sharqda, jumladan Movarounnahrda forsiy she'riyatga Bedil, turkiy she'riyatga Fuzuliydek ta'sir ko'rsatgan shoir bo'lmagan. Biz keyingi asrlar o'zbek mumtoz she'riyatida Fuzuliydan ta'sirlanmagan, unga u yoki bu darajada ergashmagan, g'azallariga tatabbu' yozmagan, taxmis bog'lamagan, shoirning "vor", "ver", "cho'x", "yo'x", "box", "bing", "etmaz", "qilmaz", "o'lmaz", "bengzatdim", "dushti", "etmazmidim", "dagil", "saqin", "verar", "dutmishlar", "kerakmazmi sango", "aylar bani" kabi ozarbayjoncha talaffuzdagi so'z va iboralaridan foydalanib, g'azallar bitmagan shoirni deyarli uchratmaymiz. Bu ta'sirning izlarini biz Turdi va Mashrabdan tortib, Andalib, Bafoiy, Munis, Ogahiy, Roqim, Ravnaq, Mujrim-Obid, Uvaysiy, Mahzuna, Nodira, Amiriy, Gulxaniy, G'oziy, Shavqiy, Asiriy, Ma'dan, Hijlat, Xon, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Dilshod-Barno, Yusuf Saryomiy, Komil Xorazmiy, Avaz kabi mumtoz, Hamza, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Chustiy, Erkin Bohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol singari zamonaviy shoirlargacha davom etib kelgani va davom etayotganini ko'ramiz. Chunonchi, Mashrabning quyidagi g'azali ozarcha talaffuzda:

Ne savdolar bosha solding, bu savdolar tuganmazmu?
Ki band etting ayog'larni, yana bandlar yozilmazmu?

Munis devoni debochasidagi ustoz shoirlar shogirdlik ehtiromi bilan tilga olingan g'azalida iroqlik ishqidan botinim nash'a topdi, deganda, Fuzuliyni ko'zda tutgan:

[1] *Qarang: Jalolov T.* Fuzuliy, 7-bet.

Topibon ishqi iroqiydan zamirim nash'aye,
Hosil ahli ishqning sho'ri tamomidur manga.

Fuzuliyning, ayniqsa, "kerakmazmi sango" radifli g'azali nihoyatda mashhur bo'lib, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Amiriy kabi ko'plab shoirlar unga tatabbu' yozganlar, taxmis bog'laganlar.

Xon taxallusi bilan ijod qilgan Ma'dalixon Fuzuliy ta'sirida bitgan g'azallaridan devon tuzibgina qolmay, buyuk salafining "Layli va Majnun"iga o'xshatib, shu nomda doston yozgan.

"Fuzuliyning "Bang va Boda", "Haft jom" kabi fors tilida bitilgan asarlari Ahmadjon Tabibiy va Mirzo kabi shoirlar tomonidan o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilingan. Hatto andijonlik noma'lum shoir Fuzuliyning "Bang va Boda" asariga o'xshatib "Choy ila Ko'knor" nomli mustaqil asar yozgani ilm ahliga ma'lum"[1].

Furqatning buyuk salafining "Surmadin ko'zlar qaro, allar hinodin lolarang" misrasini tazmin qilib olib g'azal bitganini bilamiz:

Surmadin ko'zlar qaro, allar hinodin lolarang,
G'ozadin yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang.

Yoki Gulxaniyning mashhur:

Ko'ngul ozodadur, dunyog'a arzi ehtiyoj etmaz,
Tariqat soliki bu yo'lda mayli izdivoj etmaz, —

bayti bilan boshlanadigan g'azali ham Fuzuliy ta'sirida yozilgan.

"Hamdardlikni kuylagan g'azal" maqolasida: "Qardosh ozarbayjon xalqining otashnafas farzandi Muhammad Fuzuliy turkiy g'azal uslubini kamolot cho'qqisiga ko'targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g'azallari ravon va musiqiyligi, o'ynoqligi bilan, go'zal tashbehlarga boyligi bilan ko'ngillarni band etadi. Fuzuliy o'zbek xalqi uchun ham sevimli va qadrlidir. Bizning ota-bobolarimiz Fuzuliy baytlarini ibtidoiy maktabdan yod olib, ko'ngilga jo qilganlar. Layli va Majnunning o'tli muhabbatiga mahliyo bo'lganlar, bir qancha o'tmish shoirlarimiz Fuzuliy ohangida o'g'uz

[1] *Hasan xo'ja Muhammadxo'ja o'g'li.* "Falaklar yondi ohimdan... // "Jahon adabiyoti", 1998-yil, 7-son, 107-bet.

lahjasida g'azallar bitganlar"[1], — deb yozgan Erkin Vohidovning "Fuzuliy haykali qoshida" she'rida mana bunday o'tli e'tiroflarni ko'ramiz:

Oshiqlar uxlaydi saharga tomon
Fuzuliy devonin boshiga qo'yib.
Majnun sevgisidan o'qilsa doston,
Bulbullar kuylaydi butoqqa qo'nib. . .
G'azal ham bo'lurmi shuncha dilrabo,
Bunchalar serishva, bunchalar sernoz.
Mening shoirligim yolg'ondir, ammo,
Fuzuliy she'riga oshiqligim rost.

Erkin Vohidovning o'z ijodida ham Fuzuliy ta'siri kuchli. Masalan, shoirning "Dilga yoz dilbar so'zini, jonon so'zini jonga yoz" misrasi Fuzuliyning "Jonni jononaya etdim, dili dildora fido" misrasini yodga soladi.

Bu jahonda, deydilar, har kimda bor bir o'zga tab',
Menga — may, bulbulga — tong,
gul bargida — shabnam shirin, —

mazmunidagi bayti esa Fuzuliyning:

Har kiming olamda miqdorinchadir tab'inda mayl,
Man labi jononimi, Xizr obi hayvonin sevar, —

bayti ta'sirida yozilgani ko'rinib turibdi. Yoki buyuk salafining:

Oqibat rasvo o'lub, maytak tushar el og'zina,
Kimki bir sarmast soqiy la'li xandonin sevar, —

baytining ta'siri shoirning "uzum" radifli g'azalida shunday aks sado beradi:

Kimki oshiqlikni da'vo aylasa, shuldir jazo,
Oqibat xum ichra bo'ldi mahkumi zindon uzum.

Xum ichida necha yil xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir bir piyola qon uzum.

[1] *Vohidov E.* Shoir-u she'r-u shuur (Adabiy o'ylar). — Toshkent, 1987, 102-bet.

Fuzuliy ijodi jahon miqyosida keng ko'lamda tadqiq va tarjima qilingan. Shoir hayoti va ijodini o'rganishni Latifiy, Ahdiy Bag'dodiy, Som Mirzo Safaviy, Sodiqbek Afshor, Hasan Chalabiy, Mustafo Bayoniy, Riyoziy, Qiyotiy kabi XVI–XVII asrlar tazkiranavislari boshlab berganlar. Asrlar o'tgan sari shoir shuhrati yanada oshib boravergan — asarlari qo'lyozmalari qayta-qayta ko'chirilib, xalq o'rtasida keng tarqalgan. Fuzuliy asarlari qo'lyozmalari, shoir she'rlari kiritilgan bayoz va majmualar dunyoning ko'plab mamlakatlari kutubxonalari, muzeylari, qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgani ham uning qanchalik mashhur so'z san'atkori bo'lganligidan dalolat beradi. T.Jalolovning ma'lumot berishicha, Fuzuliy asarlari Oktabr to'ntarishiga qadar O'zbekistonda 24 marta chop etilgan[1]. Fuzuliy devonining 1581-yili ko'chirilgan mo'tabar nusxalaridan biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi.

XIX asrdan Fuzuliy G'arb sharqshunoslari e'tiborini tortdi. Hammer Purgshtal, Gibb, E.Broun, B.D. Smirnov, A.Krimskiy, E.E. Bertels, F. Ko'prulizoda, M.D. Poshoev, H.Orasli, I.Hikmat, K.Adib, A.N. Tarlan, A.Gulpinorli, Muallim Nojiy, A.Tavfiq, F. Rashot, F. Og'azoda, A.Qoraxon, X.Mozio'g'li, M.F. Oxundov, A.T. Sur, F. Kecherli, A.Shoiq, B. Chobanzoda, J.Jabborli, M.Jalol kabi Yevropa, rus, turk va ozarbayjon olimlari Fuzuliy hayoti va ijodini o'rganish, asarlarini nashr etishda e'tiborga molik ishlarni amalga oshirganlar. Chunonchi, XIX asrda arman shoiri Raffi "Layli va Majnun" dostonini arman tiliga tarjima qilgan. Arman adabiyotshunosi Georgiy Tarzibanyan Fuzuliy haqida uch jildlik tadqiqot yaratgan — uning dastlabki ikki jildi 1928–1929-yillarda Istanbulda bosilib chiqqan, uchinchi jildi muallif vafoti tufayli tugallanmay qolgan[2]. Atoqli ozarbayjon bastakori Uzayr Hojibekov 1908-yili "Layli va Majnun" dostoni asosida birinchi ozarbayjon operasini yaratgan. 1958–1961-yillarda Ozarbayjonda taniqli adabiyotshunos olim Hamid Orasli rahbarligi, ishtiroki va tahririda Fuzuliy asarlarining besh jildlik ilmiy-tanqidiy matni nashr etilgan.

[1] *Qarang: Jalolov T.* Fuzuliy, 8-bet.

[2] *Bu haqda qarang: Arasli G.* Velikiy azerbaydjanskiy poet Fizuli. Str.4.

O‘zbek adabiyotshunosligida Abdurauf Fitrat, Vohid Abdullayev, Vohid Zohidov, To‘xtasin Jalolov, Xolid Rasul, Abduqodir Hayitmetov, Aziz Qayumov, Hasanxo‘ja Muhammadxo‘jayev, Ibrohim Haqqul, Ergash Ochilov, Otabek Jo‘raboyev, Zebo Qobilova kabi olimlar shoir hayoti va ijodi bo‘yicha u yoki bu darajada tadqiqotlar olib borganlar.

Fuzuliyning “O‘landan so‘r”, “G‘amzasin sevding, ko‘ngil...”, “Hosilim barqi havodis...”, “Falaklar yondi ohimdin...”, “Etmazmidim”, “Bu kecha”, “Izhor et”, “Ixtiyorim qolmadi”, “Azal kotiblari ushshoq baxtin qora yozmishlar”, “Nihon etmish” va boshqa ko‘plab g‘azal va murabba’lari kuyga solinib, asrlar davomida xalq hofizlari tomonidan sevib kuylanib kelmoqda.

Fuzuliy o‘z ta’siri va taqdiri xususida fikr yuritar ekan, ularning davrlar taloto‘pida yo‘qolmasligi, vaqt shamolida sovrilmasligi, bil’aks abadulabad boqiy qolishi haqida faxr bilan gapirgan edi. Shoirning bu bashorati haq bo‘lib chiqdi: asrlar o‘tgan sari uning shuhrati ortsa ortib boryaptiki, aslo kamayayotgani yo‘q. Chinakam badiiyat durdonalarining umrboqiyligi ham shunda.

Biz mazkur to‘plamni tuzishda Fuzuliyning taniqli adabiyotshunoslar — To‘xtasin Jalolov va Munirxon Muinzodalar nashrga tayyorlagan “Devon”i, Xolid Rasul nashrga tayyorlagan ikki jildlik “Asarlar”i va “O‘zbek adabiyoti” majmuasining to‘rtinchi jildi ikkinchi kitobidan foydalandik[1].

Ma’lumki, Fuzuliy arab va fors tillarida ham mahorat bilan qalam tebratgan bo‘lib, uning bu tillardagi she’rlari o‘zbek o‘quvchilariga ma’lum emas. Adabiyotimizdagi ana shu kemtiklikni bir qadar to‘ldirish maqsadida shoirning forsiy devonidan ham namunalar tarjima qilib to‘plamga kiritdik.

Ergash Ochilov,
filologiya fanlari nomzodi

---

[1] *Qarang: Fuzuliy.* Devon (Nashrga tayyorlovchilar To‘xtasin Jalolov, Munirxon Muinzoda). — Toshkent, 1959 (ikkinchi nashri — 1961); *Muhammad Fuzuliy.* Asarlar. Ikki jildlik (Nashrga tayyorlovchi Xolid Rasul). Birinchi jild. Devon. Ikkichi jild. Layli va Majnun. — Toshkent, 1968; O‘zbek adabiyoti (Majmua). To‘rt jildlik. 4-jild, 2-kitob (Muharrirlar Porso Shamsiyev, Rahmat Majidiy). — Toshkent, 1960.

"TURKIY DEVON"DAN

G'AZALLAR

Qad anor al-ishqa lil-ushshoqi minhoj al-hudo[1],
Soliki rohi haqiqat ishqa aylar iqtido.

Ishqdir ul nash'ayi komilkim, andandir mudom
Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado.

Vodiyi vahdat haqiqatda maqomi ishqdir —
Kim, mushaxxas o'lmaz ul vodiyda sultondan gado.

Aylamaz xilvatsaroyi sirri vahdat mahrami
Oshiqi ma'shuqdan, ma'shuqi oshiqdan judo.

Eyki, ahli ishqa so'ylarsan: malomat tarkin et!
So'ylakim, mumkinmidur tag'yiri taqdiri Xudo?

Ishq kilki chekdi xatt harfi vujudi oshiqa —
Kim, o'la sobit Haq isbotinda nafyi moado.

Ey Fuzuliy, intihosiz zavq bo'lding ishqdan,
Bo'yladur har ishki, Haq odi-la qilsang ibtido.

* * *

Korgar dushmaz xadangi ta'nayi dushman mango,
Kasrati paykoning etmishdur damirdan tan mango.

Eminam sangi malomatdankim, olib chevrami,
O'ldi zanjiri junun bir qal'ayi ohan mango.

[1] Ma'nosi: Ishq oshiqlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

Andanam rasvoki, selobi sirishkim chok edar,
Zaxmi tig'ing qoni kiydirdikcha pirohan mango.

Dam-badam sham'i jamolingdan munavvar o'lmasa,
Ey ko'zim nuri, kerakmaz diydayi ravshan mango!

Hech maskanda qarorim yo'qdurur ul zavqdin —
Kim, qachon xoki sari ko'ying o'la maskan mango.

Boshda bir sarvi sumanbar vaslining savdosi vor,
Sud qilmaz, bog'bon, nazzorayi gulshan mango.

Ey Fuzuliy, o'dlara yonsun bisoti saltanat!
Yigdur undan, Haq bilur, bir go'shayi gulxan mango.

* * *

Ey malaksiymoki, sandan o'zga hayrondur sango,
Haq bilur, inson demas har kimki insondur, sango.

Vermayan jonin sanga bo'lmaz hayoti jovidon,
Zindai jovid anga derlarki, qurbondur sango.

Olami parvonai sham'i jamoling qildi ishq,
Joni olamsan, fido har lahza ming jondur sango.

Oshiqa shavqing-la jon vermak sango mushkil dagil,
Chun Masihi vaqtsan, jon vermak osondur sango.

Chiqma yorim kechalar, ag'yor ta'nindan saqin,
San mahi avji malohatsan, bu nuqsondur sango.

Podshohim, zulm edub, oshiq sango zolim demish,
Xo'bro'lardan yamon kelmaz, bu bo'htondur sango.

Ey Fuzuliy, xo'bro'lardan tag'ofuldur yamon,
Gar jafo ham kelsa onlardan, bir ehsondur sango.

* * *

Jom ichra mayki, doira solmish hubob ango,
Oyinadurki, aks solur oftob ango.

Zohid savol edarsaki, maydan nadur murod?
Bizda safodur, anda kudurat javob ango

Qon yosh do'kub, yoninda kezar otashin kabob,
Ma'shuqa bengzar otash-u oshiq kabob ango.

Aylar ko'ngilda ashk xating shavqini fuzun,
O'ddin chiqar buxor sochildiqcha ob ango.

Chashming marizi o'ldi ko'ngil, la'linga etur,
Ranji xumora dushdi, davodur sharob ango.

Taklifi jannat aylama ko'yingda ko'nglima,
Chun jannat ahlidur, na verarsan azob ango.

Masduddur Fuzuliya mayxonalar yo'li,
Yo Rab, hidoyat ayla, tariqi savob ango.

* * *

Do'stim, olam saning-chun gar o'lur dushman mango,
G'am dagil, zero yetarsan do'st anjaq san mango.

Ishqa soldim man mani, pand olmayub bir do'stdan,
Hech dushman aylamaz oniki, etdim man mango.

Jon-u tan o'lduqcha mandan dard-u dog' o'ksuk dagil,
Chiqsa jon, chok o'lsa tan, na jon kerak, na tan mango.

Vasl qadrin bilmadim hijron balosin chekmadan,
Zulmati hajr etdi cho'x mubham ishi ravshan mango.

Dudu axgardur mango sarv ila gul, ey bog'bon,
Naylaram man gulshani, gulshan sango, gulxan mango.

G‘amza tig‘in chekdi ul moh, o‘lma g‘ofil, ey ko‘ngil —
Kim, muqarrardur bugun o‘lmak sango, shevan mango.

Ey Fuzuliy, chiqdi jon, chiqmon tariqi ishqdan,
Rahguzori ahli ishq uzra qiling madfan mango.

* * *

Rishtadur jismimki, davri charx vermish tob ango,
Mardumi chashmim duzar har dam duri serob ango.

Soyai zulfing shabistonindadur sham’i ruxing,
Necha yetsun qadr ila xurshidi olamtob ango.

Durdi maytak g‘arqayi xunoba ko‘rdim ko‘nglimi,
Soqiyo, cho‘x etma taklifi sharobi nob ango.

Qomati xam birla bir ahli karomatdur qoshing,
Tosh o‘lur, albatta, gar bosh egmasa mehrob ango.

Chashmingi ahli nazar qasdina ta’yin aylayan,
Nozu g‘amzangdan muhayyo aylamish asbob ango.

Terlamish ruxsor ila xo‘blar ocharlar ko‘nglimi,
Ko‘r, na gulshandurki, otashdan verarlar ob ango.

Silki ahli hola chekmish zohidi ashki riyo,
Mis kibikim, siym qadrin bildirur simob ango.

Ey Fuzuliy, qolmamish g‘avg‘oyi Majnundan asar,
G‘olibo, afsonayi ishqing keturmish xob ango.

* * *

Ishq atvorin musallam ayladi gardun mango,
Bunchakim, yeldi-yugurdi, yetmadi Majnun mango.

Qildi mandan raf' taklifi namozi mastlik,
Soldi Haq bir nash'ayi jomi mayi gulgun mango.

Bog'bon, gar mayl qilman sarvinga, ma'zur tut,
Sarvdan yigrak kelur ul qomati mavzun mango.

Do'stlar, qon yosh to'kub, qildi mani rasvoyi xalq
Vahki dushman chiqdi oxir diydayi purxun mango.

O'lmazam, har qandakim o'lsam, giriftor o'lmadan,
Bir balodur ko'z, bir ofatdur dili mahzun mango.

Ey Fuzuliy, novaki ohim-la oldim intiqom,
Do'na-do'na garchi bedod etdi charxi dun mango.

* * *

G'am diyorinda ajal payki guzor etmaz mango,
Yo'q sonur vorim magarkim, e'tibor etmaz mango.

Yor javr etmaz manga ag'yor ta'lim etmadan,
Billoh, ag'yor aylayan ehsoni yor etmaz mango.

Dog'idar har lahza bargi ayshimi ohim eli,
Xonsi nohaq zulmdurkim, ro'zgor etmaz mango.

Ishq dardi-la xusham, tarki nasihat et, rafiq,
Manki, taryoki mizojam, zahr kor etmaz mango.

Charxdan oshurmadan yoding-la ohi otashin,
Qadr edub, gardun sharafdan zar nisor etmaz mango.

Naqdi jon toroji g'amdan saxlamoq dushvordur,
Ishq to sangi malomatdan hisor etmaz mango.

Yodi la'ling-la Fuzuliy ko'zlayub rohi adam,
Vor bir tadbiri, ammo oshkor etmaz mango.

* * *

Joniming javhari ul la'li guharbora fido,
Umrimning hosili ul shevayi raftora fido.

Dard chekmish sarim ul xoli siyah qurboni,
Tob ko'rmish tanim ul turrayi tarrora fido.

Ko'zlarimdan do'kilan qatrayi ashkim guhari,
Lablaringdan sochilan lo'lo'i shahvora fido.

Choki siynamda o'lan qonli jigar poralari,
Mast chashmingda o'lan g'amzayi xunxora fido.

Pora-pora dili majruhi parishonimdan,
Sari ko'yingda kezan har ita bir pora fido.

Jon-u dil qaydini chekmakdan o'zim qutqordim,
Joni jononaya etdim, dili dildora fido.

Ey Fuzuliy, no'la gar saxlar esam joni aziz,
Vaqt o'lakim, o'la ul sho'xi sitamkora fido.

* * *

G'amdan o'ldim, demadim holi dili zor sango,
Ey guli toza, ravo ko'rmadim ozor sango.

Ich mayi nobki, bag'rindan edar jumla kabob,
Otashi ishq ila ushshoqi jigarxor sango.

Mayi gulgunda dagil nargisi masting aksi,
Qadah o'lmish ko'z ochib oshiqi diydor sango.

Orazing gul-gul edubdur mayi gulgun tobi,
Vahki, bir guldan ochilmish necha gulzor sango.

Bog‘a sayr et bu ruxu la’l ilakim, g‘unchavu gul,
Go‘stara xuni dil-u diydayi xunbor sango.

Der edim qomatinga sarv, vale o‘zga emish
Harakotu ravishu shevavu raftor sango.

Egilub tarfi banogo‘shinga dardi dilimi
Yo o‘tog‘ang deya, yo turrayi tarror sango.

To giriftoringamu fitnadan o‘lman ozod,
Hech kim o‘lmasin, ey sho‘x, giriftor sango.

La’li nobing havasi bag‘rimi qon ayladigin,
Ohkim, qonli yoshim qilmadi izhor sango.

Ey Fuzuliy, falaking vor saning-la nazari —
Kim, g‘am-u mehnatini verdi nakim vor sango.

* * *

G‘amzasin sevding, ko‘ngil, joning kerakmazmi sango?
Tig‘a urding, jismi uryoning kerakmazmi sango?

Otashin ohim-la aylarsan manga taklifi bog‘,
Bog‘bon, gulbargi xandoning kerakmazmi sango?

Yela verma dog‘idub har yon, ayoqlardan ketur,
Ey pari, zulfi parishoning kerakmazmi sango?

Ey kamonabro‘, raqiba verma g‘amzangdan nasib,
O‘q otarsan tosha,
paykoning kerakmazmi sango?

Yondirub jonim, jahonso‘z etma barqi ohimi,
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmazmi sango?

Kufri zulfindin mani man' aylamak loyiqmidur,
So'fiy, insof ayla, iymoning kerakmazmi sango?

Tutalimkim, ashk selobina yo'qdur e'tibor,
Ey Fuzuliy, chashmi giryoning kerakmazmi sango?

* * *

Garchi, ey dil, yor uchun yuz verdi yuz mehnat sango,
Zarracha qat'i muhabbat etmading, rahmat sango!

Saxlama naqdi g'ami ishqini, ey jon, zohir et —
Kim, vera habsi badandan chiqmag'a ruxsat sango.

Chorai behbudimi so'rdim muolijdan, dedi:
Dard dardi ishq esa mumkin dagil sihhat sango.

Tutaram tongla qiyomatda, habibim, domaning,
Mastsan g'aflat sharobindan, bu kun muhlat sango.

Ahli ishqi otashi hijrona aylarsan kabob,
Do'na-do'na imtihon etdim, budur odat sango,

Injidar nolam sani, vah, no'la gar bir tig' ila
Chashmi jalloding eda ehson mango, minnat sango.

Sanda dun ko'rdim, Fuzuliy, mayli mehrobu namoz,
Tarki ishq etmakmi istarsan, nadur niyat sango?

* * *

Ey bevafoki, odat o'lubdur jafo sango,
Billoh jafodur, o'lma demak bevafo sango.

Gah nozu gah karashmayu gah ishvadur ishing,
Jonin sevanlar o'lmasa yig oshno sango.

Ming jon o'laydi kosh mani dilshikastada,
To har biri-la bir gez o'laydim fido sango.

Ishqingda mubtalolig'imi ayb edan sonur —
Kim, o'lmoq ixtiyor iladur mubtalo sango.

Ey dilki, hajra do'zmayub, istarsan ul mahi,
Shukr et bu hola, yo'qsa kelur bir balo sango.

Ey gul, g'amingda ashk ruhi zardim etdi ol,
Bildirdi o'la surati holim sabo sango.

Dushmaz chu shoh qurbi, Fuzuliy, gadolara,
Ul shahdan iltifot na nisbat mango sango.

* * *

Faqr mulki taxtu olam tarki afsardur mango,
Shukrililloh, davlati boqiy muyassardur mango.

Zulfu ruxsori xayoli-la nadur holing, demang,
O'ylayamki, kecha-yu kunduz barobardur mango.

Huru to'bi vasfin, ey voiz, bu kun oz aylakim,
Hamdam ul to'bixiromi hurpaykardur mango.

Oradan, ey sham', chiq, bir go'sha tutkim, bu kecha
Bazm bir xurshidtal'atdan munavvardur mango.

Verdi bodi subh bir xurshidtal'at mujdasin,
Sham'vash, vahkim, bu dam o'lmak muqarrardur mango.

Zohido, sen qil tavajjuh go'shayi mehrobakim,
Qiblai toat xami abro'yi dilbardur mango.

Ey Fuzuliy, jam' o'lur payvasta el nazzorami,
Arsai dashti junun sahroi mahshardur mango.

* * *

Sharbati la'lingki, derlar chashmayi hayvon ango,
Ul verir jon dam-badam ushshoqavu man jon ango.

O'qlaringdankim, tikontak sonchilibdur har taraf,
Gulbunedur xam qadim, har g'uncha bir paykon ango.

Xolu xatdur, bilman, ul oyinayi ruxsor uza,
Yo ko'zimdan aks solmish mardumi mujgon ango.

Tutma, ey qon, dam-badam tug'yon edub tan chokini,
Qo'y, bu manzardan dame nazzora qilsun jon ango.

Bahra lo''lo' dishlaring vasfin magar so'ylar sabo —
Kim, quloq tutmish sadaf ichra duri g'alton ango.

Ko'nglima solmish xating zavqin falak qon yutdurub,
Tifltakkim, o'xudurlar zajr ila Qur'on ango.

Ey Fuzuliy, ul sanam afg'oninga rahm aylamaz,
Tosha bengzar bag'ri, ta'sir aylamaz afg'on ango.

* * *

Har zamon manzur bir sho'xi sitamgardur mango,
Qanda o'lsam, bir balo Haqdan muqarrardur mango.

Ul xami abro'ya qilsam sajda har soat no'la,
Qibla ila ul xami abro' barobardur mango.

G'am dagil jismimda gar sangi malomat zaxmi vor,
Shahnayi bozori savdoyam, bu zevardur mango.

Ko'zda xunoluda paykoning xayoli-la xusham,
Har biri, go'yoki bir bargi guli tardur mango.

Zaxmlardan etmadim hargiz adoyi shikvakim,
Har o'qing bir ne'mati g'ayri mukarrardur mango.

Aql irshodi-la bo'lmoq kom mumkindur, vale,
Domi roh ul halqayi zulfi muanbardur mango.

Axtari baxtim vubolin ko'rki, ul mahdan kelan,
Mehrlardur o'zgaya, javr-u jafolardur mango.

Ey Fuzuliy, manzili maqsuda yetsam, na ajab,
Xidmati piri mug'on irshodi rahbardur mango.

* * *

Yo man ahota ilmakul ashyoa kullaho[1]
Na ibtido sanga mutasavvir, na intiho.

Kim versa jon yo'lingda bo'lur xoki maqdaming,
Go'yoki xoki rahingdir naqdi jonbaho.

Sansan qilan mazohiri ummidu bim edub
Musoni ilm ganji, asosini ajdaho.

Sandan bo'lubdur Ahmadi mursal maqomi qurb,
Tahsini "Yo"vu "sin" ila tashrifi "To" vu "ho"[2].

Ya'qubda nishonayi shavqing g'am-u alam,
Yusufda nash'ayi nazaring behjatu baho.

Bo'lmazdi qahring ochmasa xoni siyosatin
"Hal min mazid"[3] luqmasina do'zax ishtiho.

---

[1] *Ma'nosi:* "Ey ilmning butun narsalarini saqlovchi".

[2] Bu erda Qur'oni karimning "Yosin" va "Toho" suralariga ishora qilinmoqda.

[3] *Ma'nosi:* "Yana bormi?"

Yo Rab, baloe qayda, Fuzuliy asirdur,
Ul bedili bu domi kuduratdan et raho.

* * *

Yo Rab, hamisha lutfingi et rahnamo mango,
Go'starma ul tariqeki, etmas sango, mango.

Qat' ayla oshnolig'im andanki g'ayrdur,
Onjoq o'z oshnolaring et oshno mango.

Bir yo'lda sobit et qadami e'tiborimi —
Kim, rahbari shariat o'la muqtado mango.

Yo'q manda bir amal sango shoyista, oh, agar,
A'molima ko'ra vera adling jazo mango.

Xavfi xatarda muztaribam, vor umidkim,
Lutfing vera bashorati afvu ato mango.

Man bilmazam mango keragin, san hakimsan,
Man' ayla, verma, harna kerakmaz sango, mango.

Uldur mango murodki, o'lur sanga murod,
Hoshoki, sandan o'zga o'la muddao mango.

Habsi havoda qo'yma Fuzuliy sifat asir,
Yo Rab, hidoyat ayla tariqi fano mango!

* * *

Zihi zoting nihonu ul nihondan mosivo paydo,
Bihori sun'inga amvoj paydo, qa'r nopaydo.

Baland-u pasti olam shohidi fayzi vujudingdur,
Dagil behuda o'lmoq yo'q ekan arz-u samo paydo.

Kamoli qudrating izhori hikmat qilmag'a etmish
G'ubori tiyradan oyinayi getinamo paydo.

Damodam aks olur mir'oti olam qahru lutfingdan,
Aning-chun gah kudurat zohir aylar, gah safo paydo.

Gahi tuprog'a aylar hikmating ming mahliqo pinhon,
Gahi sun'ing qilur tuprog'dan ming mahliqo paydo.

Jahon ahlina to asrori ilming qolmaya maxfiy,
Qilibdur hikmating kuffor ichinda anbiyo paydo.

Nishoni shafqatingdurkim, o'lur izhor hamding-chun,
Fuzuliy tiyra tab'indan kalomi jonfizo paydo.

* * *

Ashriqat min falakil behjati shamsun va biho,
Malaal olama nuran va sururan va baho[1].

Chiqdi bir kunki, ziyosinda tamomiyi rusul,
O'ldi mahv, o'ylaki, xurshid shuo'inda suho.

O'ldi bozori jahon ravnaqi bir durri yatim –
Ki, dag'il ikki jahon hosili ul durra baho.

Rutbayi hikmati me'roji kamolina ko'ra,
Hukamo furqayi dun, falsafa jam'i sufaho.

Munhiyi ma'rifati hol dil ila doim
Qilur ahli Haqa asrori haqiqat inho.

Necha taqrir edayin vasfini bir shohingkim,
Ango vassof o'la "Yosin"u muarrif "Toho".

Ey Fuzuliy, rahi shar'ini tut ul rohbaring,
Bu tariq ila zalolatdan o'zing ayla raho.

[1] *Ma'nosi:* Go'zalik falagidan porloqlik va quyosh chiqdi, olamda go'zallik, shodlik va nur bilan to'ldirdi:

* * *

Ey o'lub me'roj burhoni uluvvi shon sango!
Yera inmish ko'kdan istiqbol edub Furqon sango.

Hiyni da'voyi muhabbat muddai ilzomina,
Johil ekan el, kamoli ilm bas burhon sango.

Kilki hukming chekdi harfi soyiri adyona xat,
Hukm isbot etdi nafyi soyiri adyon sango.

Boqiyi mo'jiz na hojat amri Haq isbotina,
Olam ichra mo''jizi boqiy yetar Qur'on sango.

Vasf Jabrili amin etmish qabuli xizmating,
Sirri Haq kashfina oning-la yetib farmon sango.

Sansan ul xotamki, daf' etmish tamomiy hokimi,
Xotami hukmi risolat topshirib davron sango.

Ul qadar zavqi shafoat javhari zotingdadir —
Kim, kelur arzi xato ma'nida bir ehson sango.

Mohi navdur, yo'qsa san etdikda sayri osmon,
Qoldirib barmoq keturmish osmon imon sango.

Yo nabi, lutfing Fuzuliydan kam etma, ul zamon —
Kim, o'lur taslim miftohi dari g'ufron sango.

* * *

Kamoli husn veribdur sharobi nob sango,
Sango haloldur, ey mug'bacha, sharob sango.

Sani malak ko'rali yozmaz o'ldi ishqi gunoh
Vale yozildi bu yuzdan base savob sango.

Labing savolina vermaz javob ushshoqing,
Savol o'lursa bu sandan, nadur javob sango?

Jazo kuninda so'ralmas xatolar ayladiging,
Yetar fig'on ila man verdigim azob sango.

Mani qarorim ila qo'ymaz o'lding, ey gardun,
Yeridir ohim ila versam inqilob sango.

Shuo'yi javhari tig'indan umma rahm, ey dil,
Sog'inma suv veray, ey tashna, bul sarob sango.

Fuzuliy, boshinga ul sarv soya soldi bugun,
Uluvvi rif'at ila yetmas oftob sango.

* * *

Shabki, miftohi mahi nav o'la ganjinakusho,
Qila paymonai garduni javohirpaymo.

Gizlayub chashmayi xurshid suvin ko'zayi charx,
Qatra-qatra qila anjum rashahotin paydo.

Lolarang o'la shafaqdan falaki minofom,
Dishra solmish kibi aksi mayi gulgun mino.

Mahi nav jomini davra ketira soqiyi dahr,
Anjumi charxa sola nash'ayi ta'siri havo.

Man ham ul ruhfizo rohi to'kam sog'arakim,
Naxli himmat rashahotindan ola nash'-u namo.

Tutar o'lsam, na ajab, may etagin durd sifat,
Aylayubdur necha tuprog'i bu iksir tillo.

Jom davrinda, Fuzuliy, o'qudim may vasfin:
Otashi xirmani g'am, obi hayoti hukamo.

* * *

Manimtak hech kim zor-u parishon o'lmasun, yo Rab!
Asiri dardi ishq-u dog'i hijron o'lmasun, yo Rab!

Damodam javrlardur chekdigim berahm butlardan,
Bu kofirlar asiri bir musulmon o'lmasun, yo Rab!

Ko'rub andishayi qatlimda ul mohi, budur virdim —
Ki, bu andishadan ul mah pushaymon o'lmasun, yo Rab!

Chixormoq etsalar tandan chekub paykonin ul sarving,
Chixon o'lsun dili majruh, paykon o'lmasun, yo Rab!

JafOy-u javr ila mu'todam, onlarsiz no'lur holim?
Jafosina hadu javrina poyon o'lmasun, yo Rab!

Demankim, adli yo'q, yo zulmi cho'x har hol ila o'lsa,
Ko'ngil taxtina andan g'ayri sulton o'lmasun, yo Rab!

Fuzuliy topdi ganji ofiyat mayxona kunjindan,
Muborak mulkdur ul mulk, vayron o'lmasun, yo Rab!

* * *

Subh chekmish charxa tig'in, tosha cholmish oftob,
Zohir etmish ul mahi dalloka ayni intisob.

Dam-badam tahriki tig'indan bo'lur boshlar safo,
O'ylakim, suv mavj urub, zohir qilur har dam hubob.

Har sari mo'yimda bir bosh o'lsa mo'yi sar kibi
Kessa vorin, tig'i xunrezindan etman ijtinob.

Kashfi asrori malomat javhari tig'indadur —
Kim, olur boshlardagi savdo jamolindan niqob.

1619321

G‘ussasindan boshiming qil kibi injilmish tanim —
Kim, tanim-la tig‘i o‘rtosinda boshimdur hijob.

Tig‘i chobuk sayrina ohuyi Chin dersam no‘la,
Sayri qildiqcha to‘kar sahroyi China mushki nob.

Mo‘yi jo‘lidam-la tig‘indan umidim kesmazam,
Ey Fuzuliy, xoli o‘lmaz barqi lome’dan sahob.

* * *

G‘olibo, bir ahli dil tuprog‘idir durdi sharob —
Kim, qilib hurmat, binolar tutmish ustinda hubob.

Barqu boron sonmakim, ko‘rdikcha oh-u ashkimi,
Bilmazam namdur manim, og‘lar mango yonar sahob.

Ey so‘ran holim, bu istig‘no savolindan na sud?
Holim aylarsan savol, ammo eshitmazsan javob.

Dashti g‘amda xoki qabrim uzra sarvi girdbod,
Cheksa bosh, ul sarvdan suv kesma, ey seli sarob.

Yetmayub vaslina san Laylivashing bir umrdur,
Man kibi Majnun o‘lub sahroya dushmish oftob.

Ul but abro‘sin qo‘yib, mehroba do‘ndarmam yuzim,
Qo‘y mani, zohid, mango cho‘x verma, Tangri-chun, azob.

Naqdi umring bir sanam ishqinda sarf etding tamom,
Ey Fuzuliy, oh, agar sandan so‘ralsa bu hisob.

* * *

Qilsa vasling shomimi subha barobar, yo‘q ajab,
Rasmdur fasli bahor o‘lmoq barobar ro‘z-u shab.

Kunki, soyang dushdigi yerdan turar — bir vajhi vor,
Kelsa oliqadrlar, faqr ahli turmakdur adab.

O'lmadan mayxonai ishqingda masti jomi zavq,
Duzmadi bazmi falakda Zuhra qonuni tarab.

Jannati vaslingdur ul maqsadki, iymon ahlina
Qilsa Haq ro'zi jahannam otashi uldur sabab.

G'olibo, maqsad visolingdur, dun-kun tinmayub,
Charx sargardon kezar, bilmas nadur ranj-u taab.

Bastayi zanjiri zulfingdur nasimi tarmizoj,
Tashnayi jomi visolingdur muhiti xushklab.

Qilma fayzi ne'mati vasling Fuzuliydan darig',
Yo'qdur o'zga matlabi — sandan sani aylar talab.

* * *

San yuzingdan olami ravshan qilub solding niqob,
Yoziya solsin bu kundan bo'yla nurin oftob.

San na nuri poksan, ey mazhari sun'i iloh —
Kim, olur sham'i ruxingdan nur mehr-u mohtob.

Aksi ro'ying suya solmish soya, zulfing tuprog'a,
Anbar etmish tuprog'ing odin, suving ismi gulob.

Yelda bo'lmish bo'yi zulfing, suvda aksi orazing —
Kim, yeli bag'rina bosib, suya ko'z dikmish hubob.

La'lgun maydur alingda sog'ari siymin ila,
Yo nigini la'ldur rashki labingdan o'ldi ob.

Kilki qudrat lavhi siynamda sani qilmish raqam,
Aylayub mahbublar majmuasindan intixob.

Ey Fuzuliy har amal qilsang xatodur g'ayri ishq,
Budurur man bildikim: "Ballohu a'lam bis-savob"[1].

* * *

Ko'hkan Shirina o'z naqshin chekub, vermish firib,
Ko'r na johildur, yo'nar toshdan o'zi-chun bir raqib.

Qoshlaring yoyi bir o'q lutf aylamish har oshiqa
Man ham andan aylaram bir o'q tamanno, yo nasib!

To'tiyoyi xoki poying fayzina yo'l bo'lmisham,
Nuri chashmim ayb qilma, ko'r o'lur derlar g'arib.

Muztaribdur chorayi dardimda, vahkim, bilmayub
Bir davosiz darda o'rgatmish o'zin miskin tabib.

Barqi ohindan evi har go'sha bo'lmish raxnalar,
Kel, ko'r, ey gulkim, giriftori qafasdur andalib.

Ey manga sabr et deyan, holi dilimdan bexabar,
Ishq o'lan yerda nedur orom yo naylar shikib?

Ey Fuzuliy, injima, sandan tag'oful qilsa yor,
Rasmdurkim go'stara ahboba istig'no habib.

* * *

Ulki har soat kulardi chashmi giryonim ko'rub,
Og'lar o'ldi holima berahm jononim ko'rub.

Aylayan ta'yin ajzoyi mudovo dardima,
Tark edub, jam' etmadi holi parishonim ko'rub.

Lolaruxlar ko'ksiming chokina qilmazlar nazar,
Ahli kamola johil agar qadr qilmasa,
Ma'zurdur, malomatin etmak ravo dagil.

Johil tabiatinda mazoqi kamol yo'q.
Har nafsa iqtidoyi tabiat xato dagil.

Ulfat hamisha far'i o'lur oshnolig'ing,
Johil fazilat ahli ila oshno dagil.

3

Ey safoyi surating qaydin chekan, bilkim, hanuz
Zangdan oyinayi idrokingi pok etmading.

Zangdir oyinayi idroka har suratki vor,
San hanuz, ey soda, bu mazmuni idrok etmading.

4

Parda chek aybina zulmat kibi xalqing doim,
Gar dilarsanki, nasib o'la sana obi hayot.

Qilma xurshid kibi aybnamoliqki, falak
Yera solmaya sani ba'd uluvv ud-darajot[1].

Jahd qil, zoting o'la mazhari osori qabul,
Qilma ul joha tafoxurki, o'la xoriji zot.

Fazl o'lur sonma sanga manzilati aslu nasab,
Joh o'lur sonma sanga kasrati asbobu jihot.

Oriyatdan o'zingga qilma qamartak ziynat,
G'ayrdan oriyating nur esa ham yoziya ot.

5

Ey muallim, olati tazvirdur ashrora ilm,
Qilma ahli makra ta'limi maorif zinhor!

Hiyla uchun elm ta'limin qilan mufsidlara,
Qatli om uchun verar jalloda tig'i obdor.

Har na tazvir etsa ahli jahl, anga o'lmaz sabot,
Makri ahli ilmdur, asli fasodi ro'zgor.

6

Baxil qilmasa jam' etdigi diram sarfin,
Niholi maqsadi sarsabz o'lub, samar vermaz.

Alindagi guhari bazl qilmasa mumsik,
Shabi g'amina amal mujdayi sahar vermaz.

Tuganmayincha kavokib, gunash tulu' etmaz,
To'kilmayincha shukufa nihol bar vermaz.

[1] **Ba'duluvv ud-darajot** — ulug' martabalardan keyin.

7

Eyki, andishayi mol ila sarosima o'lub,
Dunu kun dahrda oshufta kechar ahvoling.

Jam'i mol ayladiging rohat echundur, ammo,
Rohating o'ksuk o'lur har necha ortar moling.

Mol cho'x yig'ma, hazar ayla azobindankim,
Ranji ortar og'ir o'ldiqcha yuki hammoling.

8

O'lsa maqsudingcha davroni falak bir necha kun,
O'lma mag'rur, eyki, holi dahr ravshandur sanga.

Qotili obovu ajdoding muof etmaz sani,
Umma andan do'stliq rasminki, dushmandur sanga.

9

Hamisha do'stim uldur deramki, mol verib,
Qilur tabiatimni bastayi aloqai mol.

Ibodati Haqu kasbi ulum uchun mutlaq
Qo'ymoz mulohazayi zabti mol manda majol.

Mudom dushman anga so'ylaramki, molim olib,
Manga muyassar edar ne'mati farog'ati hol.

Huzuri qalb verar ravnaqi ibodati Haq,
Farog'i xotir o'lur mo'jibi husuli kamol.

Fig'onki, do'stimi dushmanimdan etman farq,
Kamoli jahl ila avqot sarf o'lur mah-u sol.

Bu jahl ila o'zimi ahli ma'rifat sonuram,
Zihi tasavvuri botil, zihi xayoli mahol.

10

Zulm ila oqchalar olub zolim
Aylar in'om xalqa minnat ila.

Bilmaz onikim, etdigi zulma
Ko'rajakdur jazo mazallat ila.

Muddaosi bukim, Rizoyi Iloh
Anga hosil o'la bu odat ila.

Jannati olmoq o'lmaz oqcha ila,
Kirmoq o'lmaz bihishta rishvat ila.

11

Ming ekan qadr-u qiymating, bir o'lur
Muztarib o'lsa qalbing, ey orif!

Ayla taskini qalb hosilkim,
Alfi tahriki qalb aylar alif[1].

12

Uldur g'azalki, fayzi aning om o'lub mudom,
Oroyishi majolisi ahli qabul o'la.

Virdi zaboni ahli safovu surur o'lub,
Mazmuni zavqbaxsh sari ul husul o'la.

Andan na sudkim, o'la mubham iborati,
Har yerda istimo'in edanlar malul o'la.

13

Sarfi naqdi umr edub, man kasbi irfon etmisham,
Ahli dunyo ham kamoli jahl ila tahsili mol.

[1] **Alf'** — arabchada ming, "alif" — bir degani.

Dahr bir bozordur har kas mato'in arz edar:
Ahli dunyo — siym-u zar, ahli hunar — fazl-u kamol.

Kimga mandan naf' bo'lmaz, istaman naf'in aning,
Ulki, yo'q naf'im anga, naf'i manga o'lmaz halol.

Istaman nodon manga gar versa ganji siym-u zar —
Kim, evazsiz mola nodondan tasarrufdur vubol.

14

Aylayub nodona arzi fazl-u izhori hunar,
Sharmsor etmak ato ummoq nadur zulmi sarih!

San bilursan mujmalan andan na olursan vale,
Bilmaz ulkim oldig'i sandan hasandur yo qabih.

Zohiran sotmoq hunar, olmoq ato, bir bay'dur,
Tifldur nodon, buyurmaz shar' aning bay'in sahih.

15

Har kiming vor esa zotinda sharorat kufri,
Istilohoti ulum ila musulmon o'lmaz.

Gar qaro toshi qizil qon ila rangin edasan,
Tob'a tag'yir verib, la'li Badaxshon o'lmaz.

Aylasang to'tiya ta'lim adoyi kalimot,
Nutqi inson o'lur, ammo o'zi inson o'lmaz,

Har uzun bo'yli shijoat eda bilmaz da'vo,
Har og'ochkim, bo'y ota sarvi xiromon o'lmaz.

16

Ey xoja, gar qulingdan o'g'ulliq murod esa,
Shafqat ko'zi-la boq anga doim o'g'ul kibi.

B-ar o'g'lingi dilarsan o'la sohibi adab,
Albatta ayla zillata mu'tod qul kibi.

17

Dahr bir selobdur mulhaq adam daryosina,
Bizki, sargardonmiz, ul seloba dushmish xor-u xas.

Chirkinur xor-u xas ul selob o'ldiqcha ravon,
Yetmadan daryoya rohat mumkin o'lmaz bir nafas.

18

Kafi hirs ila doim domani dunyoyi dun tutsang,
Zamona sho'rbaxt aylar sani payvasta daryotak.

Mulavvas o'lmayub, tajrid ila chiqsang bu olamdan,
Sani zoli falak xurshida juft aylar Masihotak[1].

19

Ey ko'ngil, mutlaq ibodat qilmayub umring tamom
Aylading savdoyi zulfi har pariruxsora sarf.

Soch oqardi, kel, yetar mir'oti baxting tiyra qil,
Umrdan bir damki qolmish ayla istig'fora sarf.

20

Xiradmandeki, doim olami ilm ichra sayr aylar,
Asolibi fununi she'rdan albatta g'ofildur.

Mazoqi she'r ham bir o'zga olamdur, haqiqatda
Iki olam musaxxar aylamak g'oyatda mushkildur.

[1] Iso alayhissalom maqom tutgan to'rtinchi osmon Quyosh burjida bo'lib, ular o'rtasidagi yaqinlik va bog'liqlik sababi shunda.

21

Podshohi mulk dinor-u diram rishvat verib,
Fathi kishvar qilmog'a aylar muhayyo lashkari.

Yuz fasod-u fitna tahriki-la bir kishvar olur,
Ul daxi osori amn-u istiqomatdan bari.

Go'staran soatda davroni falak bir inqilob
Ham o'zi foniy o'lur, ham lashkari, ham kishvari.

Ko'r na sultonam mani darveshkim, fayzi suxan
Aylamish iqbolimi osori nusrat mazhari.

Har so'zim bir pahlavondurkim, bo'lur ta'yidi Haq,
Azm qildiqcha dutar tadrij ila bahr-u bari.

Qandakim, azm etsa, marsum-u mavojib istamaz,
Qonsi mulki dutsa, tegmaz kimsaya sho'ru shari.

Poymol etmaz ani osibi davri ro'zgor,
Aylamaz ta'sir anga davroni charxi chanbari.

Qilmasun dunyoda sultonlar manga taklifi jud,
Basdurur boshimda tavfiqi qanoat afsari.

Har jihatdan forig'am, olamda hoshokim, o'la
Rizq uchun ahli baqo ahli fanoning chokari.

22

Sadoyi nay harom o'lsun deding, ey so'fiyi johil,
Yela verding xilofi shar' ila nomusin isloming.

Bu andom ila vajdiyatdan dam urmoq istarsan,
Ilohi nay kabi surox-surox o'lsun andoming[1].

[1] **Andom** — bu erda: tan, jism.

23

Muttasil ma'rifat ahlini oyoqlara solib,
Falaki sifla qilur mehnat-u g'am pomoli.

Ulki johildur edub jumla murodin hosil,
E'tibor ila qilur masnadi qadrin oli.

Bu sababdan biluramki, bu jahon avratdur,
Avrating bo'yladur avlodi ila af'oli.

Ulu avlodi kesar suddanu ta'dib verar,
Sud verib lutf ila bog'lar beshiya atfoli.

24

Yoqami panjayi taxfivi rahi shar' tutar,
Domani ma'rifati ahli rayosat tutsam.

Changi iflos tutar oyinayi rohatimi
Tarki hukkom qilib, kunji qanoat tutsam.

Hech holatda bo'linmaz asari rohati dil,
O'luram muztarib ul-hol na san'at tutsam.

25

Do'g'rulig' ila ista uluvvi maqomkim,
Keldikcha holinga vera davri falak rivoj.

Do'g'rulig' ila harflara sadrdur alif
Yo harfini oyog'a buroqmishdur e'vijoj.

Do'g'rular ila kezki, sani sarbaland eda,
Egrilar ila aylama albatta imtizoj.

Yo ixtiloti ila sarir o'ldi poymol,
Boshda maqom tutdi alif nusrati-la toj.

26

Muddai aylar manga taqlid nazmu nasrda,
Lek nomarbut alfozu mukaddar zoti vor.

Pahlavonlar bodpolar sakradanda har yonga
Tifl ham javlon edar, ammo og'ochdan otdi vor.

27

Ul sababdan forsi lafz ila cho'xdur nazmkim,
Nazmi nozik turk lafzi-la ekan, dushvor o'lur.

Lahjayi turki qabuli nazm tarkib aylasa,
Aksarin alfozi nomarbutu nohamvor o'lur.

Banda tavfiq o'lsa, bu dushvori oson aylaram,
Navbahor o'lg'och, qikandan bargi gul izhor o'lur

28

Man subh-u shom dudi dili so'znok ila
Bag'rin kabob edub, veraram charxa inqilob.

Hutu hamal madori ila osmon daxi
Qon uddurib verar dili so'zonima azob.

Dunyoda yo'q farog'ata ummid, netakim,
Qon uddurur netakim jizkinur kabob.

29

Ilm kasbi-la rutbayi rif'at
Orzuyi mahol emish anjaq.

Ishq emish har na vor olamda
Ilm bir qil-u qol emish anjaq.

30

Keling, ey ahli haqiqat, chiqalim olamdan,
G‘ayr yerlar kezalim, o‘zga safolar ko‘ralim.

Sayri garmiyati g‘avg‘oyi qiyomat qilalim,
Baz’i jam’iyati hangomayi mahshar ko‘ralim.

Ravishi silsilayi dahr malul etdi bizi,
Necha bir dahrda avzoyi mukarrar ko‘ralim.

31

Sevaram ul nigori siymbari —
Ki, jafopeshav-u sitamgardur.

Nechakim, anga ishqbozlig‘im
Ma’siyat o‘ldig‘i muqarrardur.

Javr ila ul mudom man’im edub,
Rahi zuhd-u saloha rahbardur.

Qobili ajr o‘lursa javri, no‘la,
Amri ma’rufu nahyi munkardur.

32

Necha bir nafs tamannosi ila
Yemak-u ichmak o‘la dilxohing.

Aylayub zuhd-u vara’dan nafrat,
Toati haqdan o‘la ikrohing.

Ma’bading matbax o‘la shom-u sahar,
Mustaroh o‘la ziyoratgohing

Buning uchunmi o‘lubsan maxluq?
Bumidur amri sanga Ollohing?

33

Ey qoziyi xujastoliqokim, Haq aylamish
Sohibsariri masnadi hukmi qazo sani.

Jahd aylakim, mulohazayi naf' dunyavi,
Hukmi qazoda etmaya ahli xato sani.

Maqbuli xalq qilmish ekan ilm-u ma'rifat,
Mardudi xoliq aylamoq irtisho sani.

34

Ey xato lafz ila Qur'oning shukuhin sindiran,
Mo''jizi oyoti Qur'ondan hazar qilmazmisan?

Har alif bir xanjari xunrezi burrondur sanga,
Xanjari xunrezi burrondan hazar qilmazmisan,

Bir hakimi komiling dorush-shifoyi hikmatin.
Etmak istarsan xarob, ondan hazar qilmazmisan?

35

Eyki, olamda muhabbat odini mazmun edub,
Har ramon bir mohruxsoring o'lursan moyili.

Kechdi umring — shohidi maqsad jamolin ko'rmading,
Shohidi maqsad sog'inmish, san aroda hoyili.

Orif esang, tuta ko'r sarrishtayi fayzi baqo,
Tark qil bu surati foniyu naqshi zoyili.

36

Hamdi behud dam-badam ul mubdii ashyoyakim,
Xilqati imkon vujubi zotini ijob edar.

Gah savodi girdbodi qahra xoki tiyrani
To'tiyoi diydayi xurshidi olamtob edar.

Gah nuzuli qatrayi boroni abri rahmati
Yer yuzinda sabzayi pajmurdayi serob edar.

Mayda muzmar aylayub kayfiyati tag'yiri hol,
Siymbarlar zulfini jon qaydina qullob edar.

Jona ham albatta andandur bu iste'dodkim,
Rag'bati mahbubi parvoyi sharobi nob edar.

O'lakim, maqbul eda uzri gunohim, chun bilur —
Kim, amal taklifini jam'iyati asbob edar.

37

Ey vujudi kamoling oyinadori fayzi Haq,
Ostoning qiblayi hojoti arbobi yaqin.

Ey kamoli rif'ating sarmoyayi amn-u amon,
V-ey jamoli shavkating piroyayi dunyo-vu din!

Husni ra'ying oftobi olami sidq-u safo
Xoki poying man'shayi jam'iyati ro'yi zamin.

Kelmamish bir san kibi pokizatiynat olama,
To binoyi olam etmish naqshbandi mou tin.

Masnadi No'shiravondur, buq'ai Dor us-salom,
Sansan istehqoq ila No'shiravona jonishin.

Jismidur ma'nida burji avliyosan ruxi pok,
Bir nigindur xittayi Bag'dod, san naqshi nigin.

Sarvara yuz shukrkim, fayzi kamoli rif'ating
Avliyo burjini etmish rashki firdavsi barin.

Xos-u om o'lmish navoli ne'matingdan bahramand,
Ofarin, ey shahriyori mulkparvar, ofarin!

Manki bir kamtar duogo'yam, nazar solding manga,
Qo'ymading xoki mazallatda qolam zor-u hazin.

Zoye' ekan, qadrimi bildirding ahli olama,
Tiyra ekan, aylading xoki vujudim anbarin.

Abri lutfing qildi xori xushkimi gulbargi tar,
Fayzi juding qildi sangi xorami durri samin.

Ne'mating shukri manga farz etdi izhori sano,
Shafqating tavqi mani qildi g'ulomi kamtarin.

G'am dagil ahli g'araz aylarsa mandan man'i xayr,
G'am dagil ahli hasad bog'larsa man miskina kin.

Ro'zgor ila manim maqsudimi hosil qilib,
Ulki man' aylab o'lur badxohi Rabb ul-olamin.

Hech shak yo'qkim, yetar maqsuda, o'lmaz noumid,
Xirmani altofing atrofida o'la xo'shachin.

Bor umidim mahr-u mah etdikcha davron o'lasan,
Komyobu komron-u kombaxsh-u kombin.

38

San na ofatsan manga, ey aqli badfarjomkim,
Bo'lmoq o'lmas surati qurbinda osori nishot.

Tifllar, devonalar sandan mubarro o'lmog'in
Dunyo-vu uqboda bo'lmishlar kamoli inbisot.

Izzat-u zillatda bilmazlar tariqi imtiyoz,
Hillat-u hirmanda chekmazlar azobi ehtiyot.

Ulki doim hamnishindur muazzabdur mudom,
Netakim taklifa hukmi shar' ila sansan manot.

Ul zamondankim, sanga verdim inon-u ixtiyor,
Ul zamondan k-ayladim mahkam saning-la irtibot.

O'lmayub xoli g'am-u anduhdan qabrim evi,
Xor bistardur manga payvasta, xokistar bisot.

O'lmoyaydim koshki, hargiz saning-la hamnishin,
Qilmoyaydim koshki, mutlaq saning-la ixtilot.

39

Ey vaziri mulkparvarkim, nizomi mulk uchun
Intixob etmish jamii xalqdan sulton sani.

Hallu aqdin olaming qilmish mufavvaz ra'yinga,
Noyibi hukmi xilofat aylayub davron sani.

Qil hazarkim, o'lmaya nogah mizojing munqalib,
Qilmaya sarmast, jomi shavkati devon sani.

O'lasan insof uchun mansub ekan ahli fasod,
Eda din ahlina ofot qillati iymon sani.

Etmaya ma'murayi islomi vayron, kanduya
A'zami a'von-u ansor aylaya shayton sani.

Etmish ekan afzali xalqi jahon iqbol ila,
Arzali ahli jahannam aylaya Subhon sani.

40

Ey go'zal, zoting maorif birla rangin eda ko'r,
Xatti mushkin pardayi ruxsor gulgun o'lmadan.

Suhbati arbobi ilm-u ma'rifatdan kasb qil,
Husni sirat surati holi digargun o'lmadan.

Jahd qilkim, ko'rmaya xurshid ruxsoring zavol,
Nur fayzindan hiloli qadring afzun o'lmadan.

41

Alingdan ohlar, ey axtari baxti siyohimkim,
Mani xalq ichra oliyqadr ekan, g'oyatda xor etding.

Qilib xurshidi xirmon matla'yi ummid gardundin,
Bujudimdan misoli soya salbi e'tibor etding.

Savodi diydami mutlaq bayozi ayna do'ndirding,
Bayozi husni holim xoli ro'yi ro'zgor etding.

42

Sa'd-u nahs ahvolini qilsang munajjimdan savol,
Muqtadoyi ma'rifat Birjisu Kayvondur anga.

Aylasang rammoldan taftishi holi nek-u bad,
Murshidi rohi yaqin iblis-u shaytondur anga.

Nuqtayi ashkolu ramli sayri ajromi nujum
Kima rahbar o'lsa, fayzi aql bo'htondur anga.

Bilmish ulkim, har na sodir o'lsa zishtu xo'bu bad,
Mazhari bir ilmdurkim, aql hayrondur anga.

RUBOIYLAR

1

Ey fayzi vujud, shohidi jud sanga,
V-ey shohidi jud, har na mavjud sanga.
Ummidi qabulu e'timodi karaming,
Mardudini etmish yana mardud sanga.

2

Ey zotinga mumkinot burhoni vujub,
Sobit sanga imtinoi imkoni uyub.
Shoyistayi ne'mati hayoti abadiy,
Arvohi maorifing-la abdanu qulub.

3

Ey uqdakushoyi ajam-u turk-u arab.
Rassomi rusumi fazl-u osori adab.
Mazmuni hadising sabaqi har millat,
Da'voyi qabuling sanadi har mazhab.

4

Xush ulki, dami ajal chekub bodayi nob,
Sarmast yotam qabrda to ro'zi hisob.
G'avg'oyi qiyomatdaduram mast-u xarob,
Na fikri hisob o'la, na idroki azob.

5

Soqiy, karam et, sharobi gulfom yurut!
Gulfom sharoba verma orom, yurut!

Bazm ichra hubobi ashki gulgunimdan,
Ming jom yuritma, jon uchun jom yurut.

6

Jonimda o'lan zaxirayi nutqi hayot,
Jismimda o'lan javhari husni harakot;
Sarf o'lmadi xo'blar rahi ishqinda,
Afsuski, behuda kechirdim avqot.

7

Ta'miri baqovu jam'i mol etding, tut![1]
Har orzu etdingsa, anga yetding, tut!
Chun umr baqosina tutulmaz ummid,
Har hol ila keldiging kibi ketding, tut!

8

Derlarki, edar g'uncha labi yor ila bahs,
Gulbargi tar ul la'li guharbor ila bahs.
Ul bir necha dilsizlara tuhmatdur bu,
Da'voya kerak lahjayi guftor ila bahs.

9

Ey mehri ruxing qadimu olam hodis,
Izhori vujuda kashfi rozing bois.
Kechdi sari ko'yingda ikki olamdan
La bayna maqomin maqomun solis[2].

10

Xayli g'aming etdi naqdi sabrim toroj,
Sabr ila muyassar o'lmadi darda iloj.
Ruxsorima to'kdi mardumi chashmim qon,
Hinduyi ko'ring la'l verur Ruma xiroj.

---

[1] **Tut** — bu erda: bilmoq hisoblamoq.

[2] *Ma'nosi:* "Ikki maqom orasida uchinchi maqom yo'qdir".

11

Ey foidayi ilmingga olam muhtoj,
Xoki qadaming ahli hunar boshina toj.
Har kimdaki, ko'rdi himmating so'yi mizoj,
Ul so'yi mizoja qildi lutf ila iloj.

12

Ey sharbati vasling alami hajra iloj,
Bozori g'amingda ashk naqdina rivoj.
Gar tutsa xadanging ragi jonim, na ajab,
Nabz ila qilur tabib tashxisi mizoj.

13

Ey zikri labing nosihi anfosi Masih!
Nutqing "ana afsah"[1] kalimotinda fasih.
Izhori qabuling asari lutfi xafi,
Ixfoyi rahi shariating zulmi sarih.

14

Tutdiqcha ala sog'ari sahboyi sabuh,
Ortar asari zavqi dil-u rohati ruh.
Tug'yoni g'ama mufiddur zavraqi may,
To'fon xatarinda o'ylakim, kishtiyi Nuh.

15

Gul davri xush ulkim, tuta gulfom qadah,
Bazminda dami tutmaya orom qadah,
Har subhki, xurshid sifat qoldira bosh,
Bazmin bezayub, kezdira to shom qadah.

[1] *Ma'nosi:* "Men chiroyli so'zlikman".

16

May shavqi o'lubdur manga odat, ey shayx!
Keldikcha bu shavq o'lur ziyodat, ey shayx!
Xushdur manga may,
sanga ibodat, ey shayx!
Ra'y ila dagil ishq-u irodat, ey shayx!

17

Gar ko'yinga ashkim guzar aylar gustox,
V-ar qaddinga chashmim nazar aylar gustox,
Ayb aylama, rangi chehrayi zardimi ko'r —
Kim, cho'qlari olamda zar aylar gustox.

18

Bir ob-u havodur ashki garm-u dami sard —
Kim, andan olur nash'-u namo gulbuni dard.
Gulzori g'aming binafshavu yosumani,
Dudi dili oshuftadiru chehrayi zard.

19

To davrdadur doirayi kavn-u fasod,
Mumkin dagil o'lmoq harakotindan shod,
Tosi falak ichra ka'batayni anjum,
Go'starmaz emish hech kima naqshi murod.

20

To mahmilu mehrdur bu zangori mahd,
Mehring-la vafo ahlinadur mahkam ahd.
Birdur biza bazmgohi ishqingda falak,
Gar qahr ila zahr versa v-ar lutf ila shahd.

21

Har yerdaki, ul siymbar-u siyminxad,
Arz aylaya oraz, ocha sunbul, cheka qad;
Rangi gul-u bo'yi sunbulu jilvai sarf,
Hukm aylamazamkim,
o'la maqbuli xirad.

22

To bo'ynima soldi ul xami zulf kamand,
Tadbir ila ochilmadi bo'ynimdan band.
Cho'x pand verildi, o'lmadi foidamand,
Yetmazmi manga pand veran halqa bu pand.

23

Daf'i g'ami ro'zgoradir boda mufid,
Raf'i alami ishqa ruxi soda mufid.
Tarki may-u ma'shuqadur ul illatkim,
O'lmaz anga hech nash'a dunyoda mufid.

24

Ey shahdi labing so'zi shakarvor laziz!
La'ling kibi qanda bir shakar vor laziz.
Tungi shakar o'lmasaydi durji dahaning
O'lmazdi chiqan lahjayi guftor laziz.

25

Gar mehnati kasrdur va gar ne'mati sabr,
Sabr ila qanoatda kerak muslimu gabr.
Har ne'mati mehnatki verarsan, yo Rab,
Ver ne'mata bir qanoat-u mehnata sabr.

26

Har dam manga yor arzi ruxsor aylar,
Husnina mani batar giriftor aylar,
Go'yoki kamoli ishq darsin o'qidur,
Hardam manga ta'limini takror aylar.

27

Hajring jigarini har kiming qon aylar,
Tadrij ila vasling anga darmon aylar.
Zulfing kimikim, muddat ila kofir edar,
La'ling ani bir damda musulmon aylar.

28

Har dilki, asiri g'ami hijron o'lmaz,
Shoyistayi zavqi vasli jonon o'lmaz.
Har dardki vor, vor darmoni, vale
Bedardlaring dardina darmon o'lmaz.

29

Biz olami ishq olamorolariyiz,
Mayxonayi dard durdpaymolariyiz.
Gulbargi nadomat chamanidur olam,
Biz bu chamaning bulbuli shaydolariyiz.

30

Kimdurki, g'amingda nolayi zor etmaz,
Dardin sanga nola ila izhor etmaz.
Faryodina hech kimsaning etmazsan
Faryodki,
faryod sanga kor etmaz.

31

Jonon esa matlub, tama' jondan kes!
Matlub esa jon, umid jonondan kes!
Jon sevmak ila muyassar o'lmaz jonon,
Yo bundan umid, yo tama' ondan kes!

32

So'zi dilim ashki oldan ayla qiyos,
Anduhimi za'fi holdan ayla qiyos.
Xurshidki, husning-la qilur bahsi kamol,
Tarki adabin zavoldan ayla qiyos.

33

Advori zamon doirayi hayrat emish,
Asbobi jahon maholiku mehnat emish,
Dunyoya havas etmamak etmakdan yik,
Chun avvali hirsu oxiri hasrat emish.

34

Ko'yingda saning na toshakim, urdim bosh,
Qildim ani g'arqi xun to'kub ko'zdan yosh.
Ko'z yoshina rahm aylaki, cho'x muddatdur,
Bedodinga sabr edub,
bosar bag'rina tosh.

35

Ey kasbi kamola e'tiqoding noqis,
Tahsili kamola ijtihoding noqis.
Or etma talabda, qil hazar andankim,
Komillar ichinda o'la oding noqis.

36

Xush ulki, qilib rahbari sidqin ixlos,
Xilvatgahi qurba o'la ixsol ila xos.
Sarrofi vafo bo'tayi ta'diba solib,
Har g'ashdan eda missi vujudini xalos.

37

Ey bod, qil ahvolimi jononima arz!
Sargashtaligim sarvi xiromonima arz!
O'ldirdi kinoyat ila ag'yor mani,
Bu zulmi sarihi ayla sultonima arz!

38

Ey javhari ishqing asari jism-u araz,
Yo'q oshiqa sandan o'zga olamda g'araz.
Chun bilding asiringam, tarahhum qilkim,
Tadbir kerak,
mushaxxas o'ldiqda maraz.

39

Zohid, mayi nobdandur ikroh g'alat,
San xoh so'zim sahih tut, xoh g'alat.
Masjidlara kirdigim dagil rag'batdan,
Sarmastligimdan aylaram roh g'alat.

40

Dog' urma dili hazina, ey mushkin xat,
Gar moyili husn-u xatsan, qilma g'alat —
Kim, aylamish kotibi devoni qazo
Dil harflarin qobili tazyini nuqat.

41

May man'ini aylayub shior, ey voiz!
Tutding rahi ta'ni ishqi yor, ey voiz!
Tarki may-u mahbub edariz jannat echun,
Sharh aylaki,
jannatda na vor, ey voiz!

42

Tahdid ila kechdi ro'zgor, ey voiz,
Favt o'ldi sharobu vasli yor, ey voiz.
Gar kavsar-u hur esa g'araz, verma azob,
Na tark buyur, na intizor, ey voiz!

43

Ey vasfi jamolinga tahayyur mone',
Vermish sanga isboti kamoling sone'.
Vaslingda jafoyi ta'nayi ag'yoring
Hajringda mani xayola etmish qone'.

44

Parvonaya zulmi behisob aylar sham',
Zulm o'dina bag'rini kabob aylar sham',
Go'yoki bilur zulm saranjomi nadur,
Behuda dagilki, iztirob aylar sham'.

45

Har shom yetar visoli jonona charog',
To subh qolur hamdam-u hamxona charog',
Rashk o'dina yondirdi mani har soat,
Vahm aylamaz ohim o'dina yona charog'.

46

Har gahki, bahor qildi oroyishi bog‘,
Navmidlik urdi lolavash bag‘rima dog‘,
Zero tikan uzra tutdi bulbul maskan,
Gul bod guzargahinda yondirdi charog‘.

47

Yo‘q dahrda bir muvofiqi tab’ harif —
Kim, suhbati dilkusho o‘la, tab’i zarif.
Faryodki, nojins musohiblar ila
Befoyda zoe’ o‘ldi avqoti sharif.

48

Man zuhd-u vara’dan urmazam lofi xilof,
Doim ruxi soda istaram, bodayi sof.
Tarki may-u mahbub eda bilman mutlaq,
Gar etmak o‘lur deram, zihi behuda lof.

49

Ey novaki bedodinga har siyna hadaf!
V-ey javhari paykoninga har diyda sadaf!
Faryod-u fig‘onim g‘ami hijroningdan
Bazmi g‘amdur nolayi nay,
navhayi daf!

50

Ey soliki rohi Haq, sanga qat’i tariq,
Dushvordur o‘lmazsa rafiqing tavfiq.
Tut domani murshid tavakkulki, sanga
Maqsud muyassar o‘la, tavfiq rafiq.

51

Sarmanzili har muroda rahbardur ishq,
Kayfiyati har kamola mazhardur ishq,
Ganjinayi koinota gavhardur ishq,
Har sodir o'lan nash'aya masdardur ishq.

52

Ushshoqa dagil qaydi aloyiq loyiq,
Hargiz g'ami ro'zgor chekmaz oshiq.
Qaydi g'ami ro'zgor bir illatdur,
Ul illata ishqdur tabibi hoziq.

53

Majnun o'da yondi shu'layi oh ila pok,
Vomiq suya botdi — ishqdan o'ldi halok.
Farhod havas ila ela verdi umrin,
Xok o'ldilar onlar,
manam emdi ul xok.

54

To halqayi zulfi yora dushding, ey dil,
Domi g'ami ro'zgora dushding, ey dil.
Afsuski, qutb ahli jam'iyat ekan,
Ul doiradan kanora dushding, ey dil.

55

Xurshidki, qildi subhdan arzi jamol,
Dargohinga yuz surmak ila bo'ldi kamol.
Chun yetdi kamola, etdi san moh ila bahs,
Ul tarki adab verdi kamolina zavol.

56

Mah durdi muqobil sanga bo‘ldiqda kamol,
Ko‘rdiki,
o‘zinda sancha yo‘q husn-u jamol.
Bir g‘oyata yetdi injilub g‘amdankim,
Za’fi badan ila badr ekan, o‘ldi hilol.

57

Ey uqdakushoyi rishtayi tadbirim!
Har toata afving sababi taqsirim.
Taqsirima etma o‘zga taqdiri jazo,
Sharmandaligim yetar manim ta’zirim.

58

Hamdam, ko‘r oqan sirishki olimi manim.
Tutmish ruxi kahrabo misolimi manim.
Billoh, yeri ul gulruxa arz aylaya ko‘r
Bir rang ila bu surati holimi manim.

59

Afg‘ondur ishim sarvi xiromoning uchun,
Qondur jigarim g‘unchayi xandoning uchun.
Ishqingda g‘am-u g‘ussa chekub, pir o‘ldim,
Man pira tarahhum et yigit joning uchun.

60

Ey g‘oyib o‘lan diydayi xunborimdan!
V-ey rohat olan siynayi afgorimdan!
Man vorimi-yo‘q saning-chun etdim, na ravo,
San tutmayasan xabar yo‘qu vorimdan.

61

Xunoba to‘kub diydayi giryonimdan,
Sansiz bo‘yadim yer yuzin o‘z qonimdan.
O‘z qonimi aylaram o‘zim-la da’vo
Ketmazsa alim no‘la giribonimdan.

62

Qaddina dedimki, sarvi bo‘stondur bu!
Tund o‘ldiki: ey xasta, na had yondur bu?
Pobastav-u o‘r-u bezabondur dediging,
Xandon-u qabopo‘shu xiromondur bu!

63

Dedim labina: —
La’li Badaxshondur bu!
Kuldi, dedi: — Ey faqir, bo‘htondur bu!
Bir tosha na rang ila qilursan nisbat,
Shirinu shakarfishonu xandondur bu!

64

Yondirdi mani shavqi jamoling, ey moh!
Har lahza ajab dagil yetirsam ko‘ka oh!
Zulfing girehi chiqdi alimdan nogoh,
Ko‘rkim, na jafo etdi manga baxti siyoh.

65

Ruxsora sari zulfi parishon ayla!
Ko‘zdan guli ruxsoringi pinhon ayla!
Bir necha parishonlari o‘z holina qo‘y,
Har lahza yetar qasdi dil-u jon ayla!

66

Mujgonimi, ey sham', guharbor etma!
Pinhon g'amimi olama izhor etma!
Ishq ahlina zulmdur vafo aylamamak,
Zinhor,
bu zulmi etma, zinhor etma!

67

Ruxsoringa ayb etma nigoh etdigimi,
Ko'z yoshi to'kub, nola-vu oh etdigimi.
Ey podshahi husn, tarahhum chog'idur,
Afv aylaki, bilmisham gunoh etdigimi.

68

Faryodki, ishq beqaror etdi mani,
Dard-u g'am ila zor-u nizor etdi mani,
Xoki sari ko'yinda g'ubor etdi mani,
Sargashta-vu xor-u xoksor etdi mani.

69

Ko'rdim sani — aldan ixtiyorim ketdi,
Boqdim yuzinga — sabr-u qarorim ketdi.
Xok o'ldimu har yonga g'uborim ketdi,
Alqissa, qapungda e'tiborim ketdi.

70

Rangim guli za'farona do'ndi sansiz,
Qaddim ham o'lub, kamona do'ndi sansiz,
Qurboning o'lam, agar sitamdur basdur,
Paymonam alimda qona do'ndi sansiz.

"FORSIY DEVON"DAN

G'AZALLAR

Mohitobonim, qading sarvi xiromonim mening,
Sarvqaddim, oy yuzing sham'i shabistonim mening.

Aylagay holim yomon hajring-u vasling esa xush,
Menga hajring dard-u vasling esa darmonim mening.

Dil asir qaddingga, jon la'ling mayining mastidir,
Qomating dil orzusi, la'li labing jonim mening.

Dilbarimning qomati bo'lsin yomon ko'zdan uzoq,
Bu go'zallik bog'i sarvi qaddi jononim mening.

Dedim: "Ey husn ahli shohi, dil balo domidadir",
"Bu balo domi, — dedi, — asli zanaxdonim mening".

Zor dilimning rozi fosh bo'ldi jahonga, boisi
Shashqator yoshim bilan choki giribonim mening.

Oldi oromin Fuzuliyning o'shal sarvi ravon,
Garchi oromi dili zor-u parishonim mening.

* * *

Navro'z tuni vaslingda muyassar edi-ey,
Vaslingda tunim kunga barobar edi-ey.

Har tun kulasan tonggacha sham birla, kuyish
Parvona bilan menga muqarrar edi-ey.

Rashk o'ti yoqar udni quvonchimni ko'rib,
Dimog' xush ising ila muattar edi-ey.

Zulfing tugunini yechishimning boisi,
Xushbo‘yu havo, yer-chi, muanbar edi-ey.

Kulbamni yoritgan o‘sha shamning yorug‘i
Chehrang nuridan asli munavvar edi-ey.

Vasling qalami bilan quvonchim uyiga
Orzu-tilagim naqshi musavvar edi-ey.

Bazm aylar edim kecha chamanda Fuzuliy,
Hamrohim o‘shal sarvi sumanbar edi-ey.

* * *

Agar yor istasang, ey dil, bu jondan kech,
Bu barcha borligi birlan jahondan kech.

Farog‘at istasang olamda bir lahza,
Jahondan ham, yana ahli jahondan kech.

Bu qaddi xam falakka berma dil aslo,
Bo‘lib sen o‘q misoli bu kamondan kech.

Talab et yorni, bo‘lsa ne bu yo‘lda g‘ov,
Baridan yuz o‘gir, nom-u nishondan kech.

Kerak bunda tiling ham bir, diling ham bir,
Seni sharmanda qilguvchi zabondan kech.

Fuzuliydan eshit sen bu nasihatni:
Haqiqat yo‘lini ushla, gumondan kech.

* * *

Dil asiri la’li ul gulbargi xandondir yana,
Dil sabab bulbul kabi ish oh-u afg‘ondir yana.

Gul libosin chok etib, bulbul chekar faryod-u zor,
G‘unchadek yorim chaman ichra xiromondir yana.

Bog‘ladi dard ahlining zulfiga jonon yuz tugun,
Yuz tugundan yuz tugun jonda namoyondir yana.

Aylamish xoli hijobdan seni holim hayrati,
Beqiyos husningga olam ko‘zi hayrondir yana.

Bo‘ldi ko‘zimdan nihon shirin labingning huqqasi,
Bunga bois shubhasiz nayrangi davrondir yana.

Ey Fuzuliy, o‘tmasin umri aziz aylab xato,
Afv umidi sen uchun garchi bir imkondir yana.

* * *

Yuz o‘girgay mendan u gar mohitobon desamam,
Tark yetar meni agar sarvi xiromon desamam.

Sen mening jonim desam ham, ichgay u dil qonini,
Bo‘lgay u ko‘zdan nihon, garchi uni jon desamam.

Bu qadar husnin ko‘rib, rashk aylagay hatto malak,
Men ishonmayman o‘zim, harchandki inson desamam.

Qoshida holimni arz etgan u damlar xush, agar
Men parishonlik bilan dardim parishon desamam.

Kufr atar butlarga sajda aylamoqni bu faqih,
Bu musulmonlik emas, garchi musulmon desamam.

Xoli tun yo‘q yer yuzida yuzi nuridan sira,
Kam yuzini shu sabab sham’i shabiston desamam.

Ey Fuzuliy, menga zulmi tig‘i ehsondir, biroq,
Qo‘rqaman ushbu balodan garchi ehson desamam.

* * *

Ul go‘zal yuzdan judo aylar mudom davron meni,
O‘chirar uchqun kabi albatta bu hijron meni.

Qonli yosh to‘xtatsa koshki borlig‘im gardini sal,
Ohlarim to‘foni qilgay muncha sargardon meni.

Bo‘lmasa jonimda la’ling shavqining gar javhari,
Sir tutish eldan uni qiynarmidi chandon meni.

Bir pariruxsora ishqidan dilimda to‘la g‘am,
Qilg‘usi bir kuni rasvo bu g‘ami pinhon meni.

Xohlagancha qiynadi-yu, o‘zidan qildi uzoq
O‘q kabi qoshi kamonidan o‘shal jonon meni.

Ne ajab, qilsa raqib g‘iybat go‘zallar oldida,
Bas, vafo yo‘lida husn ahli bilar chandon meni.

* * *

Qomatingga tushdi-yu ko‘zim, balo ko‘rdim seni,
Aqlim olding, bilmadim,
qayda, ayo, ko‘rdim seni?

Yoshligimda ham jafo sendan ko‘rardim oz-moz,
Oh, yigitlikda biroq koni jafo ko‘rdim seni.

Bevafolikni senga, yor, hech kim o‘rgatgan emas,
Chunki men asli azaldan bevafo ko‘rdim seni.

O‘tmasaydim koshki sening eshigingdan men sira,
Kecha begona bilan chin oshno ko‘rdim seni.

Zulfi domiga bo‘libsan tutqun, ey zolim ko‘ngil,
Ming shukurkim, bir baloga mubtalo ko‘rdim seni.

Ey raqib, seni ko'rishdan bo'lmaganman shod sira,
Shodman endi — bir nafas yordan judo ko'rdim seni.

Bo'lmasang oshiq, nega ko'zida yoshi shashqator,
Yor ko'yida, ey Fuzuliy, doimo ko'rdim seni.

* * *

Rasmi zuhd-u odati taqvoni bilmasmiz biz,
Sevgidan o'zga biror savdoni bilmasmiz biz.

Bu jahonda bizda yo'qdir hech bir ishga ehtiyoj,
Bas, tiriklik ko'yida g'avg'oni bilmasmiz biz.

Biz demasmiz bu jahonda yo'q sevishdan boshqa ish,
Balki bor, ammo bu muammoni bilmasmiz biz.

E'tibor rasmiyu taqlid odati yo'q bizda hech,
Ahli dunyoning bu ishlar joni, bilmasmiz biz.

Haq sirining mazhari, oyinayi jahonnamo,
Yor-u maydan boshqa bir dunyoni bilmasmiz biz.

Dedim: "Ey hur, o'ldi ko'yingda Fuzuliy". Dedi u:
"Kim o'zi u? Bu kabi shaydoni bilmasmiz biz".

* * *

So'rmaydi mening holim bu elda biror kishi,
Men kishi emasmanki, qilsa e'tibor kishi.

Sabr etgani tufayli Yusufga yetar Ya'qub,
O'z taqdiridan nega aylar gina, zor kishi?

Umring bilan agar teng bo'lsa-da firoq asli,
Nima uchun visoldan bo'lmas umidvor kishi.

Sabri bulutidan suv mushtoqlik gulzoriga
Yog‘dirsa, murod gulin tergay xaridor kishi.

Mehr-u muhabbat nurin ohanrabosi bordir,
Go‘zallar sari borar, bas, beixtiyor kishi.

Shafqat sira qilmaysan, g‘aflatdasan, oh, muncha,
Bersa-da sen uchun jon necha-necha bor kishi.

Fuzuliy, birovdan zavq ohangin eshitmadim,
Olamda may ichishga yo‘qmi talabgor kishi.

* * *

Kirdi gul boqqa, biroq o‘z umridan kom topmadi,
O‘z tikonidan o‘zi bir lahza orom topmadi.

Qildi gul qoshida bulbul dardini izhor, biroq,
O‘tdi gul davriyu hech dil dardi anjom topmadi.

Voh, bu ne mulk, o‘tsa ham gul davri, undan hech kishi
Ko‘rmadi bazm avjiniyu nash’ayi jom topmadi.

Tiksa-da davron latofatning libosini, ne naf,
Bu libosni kiygali loyiq gulandom topmadi.

Kelsa-da gul boqqa kech, erta uni tark ayladi,
Men kabi balki u ham e’zoz-u ikrom topmadi.

Ey Fuzuliy, qolmadi so‘z ahli qadr-u qimmati,
Shu sababdan hech kishi bu o‘lkada nom topmadi.

* * *

Demang, yolg‘iz mening qaddim muhabbat yukidan xamdir,
Falakning qaddini xam aylagan ham asli shu g‘amdir.

Xabar topmas dilimiz zavqidan aslo bu g‘ofillar,
G‘am-u g‘ussa nihoniy zavq uyining soqchisi hamdir.

Yetay desang yaqinlikka balo yo‘liga oyoq qo‘y,
Safar ranji, ziyorat aylasang Ka’bani, bayramdir.

O‘tar umring, sira zavq-u sururdan qolma bebahra,
G‘animat tut, balo idrokining lazzati bir damdir.

Junun sahrosini sayr et agar g‘am to‘ydirar jondan,
Biyobonlarda g‘am ayyomi ko‘p bo‘lmas sira, kamdir.

Mehr g‘unchasi ko‘z ochgay jafo tikonidan dilda,
Muhabbat gulshani jabr-u sitam guli-la ko‘rkamdir.

To‘la dard-u alamdan bu vujud doirasi mulki,
Fuzuliy, rohat-u orom topish dunyoda mubhamdir.

* * *

Jahannamdan berar rind ahliga doim xabar voiz,
Nahotki, ko‘rmagan bo‘lsa bo‘lak joyni magar voiz?

Bu g‘amdan yoqasini chok yetar mehrob masjidda,
To‘kar deb minbar obro‘sini har dam hiylagar voiz.

Berar Qur’onga ham tag‘yir muxolif tafsiri birlan,
Sanar o‘zini dono, ko‘rsatib shu xil hunar voiz.

Urar Qur’on o‘qish qoidasidan dam o‘shal har dam,
Ko‘ngillar uyini vayron qilib doim yashar voiz.

Sanamning ko‘yidan aldab meni chorlaydi jannatga,
Iloho, bo‘lsin har ikki jahonda darbadar voiz.

Maqomini berib boy, mavqeidan ajramas erdi,
Agar may man’ida so‘z demasaydi mo‘’tabar voiz.

Fuzuliy istamas voiz so‘zin, dard ahlini chunki
Sanamlar sevgisidan bu jahonda man’ yetar voiz.

* * *

Dil orzusi ushalmay yor ko‘yidan g‘am bilan ketdim,
Alam dog‘ida loladek qilib tarki chaman ketdim.

Yashab o‘tdik misoli gul bilan tikan kabi birga,
Falak gardishi ters aylandi-yu, u qoldi, man ketdim.

Nigori nozaninim bor edi, aylab falak fitna,
Shirindek qoldi-yu u, men misoli Ko‘hkan ketdim.

Misoli anjumanda sham kuyarman tun bo‘yi doim,
Yuzi oftobi nur sochganda tashlab anjuman ketdim.

O‘tib ketgach o‘qi yonimdan o‘ldirmay meni, nochor
Sanamning ko‘yidan ranjida dil, ozurda tan ketdim.

Agar shavqi mayidan mast edim, bilmaysan, ey g‘ofil,
Bu shodlik bazmini tashlab men o‘z erkim bilan ketdim.

Fuzuliy, izlama dardimga darmon ko‘yidan, chunki
O‘lay debmas, topay deb xush hayot izlab vatan ketdim.

* * *

Ko‘zimning yoshi yor hajrida, ey sham, shashqator bu tun,
Kelib yonimda o‘ltir, aylashaylik oh-u zor bu tun.

Tilarman bosh-oyoq kuysam yuzining sham’i yodida,
Ey ashk, o‘chirgali o‘timni sen qilma shior bu tun.

Mening qatlimga erta aylading ahd, ammo qo‘rqarman,
O‘larman ottirolmay tong, bo‘lib men intizor bu tun.

Xudo haqqi, xaloyiqdan nihon ko'yiga borgim bor,
Meni fosh etmagil, ey nolayi beixtiyor bu tun.

Ko'zimning yoshlaridan men javohir xirmonin uydim,
Bilolmayman, agar yor kelsa ne aylay nisor bu tun?

O'g'irlab ketdilar uyqu matosin ko'zlarimdan, oh,
Balolar keldimi qilmoqqa meni tor-u mor bu tun.

Qaror topgan edi sening ko'yingda Fuzuliy tunlar,
Ko'yingdan quvding,
endi qayda olgay u qaror bu tun?

* * *

Menda dushman dilni o'rtab dardi jonona kuyar,
Menda oshno jabridan bu dili begona kuyar.

Tilga keltirsa agar parvona dildan o'tini,
O'rtagay parvona o'ti shamni — biryona kuyar.

O'taro, ey sham, agar fonus kuyar bo'lsa chunon,
Mendagi dil o'tining uchqunidan xona kuyar.

O'tli ohidan dilimning bo'lmas, ey jon, bexabar,
Ehtiyot ayla o'zing bu tun bu vayrona kuyar.

Ko'zlarimning yoshini ko'nglim o'ti mahv aylagay,
Oh bu umrim xirmonidan donayu dona kuyar.

Davrada afsonayi shavqing eshitgan kechalar,
Sham kabi har kecha menda shavqi afsona kuyar.

Ey Fuzuliy, tunlar devona dil topmay habib,
O'rtanib o'z o'tiga bu dili devona kuyar.

* * *

Tilarman men sari o‘shal pari eldan nihon kelgay,
Nazar nuri mabodo tushsa unga gar, ayon kelgay.

Yetar, kuydirma ko‘ksim ustuxonin, dil o‘ti, bir-bir,
Mabodo ustuxonga o‘q otib, qoshi kamon kelgay.

Yetar osmonga yuz dil ohi har dam, har biri undan
Baloga aylanib, o‘rtash uchun jonni ravon kelgay.

Agar hayrat meni tark etmasa, mahrum bo‘larman, bas,
Ko‘ngil yo tilga vasli o‘zidan berib nishon kelgay?

Raqib ta’qibidan xoli emasman dil o‘ti bois,
Biri yuz ming o‘qidan zora ko‘ksim tomon kelgay.

O‘limni bo‘yniga oldi-yu ko‘nglim, keldi ko‘yingga,
G‘amingdan kechdi jonidan, agarchi unga jon kelgay.

Visoli mujdasiga, ey Fuzuliy, jonni etding baxsh,
Netarsan nogahon endi agar sarvi ravon kelgay?

* * *

Gar falak g‘am tig‘idan ko‘ksim mening chok aylasa,
Dil o‘ti, tong yo‘q, falakning bag‘rini dog‘ aylasa.

Ko‘zga sursa arzigay yo‘lning g‘uborini o‘pib,
Qayda yorning soyasin bag‘riga jo xok aylasa.

Dilni pok et turfa zanglardanki, bu ishq odati:
Tashrif etgay kim g‘uborlardan dilin pok aylasa.

Men labing shavqini jon-u dilga pinhon ayladim,
Ne bo‘lar bag‘riga pinhon o‘tni xoshok aylasa?

Men g‘amingda yig‘lasam, taskin nasihatgo‘y berar,
Bormi foyda yoshli ko‘z ustiga gar xok aylasa?

Asragay qanday Fuzuliy shishayi dilni omon,
Sho‘x sanam tinmay otib tosh, jabr-u qiynoq aylasa.

* * *

Tushsam edi izingga soya kabi, sumanbar,
Qayda sening oyog‘ing, shu yerda boshim — axtar.

Yo‘q sen kabi yor menga, mening kabi yor senga,
Men oshig‘i balokash, sen dilbari sitamgar.

Yuzing gulini ko‘rdim, jabringga ko‘ngil berdim,
Bildimki, visol menga tutqizmagusi hech bar.

Men yig‘loqi bulutman, sen esa yangi g‘uncha,
Menga yig‘i munosib, senga kulgu yarashar.

Qo‘lingda qilich bordir, jon suvi dudog‘ingda,
Qatl ayla yo vaslingga etkaz meni, dilobar.

Topilmas edi tanda dildan sira nishona,
Rizq unga ko‘ngil qoni bo‘lgan kuni muqarrar.

O‘tdi, Fuzuliy, umrim, behuda bu jahonda,
Na epladim bir ishni, kom bo‘ldi na muyassar.

* * *

Meni shuncha zaif qildiki hijroning, pariruxsor,
Chidolmayman boshimga tushsa hatto soyayi devor.

Xabar topsa agar pinhon sirimdan har kishi, mendek
Uning ham ko‘ksiga solgusi dog‘ bir lolaruxsor yor.

Menu vasling — bu davlatni qilolmayman tasavvur ham,
Yetar menga uzoqdan ham muyassar bo‘lsa ul diydor.

Fig‘on-u nola aylashda chiqardim shunchalik shuhrat,
Tutar nomimni dard ahli qayerda cheksa oh-u zor.

Quvonchim shundaki, jabr etmading mendan bo‘lakka hech,
Jahonda istamassan mendan o‘zga telbani zinhor.

Bafo yo‘lida bormi, ey Fuzuliy, menday olamda
Parishonxotir-u savdoiy-u rasvoyi bir bozor.

* * *

Ne gunoh qildim — uzoqlatdi o‘zidan meni yor,
Mo‘’tabar edim agarchi, endi yo‘qdir e’tibor.

Yor ko‘yidan ayrilib, hayronman o‘z holimga-ey,
Tushdimu eldan uzoq, g‘urbatda bo‘ldim xor-u zor.

Lutf etib yo‘l solmagay gulyuzlilar hech men sari,
Bilsalar-da bir faqir bechoradirman, xoksor.

O‘ldimu bilmayman, ammo, bu nima ahvol, magar
Olam ahlidan judo, bir chetda tutdimmi qaror?

Tushdi jonim rishtasi qayg‘u tugunidan uzoq,
Soldi savdosini to boshimga ul zulfi nigor.

Ming musibatga chidolmay chiqsa jonim, ne qilay?
Bu falakning domiga men notavon bo‘ldim shikor.

Bulbuli Arshman, Fuzuliy, manzilim gulzori quds,
Men bu kulfat uyiga tushganman-ey beixtiyor.

* * *

Men ketarman bu shahardan mehring olib, yori jon,
Ko‘tarar g‘am tog‘ini bo‘lsa-da tan misli somon.

Shu qadar aql-u hushimdan men judoman ishq aro,
Chunki ko‘yingdan safar devonalikdandir nishon.

Noladan, bormay qaerga men, malomatdir yo'lim,
Oshig'i shaydoligimga bu guvohdir begumon.

Keltiray qanday tilimga, ey sanam, nomingni men,
Fayz olarman har qarashda izlaringdan men chunon.

Gar visoling shavqini olsa dilimdan, ne ajab,
Rashk hissikim, raqiblardan etarman har zamon.

Ey Fuzuliy, manzilim mayxona bo'lsa, ne ajab,
Ne qilay, jon xavfidan mayxonani tutsam makon?

* * *

Oh-u zorimdan xabarsiz sarvinozim, ne qilay?
Bo'lmasa olamda bir mahrami rozim, ne qilay?

Men chekarman nolalar, yor zulfiga solgay tugun,
Qisqarib borsa uzun umrim asosi, ne qilay?

Telbalik bandidan ozod bo'ldimu zulfing ko'rib,
Qayta bo'ldim tutqun, endi yo'q xalosim, ne qilay?

Yig'lamay, kuymay, erimay bormi imkon to sahar,
Bo'lsa hijron tunida shamga qiyosim, ne qilay?

Men-ku bag'ritosh sanamlarga ko'ngil bermasman-ey,
Band yetar ko'nglimni ming ishva-yu nozi, ne qilay?

Kimga aytay men g'arib husn ahlining dard-u g'amin,
Bo'lmasa soyamdan o'zga hamrozim, ne qilay?

Man etarsan o'ynama ishq deb Fuzuliyni mudom,
Ishqdan ajratma meni — shu iltimosim, ne qilay?

* * *

Bu diyorda olmadi ko'nglim mening hech bir nigor,
Bu diyorga, bas, meni bog'lovchi rishta yo'q biror.

Ko‘rmadi ul oy eshigi itlari o‘rnida ham,
Ketganim soz — bu shaharda topmadim bir e’tibor.

G‘urbat ichra g‘am emish dushman hujumi xavfi ham,
Bu diyorda, shu quvonchim, yo‘q biror-bir do‘st-u yor.

Shavq ipi tortar meni asliy makonga har nafas,
Qayg‘u manzilida ammo menda yo‘q sabr-u qaror.

Men nadimi quds bog‘ining, bulbullar kabi
Meni jalb etmas o‘ziga hech bu bog‘-u bu bahor.

Ixtiyorimni olibdi qo‘llarimdan ul sanam,
Boshqa bir yor tanlamoqqa menda yo‘qdir ixtiyor.

Ey Fuzuliy, faqr fayzidan ziyod baxt yo‘q menga,
Yo‘q zamon ahli bilan do‘st-u yaqinlik zinhor.

* * *

Sabza xattingsiz menga har yerda manzil bor edi,
Sabzadek to tonggacha yoshdan vujud ho‘l bor edi.

Kecha hamrozim sham erdi, pokligi bois ko‘ngil,
Bo‘lsa ko‘nglimda nima, sham tilida ul bor edi.

Men kamolot bobida yuksaldim oydek sarbaland,
Nega yuksalmayki, oftobim muqobil bor edi.

Bu mening holimga yuz Farhod qilar erdi hasad,
To nazarda naqshi ul shirinshamoil bor edi.

Aql hukmi men kabi devonaga tashvish emas,
Telbalik zanjiri bo‘ynimda — hisor shul bor edi.

Ofarin, may kemasi, ketding olib qayg‘u-g‘amim,
Yo‘qsa qaydan ham menga ummidi sohil bor edi.

Ey Fuzuliy, dinu dildan benasib bo'lsam, ne tong,
Oldi-ketdi ishq qo'limdan qancha hosil bor edi...

* * *

Oh-u zorimga muruvvat yor qilmas, ne qilay?
Yor parvoyi sira men zor qilmas, ne qilay?

Qilmasam-da garchi oshkor, senga ma'lum g'amlarim,
Sen-la hech kim qudrati guftor qilmas, ne qilay?

Dil raqibning ta'nasidan kelsa-da jonga, bu yor
Bexabardir, bilsa ham iqror qilmas, ne qilay?

Ko'zlarim yosh o'rniga qonlar to'kar qayg'usida,
Qonli ko'z qayg'usin u zinhor qilmas, na qilay?

Ishq ishida sabr-u toqatdan o'tar bir chora yo'q,
Sabrini oshiq ko'ngil hamkor qilmas, ne qilay?

Hech nasib bo'lgaymi yor vasli raqib ozorisiz,
Gulni olam bog'ida bexor qilmas, ne qilay?

Ey Fuzuliy, yorga dil dardini etmay qancha sharh,
Yor sira yodi meni afgor qilmas, ne qilay?

* * *

Biror kun ko'rmasam qoshda habibni,
Ko'rib shavq ichra yongayman raqibni.

Tikandan so'z ocharlar gul qoshida,
Qilar hushdan judo rashk andalibni.

Bilarman, sevgi dardi bedavodir,
Nima naf qiynamoqlikdan tabibni?

Umid yo‘q vaslidan yorning agarchi,
Chidamdan ham, netay, topmam nasibni.

Dedim: “Dil kuch olar olma iyakdan”.
“Shu olma foydasi”, — dedi iyibmi?

Ilohiy fayz emish vaslida pinhon,
Visoldan mahrum etma benasibni!

Fuzuliy, ko‘yidan yo‘q o‘zga maqsad,
Vatan tuprog‘i shod etgay g‘aribni.

* * *

Tushimga kirdi-yu yor tunda, ko‘zdan oldi xobimni,
Sabab shu bo‘ldi bedorligiga ko‘zi selobimni.

Dengiz to‘lqinlanar battar agar kuchli shamol essa,
Nasihat ham kuchaytirgay ko‘ngilda iztirobimni.

Ko‘rib hurni, ravon bo‘ldi ko‘zimdan qonli yosh har yon,
Falak g‘am bazmida toshga urar jomi sharobimni.

Ko‘ngilni pora-pora qildi shavqi shamshiri butkul,
Kishi ochmay qayoqdan mazmunin bilgay kitobimni?

Go‘zallardan shikoyat aylamoqni istamayman hech,
Qaniydi so‘rmasa hech bir kishi holi xarobimni.

Zaiflikdan bo‘libman qilda-yu, za’fim yana oshgay,
Falak aylantirar har lahza battar pech-u tobimni.

Fuzuliy, yo‘q vafo imkoni olam ahlida hech ham,
Behuda bilmang olam ahlidan bu ijtinobimni.

* * *

Zulfingga solding tugun qilmoq uchun jafoni,
Ko‘tarding yer yuzidan sen odati vafoni.

Kipriging atrofida bo‘lgan edik barcha jam,
Ko‘z yumib ochdingu ajratding bari shaydoni.

Senda vafo rasmini ko‘rgan emas hech kishi,
Sen kimdan o‘rganding bu rasm-odati jafoni?

Chekdim himmat qo‘lini bu charx doirasidan,
Har kimning minnatini chekish menga ravomi?

Ko‘p bo‘ldi ko‘yingda men tuproqqa aylandim-ey,
Kel, oyog‘ingni o‘pay sen kabi dilraboni.

Har dam falakdan menga yetgusidir bir balo,
Qushlarga xam qomati dom bo‘ldi mubtaloni.

Ul hur dil-u diniga qasd etsa Fuzuliyning,
Qo‘y, aylama man unga ne qilsa bu rasvoni.

* * *

Gar men o‘lgandan keyin bo‘lsa ko‘ying maskan menga,
Tor lahad go‘yoki bo‘lgay bir go‘zal gulshan menga.

Olishib g‘am ichra o‘z-o‘zim bilan umrim o‘tar,
Bir dam o‘zni unutay, tut, soqiyo, maydan menga.

Ko‘yida rasvo bo‘lishim istagay yor, chora yo‘q,
Bo‘laman rasvo, ne bo‘pti ta’nayi dushman menga?

Ustuxonlar dil o‘tidan nega kul bo‘lmas kuyib,
Yoki fonusdek temirdanmi ular chindan menga?

Maqsadim ma’no, emas surat Yusuf yuzlidan-ey,
Diyda ko‘ylakdan emas Ya’qubdek ravshan menga.

Qilmayin parvo kularlar el xazon ozoridan,
O‘rtagay bog‘ gullari go‘yo bo‘lib gulxan menga.

Chiqdi jon tandan, Fuzuliy, bo'ldi yo'l tuprog'i tan,
Bo'ldi ishqi ofati jon-u baloyi tan menga.

* * *

Dunyoga kelib, hamdami g'am edik biz,
Bu g'amga mulozim hama dam edik biz.

G'am mendanu men g'amdan emasmiz judo,
Har qayda ekanmiz, baham edik biz.

La'ling g'amidan kelmay olamga umrlar,
Hamrozi olami adam edik biz.

Qoshing kamoniga asir bo'lib dil,
Nishona sitam o'qiga ham edik biz.

Kam bo'lmadi bir lahza baloying bizdan,
Bir lahza balo bo'lmasa, kam edik biz.

Har yerga yo'l izlab qadamni qo'ydik,
Go'yoki haqir xoki qadam edik biz.

Dil xohishicha hech yashamay, Fuzuliy,
Har lahza giriftori alam edik biz.

* * *

Sham kabi kuydirdi g'am otashi tanimni mening,
Pora-pora qildi g'am dili ravshanimni mening.

Kuydi menda, boq, raqibning ko'ngli ishqing g'amida,
Shod dilim, kuydirdi qayg'u dushmanimni mening.

Mohliqolardan o'zimni chetga tortish bo'ldi farz,
Chunki bichgan edilar o'lmay kafanimni mening.

Lolayuzlar dog‘ida o‘ldim, qani, yig‘lab bulut
Lolazor qilsa go‘r uzra o‘t-o‘lanimni mening.

Men sari tashrif buyurmas yakka-yolg‘izlik sira,
To makon aylabdi qayg‘u maskanimni mening.

Bu jahonda yo‘q mening har narsaga bog‘liqligim,
Tutmamish g‘am tikani aslo domanimni mening.

Qolmadi g‘amdan, Fuzuliy,
hech qayon qochmoqqa yo‘l,
Ayriliq to‘foni tutdi har tomonimni mening.

* * *

Qo‘y, yozma soching yelga berib mushk nishonni,
Tan g‘altagidan ochma sira rishtayi jonni.

Ko‘nglimda nihon siringu fosh aylamasin deb,
Qo‘rqarman-ey yoshli ko‘zim rozi nihonni.

Har kimsaga ko‘rsatma yuzing, boshlama fitna,
Izdan chiqara ko‘rma u tartibi jahonni.

Husn ahliga oshiqligimiz ayb-u gunohmi?
Shaydo bu ko‘ngil jonga solar ming g‘alayonni.

Qon bo‘lsa-yu ishqida, qani, chiqsa bu jonim,
Muncha chekaman dard-u g‘amin qoshi kamonni.

Ey baxt, sanam eshigiga eltib meni tashla,
To ketmay olib go‘rga g‘amin oromijonni.

Yoshingni ravon et xati yodida, Fuzuliy,
Yosh maysadan hech tutma darig‘ obi ravonni.

* * *

Mening holi zorimga ul oyning nigohi yo'q,
Kundan nima naf menga dilimning gar mohi yo'q.

Sendan jafo murodim, emas vafo sira ham,
Goh-gohi agar bor u, agar gohi-gohi yo'q.

Mayxonadan qanday men masjid sari borayin,
Ezgulikka sevgi ko'yining sira rohi yo'q.

Dunyo amalu davlatidan qo'lni yuvibman,
Bechoraligidan o'zga dilning panohi yo'q.

Shu ezgu raqam dunyo kitobi varag'ida,
Go'zalligiga bu suratning ishtibohi yo'q.

Ey husn gulistoni niholi, ne niholsan,
Sendan meva g'ayri fig'on-u nola, ohi yo'q.

Kimning qoshida zulmdan dod desin, Fuzuliy,
Bu elning o'zingdan o'zga bir podshohi yo'q.

* * *

BalOy-u kulfati ko'pligini ul yor bilgaydir
Biroq kam aylagay izhor u gar bisyor bilgaydir.

Dema: "Dil dardining dildorga ne bog'liqligi bordir?"
Bu bir sirdirki, dil bilgay, yana dildor bilgaydir.

Xudoga ming shukurkim, ishq aro undan vafo ko'rdim,
Men oshiq bo'lgan ul yor qadr-u e'tibor bilgaydir.

Ko'ngilda qancha ishqing —
shuncha lutf aylar emish ul sho'x,
Uning bu tab'iga qoyilman-ey, miqdor bilgaydir.

Raqib yor oldida yomonlasa bizni yemasmiz g‘am,
Raqibdan ko‘ra bizni yaxshiroq ul yor bilgaydir.

Sochi savdosini olamda mendan o‘zgadan so‘rmang,
Uzun tun dard-u ranjini faqat bemor bilgaydir.

Fuzuliy, dil sirini tilga keltirmoqqa yo‘q hojat,
Jarohatli dilim ahvolini dildor bilgaydir.

* * *

Ishq aro qismat bo‘lib g‘ayri g‘ami yor qolmadi,
Ey aql, tark et meni, ish senga zinhor qolmadi.

Ko‘zlarimning yoshida kipriklarim ketdi oqib,
Nozaninlarning xayoli yo‘lida xor qolmadi.

Qismat etdi beqarorlikni g‘ami ishq ahliga,
Zor dilimdan o‘zga oshig‘u giriftor qolmadi.

Shunchalik jismim zaif — yiqdi oyoqdan yosh seli,
Bu jahonda suyanishga bitta devor qolmadi.

Suhbatim dilgirligidan barcha ketdi tark etib,
Yor bo‘lib g‘am ichra g‘ayri nola-yu zor qolmadi.

Bu jahon bozorida kimga matoyim ko‘rsatay?
Gavhari asrori ma’noga xaridor qolmadi.

Ey Fuzuliy, bo‘ldi umrim qayg‘u davronida sarf,
Bu zamon dardini aytishmoqqa g‘amxor qolmadi.

QIT'ALAR

1

Dedim: "Ey charx, bilmas hech hadd-u adog'
Sen ko'nglimga solgan bu dog'lar, yohu!"
"Men sening ko'nglingga solgan bo'lsam dog',
Mening ko'nglimga kim dog' solgan?" – der u".

2

Ikki kishi bilan murosa qiyin,
Agar aqling bo'lsa, unutma zinhor:
Biri uki, seni xushlamas sira,
O'zingdan ham, so'zingdan ham u bezor.
Ikkinchisi shuki, sening ko'rging yo'q,
Ko'rishib turasan va lekin nochor.

3

Yomon yomon desa, ranjimoq nechun,
Yaxshi deb topganman chunki e'tibor.
Meni yaxshi deya bilganlar uchun
Yomonlar so'zining ne qimmati bor?!

4

Shafqat aylamasa agar menga shoh,
Bu ham bir lutfidir, nolimas ko'ngil.
Demak, u biladi, holimdan ogoh,
Faqr yuki tuyasi yukidan engil.

5

Ikki guruhdir ahli olam:
Biri — ilm ahli, biri — johil.

Johillar anglamaydi she'rni,
Ma'rifatdan bu qavm g'ofil.

She'r aytish olam ahlicha ayb,
Noshar'iyu behuda, botil.

Dunyodagi g'am dastidan dod,
Amrim og'ir, ishim-da mushkul.

Umrim bir ishga ayladim sarf:
Hech kim emas bu ishga moyil.

6

Jonbaxsh, latif, ohorli she'rlar
Bizning yurtda topmas e'tibor.
She'rim latif, ammo ne foyda,
Safsata der bu ahli diyor.

7

Bu diyor ahlida menga nisbatan
Zarra inoyatu xascha shafqat yo'q.
Yo ularda ma'rifat yo'q umuman,
Yoki menda sira qobiliyat yo'q.

8

So'zim tutdi olamni, g'anim
Yomonlikdan ayru ko'rmaydi.

Nazmimda ne fazilat bo'lsa,
Do'st ko'rar, ammo u ko'rmaydi.

G‘animning ko‘zi ko‘r, shubhasiz,
Uning ko‘zi yaxshi ko‘rmaydi.

9

Avvali umrimki, ayni vaqti zavq-u shavq edi,
Ilm-amaldan ayru, o‘tdi jahlu nodonlik bilan.

G‘am giriftor qildi yoshlik tark etib ketgach meni,
Foniy olam o‘yida umr o‘tdi hayronlik bilan.

Toat-u xayr-u savob o‘rniga umrim oxiri
O‘tdi afsusu nadomatda pushaymonlik bilan.

Oh, bu umrimda sira ham ko‘rmadim zavq-u safo,
O‘tdi irfon zavqidan mahrum parishonlik bilan.

10

Tong chog‘i chaman sayrini dil qildi havas,
Gul, sabza daf etsin to malolimni mening.

Sabza yuziga qo‘ysam oyoq, der noz ila:
Bilmasmiding, g‘aflatzada, holimni mening?

Sendek necha ming-ming kishi ostimda yotar,
Kamsitma ko‘rib holi maholimni mening.

11

Shoiro, o‘z she’rlaringdan bo‘lmagil g‘ofil sira,
Yaxshi farzand bo‘lmagay bundan-da minba’d senga.

Bo‘lsa she’ringda xato, isloh qilish mumkin uni,
Pand-o‘gitdan burmagay yuz, aylagay xizmat senga.

Noravo farzand misoli har zamon keltirmagay
Har bahona, har sabab birlan g‘am-u zahmat senga.

Parcha qog‘ozning o‘zi unga libosdir bebaho,
Yo‘q g‘ami shohi-ipak, tashvishi zeb-ziynat senga.

Eb-ichar bo‘lsa kifoyat bir siyohdonning o‘zi,
Yo‘q g‘ami sut-u shakar, anvoyi har ne’mat senga.

Har qaerga bo‘lsa bergay bemato-yu bemalol,
Bora-bora keltirar olamaro shuhrat senga.

12

Ey dil, uzlat go‘shasining maloli ming bor
O‘tirgandan har bir tanish bilan ko‘p a’lo.

Boy ahlidan bo‘lar, yoki faqir qavmidan,
Hamdam bo‘lsa kishiga gar har yor-u oshno.

Mol-davlati ko‘p bo‘lgan har kishi dunyoda,
Hashamatu boyligidan so‘zlar har asno.

Ishi hasrat vafosi yo‘q tuban dunyodan,
Agarda u faqirlikka bo‘lsa mubtalo.

Xoli kishi bormi bu ikki mojarodan,
Qilar zoe umringni bu ikki mojaro.

13

Nasl-u nasab ulug‘ligi sendan tashqari,
Sen fazlingdan o‘zgasidan iftixor qilma.

Behuda shoh suhbatiyu vazir xizmati,
Qo‘y, ishonma ularga-yu, e’tibor qilma.

Do‘st suhbati zarur bo‘lgan har bitta ishga
Ko‘ngil berib, o‘zingni ko‘p umidvor qilma.

Mol-u davlat omonat-u behuda, bilsang,
Unga umid asosini ustuvor qilma.

Agar boqiy fazl-u kamol bo'lsa maqsading,
Ilmga intil, ilm olishdan sira or qilma.

14

Olam ahli qoshida, so'zdan dasturxon yozdim
Anvoyi ne'matlardan rang-barang zavq mujassam.

Men xijolat bo'lmayman kelsa har qanday mehmon,
Xohi turk, xohi arab, xoh ajamlik bo'lsa ham.

Har kishi bo'lsa kel deng, har nimaki bo'lsa ol,
Chunki bu boqiy ne'mat olgan bilan bo'lmas kam.

RUBOIYLAR

1

Hijron g‘amidan dil to parishon bo‘lmas,
U loyig‘i zavqi vasli jonon bo‘lmas.
Dunyoda mashaqqatsiz bir rohat yo‘q,
Sharti shu: u bo‘lmasa, bu hech on bo‘lmas.

2

Husn ahlidan ahdiga vafo ko‘rmadim-ey,
Bir gul-da vafo gulshanida termadim-ey.
Umrim bo‘yi cheksam-da jafosin, aslo
Ko‘nglimni o‘zidan o‘zgaga bermadim-ey.

3

Ko‘z yosh to‘kasan tunlari bedor, ey sham,
Bag‘ring o‘tidan ahvoling abgor, ey sham.
Tinmay kuyasan — eriysan-u yig‘laysan,
Tark etdimi menday seni ham yor, ey sham?

4

Meni balo o‘qiga nishon qildi falak,
Ko‘nglimni g‘am-u g‘ussada qon qildi falak.
O‘z yor-u diyorimdan ayirdi-yu meni,
Faryodki, zulmini ayon qildi falak.

5

Ko‘zing och-u, holi dili zorimga qara,
Diydamdagi ashki shashqatorimga qara.

Ko‘ksimni tilib karashma shamshiri bilan,
Dardingdagi dili yaradorimga qara.

6

Ey yor, xirom ayla, qaddi ra’nongni ko‘ray!
Ol pardani — bir chehrayi zebongni ko‘ray!
Mastona oyog‘ingga qo‘yay boshimni,
Ko‘zimga to‘tiyo xoki poyingni ko‘ray!

7

Har qancha sitam etsa, qilib zulm shior,
Shod bo‘l, xush emasmi har nima aylasa yor?
Dil dardiga yor o‘zi agar qilsa duchor,
Bir kuni o‘zi unga davo bo‘lmog‘i bor.

8

Gul bog‘da chechak xirmanini qildi qator,
Har bir giyoh uzra g‘unchalar bo‘ldi nisor.
Suv bo‘yida nish urdi giyoh-u maysa,
Suv oyinasiga yuzini soldi xumor.

9

Fazl, ilm-u adab — boisi shon-u sharaf,
Dur bo‘lmasa bag‘rida yo‘q qadri sadaf.
To bor ekan imkoning — o‘tirma bekor,
To behuda bo‘lmasin aziz umr talaf.

10

Tuproqni yorib chiqqan har maysa, giyoh,
Hasrat suvidan nam bir kiprikdir, oh.
Go‘yoki zamin bandalari xoki bo‘lib,
Giryon bu falakni(ng) dastidan, bo‘l ogoh.

11

Ahdiga vafoni hiylagardan tilama,
Rohatni sira sitamgardan tilama.
Yomonlardan yomonlik kut-u, lekin
Yaxshilikni yaxshilardan tilama.

12

Yor ish tugunin fig'on bilan yechmadi, dod,
Faryod bilan bermadi hech menga murod.
Afg'onki, unga qilmadi afg'onim asar,
Faryodki, bermadi bir ish ming faryod!

13

Olam uzra sepini to yoydi bahor,
Gul shamiga parvona bo'lar bulbuli zor.
Gul g'uncha shamin yoqar chaman bazmi aro,
Bulbul kuyi gul dardiga bo'lg'usi mador.

14

Faryodki, bu charxi falak — nayrangboz,
Qildi yuzimizga eshigi nayrang boz.
Har nayrangi bir hiyladan xoli emas,
Qoldi nima, bilmadim, qilar nayrang boz[1].

15

Yolg'on so'ziga uchib raqibning yakkash,
O't urdi dilimga ko'ngli qattiq mahvash.
Butun vujudim alanga ichra qoldi,
Chiqarganidek tosh temirdan otash.

---

[1] Bu ruboiy tajnis asosiga qurilgan bo'lib, nayrangboz so'zi birinchi misrada u firibgar, ikkinchi misrada nayrang eshigini ochmoq, to'rtinchi misrada esa yana nayrang qilmoq ma'nosida kelayapti.

16

Doim yoshi ko‘zda shashqatordir oshiq,
Ovvorayi charxi nobakordir oshiq.
Ma’shuqaga xos hamisha xotirjamlik,
Oshuftayu zor-u beqarordir oshiq.

17

Ollohga shukr, zohidi makkormasmiz,
Shayx ahlidek ablahu riyokormasmiz.
Qallob bu shayx-u zohidlar kabi hech
Bino qo‘yib o‘zimizga, beormasmiz.

18

Xush sen ila qilsam bir dam sayri chaman,
To‘ldirgay edim etakni ko‘z duri bilan,
Begona ko‘z atrofida bo‘lmay umuman,
Man bo‘lsam-u, san bo‘lsang-u,
san bo‘lsang-u, man!

19

Dunyoda jaholat mayidan mast ko‘plar,
Nafsi ko‘yiga tushib, tuban, past ko‘plar.
Har bittasi bir bahonani but aylab,
Sajda qiladi, demak, butparast ko‘plar.

20

Mushtoqi visoling bo‘lmagan bormi kishi?
Hayroni jamoling bo‘lmagan bormi kishi?
Bechorayi xoling bo‘lmagan bormi kishi?
Maftuni xayoling bo‘lmagan bormi kishi?

HIKMATLAR

Dunyo dengizining gavhari — hikmat.

* * *

Ovga qodir bo'lgach lochin bolasi,
Boshlagani ma'qul mustaqil hayot.

* * *

Porloq la'l kasb etgach rang-u tarovat,
Tabiat hukmicha tark yetar konni.

* * *

Daraxtdan balanddir mevaning qadri,
Meva azizroqdir daraxtdan asli.

* * *

Ehtiyoj qolmagach daraxtga, meva
Behuda daraxtni qilmaydi makon.

* * *

Maqsading olamni olmoq bo'lsa gar,
G'ilofga berkinma misoli xanjar.

* * *

Qachon dil-u jon-u tan moyili dunyo bo'ldi,
Ular bilan o'rtada janjal-u g'avg'o bo'ldi.

* * *

Bani odam, bilarman, o'z tilining qadrini bilmas,
Misoli bo'lmagandek konda zarra qimmati la'lning.

* * *

Agar har qancha ilming bo‘lsa ham o‘zni sana nodon,
Bo‘lar nodonga teng qilsa agar kibr-u g‘urur dono.

* * *

Ishonma ma’rifat lofini kim ursa jaholatdan.

* * *

Kuyar kim hirs o‘tida, u, bilingki, bir kasal go‘yo,
Yonar har lahza jismi mol-u dunyo deb haroratda.

* * *

Ko‘rinmas hirsu tama yo‘lining hech hadd-u poyoni.

* * *

Xaloyiqqa farog‘at yo‘q agar shohi esa zolim,
Suruvning sho‘ridir, bo‘lsa agarda bo‘ri cho‘poni.

* * *

O‘zing, ey shohi zolim, urma taxting poyiga bolta,
Senga deb parvarish etmish daraxtni qazo dehqoni.

* * *

Agar ko‘nglingda nash’a bo‘lsa, qilma zoe har zavqqa,
Agar bo‘lsa qo‘lingda gavharing, hech sotma arzonga.

* * *

Yulib kofir qo‘lidan molini, deysan: haloldir bu,
Musulmon haqqini yemoqliging unda nechuk bo‘lgay?

* * *

Fuzuliy, yo‘q vafo imkoni olam ahlida hech ham,
Ulardan qo‘l yuvib ketganligim behudamas, bilsang.

* * *

O‘tganlar so‘zini dunyo lavhiga
Bir-bir yozdilar, yo‘q o‘qishga dono.

* * *

Bu dunyo g‘amiga asirmiz barcha,
Undan himmat otin sakratgan mard yo‘q.

* * *

Fuzuliy, dil berma dunyo mulkiga,
Bunga kelgan ko‘pdir, lekin qolgan yo‘q.

* * *


Mushtoqlikdan battar jabr yo‘q dunyoda.

* * *


Yor yuzin ko‘rishga raqib bermas yo‘l,
Dunyoda tikansiz gul yo‘q, ne qilay?

* * *

Hurlar ishqi hosili telbalikdan boshqamas,
Ey dil, agar oqilsan, bo‘lma ularga bandi.



LAYLI BA MAJNUN



I

Ey nash'ati husni ishqa ta'sir qilan!
Ishq ila binoyi kavni ta'mir qilan!
Layli sari zulfini girehgir qilan!
Majnuni hazin bo'ynina zanjir qilan!

II

Tutsam talabi haqiqata rohi majoz,
Afsona bahonasi-la arz etsam roz.
Layli sababi-la vasfin etsam og'oz,
Majnun dili ila etsam izhori niyoz.

III

Lutf ila shabi umidimi ro'z ayla,
Iqbolimi tavfiq ila firo'z ayla!
Layli kibi lafzimi dilafro'z ayla!
Majnun kibi nazmini jigarso'z ayla!

BU SHUKUFAYI GULZORI TAVHIDDUR BA NAVBAVAYI BO'STONI TAMJIDDUR

Ey munisi ahli zavq yoding,
Abvobi amal kalidi oding.

Ey ganji ato tilismi isming,
San ganji nihon, jahon tilisming!

Ey judi vujudi kavna vohib,
Zoti kibi e'tirofi vojib.

Ey silsilayi vujuda nozim,
Razzoqi arozilu aozim.

Ey pardakashi rumuzi mubham,
Mustahfizi intizomi olam.

Ey naqshtarozi safhayi xok,
Sohibraqami xututi aflok!

Ey muhtasibi jihoti arkon,
Koni guhari vujubi imkon!

Ey mabdayi fayzi ofarinish,
Sandan ravshan chirog'i binish!

Ey pardayi mosivo niqobing,
Sandan o'zga saning hijobing!

Ey sirri vujuding amri ma'lum,
Mavjud hamin san, o'zga ma'dum!

Ey yeddi gul-u do'quz guliston,
Fayzi karaming-la sabzu xandon!

Ey vori yo'x aylayan, yo'h-u vor,
Yo'x vorlig'ingda zannu inkor!

Ey shohidi g'ayb pardadori,
Fikring guli ma'rifat bahori!

Ey olama fayzi jud sandan,
Xalqa sharafi vujud sandan.

Ey jumla jahon sanga rizojo‘,
Sandan xoli, saning-la mamlu’!

Ey sham’i azal fatilaso‘zi!
Bazmi abad anjumanfuruzi!

Ey shirku sherikdan munazzah,
Sirri azal-u abaddan ogah!

Ey bori Xudoyi olamoroy,
Tahsin ishinga hamin o‘la ro’y!

Ahsanta zihi hakimi komil!
Na shukr o‘la sun’inga muqobil?

Fitrat raqamin chekan zamonda,
Haqqoki, bir amri “kun fakon”da

Hukm etdingki, na o‘la ahvol,
Na vaz’ ila chirkina mah-u sol.

Davron na zamonda o‘la oxir,
Har davronda na o‘la zohir.

Necha o‘la fard nasli odam,
Har fardi aning na eda hardam.

Ashyo’ya cho‘x etmazam tahayyur.
Sandan yongodur hamin tafakkur.

Ashyo ajab o‘lmaz o‘lsa zohir,
Chun vor saning kibi mazohir.

Ammo chun sanga qadimdur zot,
Idrok sanga yetarmi, hayhot!

Idrokimiza kamoli hayrat,
Tavhidina basdurur dalolat.

Andishayi zot qilmoq o'lmaz,
Bilmak bu yetarki, bilmoq o'lmaz.

Ul damki, urub binoyi mahkam,
Chekding raqami nizomi olam.

Haqqoki, xush intizom verding,
Oroyishini tamom verding.

Etding keragin gar oz, gar cho'x,
Bir nasna kerakli yo'xki, ul yo'x.

Bir nav' ila aylading muhayyo —
Kim, keldi qusurdan mubarro.

Ashyoda agarchi roz cho'xdur,
Ul kim o'la rozing onda yo'xdur.

Ashyo necha sandan o'lsun ogoh,
"Alqudrati val-baqovu lilloh"[1].

BU ARZI ADAMI QUDRATDUR BA UZRI FIQDI QUBBATDUR

Oroyishi suhbat ayla, soqiy!
Ver boda, muruvvat ayla, soqiy!

Bir jom ila qil dimog'imi tar,
Lutf ayla, bir iltifot go'star!

[1] Qudrat va abadiyat Xudoga xosdir.

G‘am marhalasinda qolmisham fard,
Na yor, na hamnishin, na hamdard.

Hamjinslarim tamom ketmish,
So‘z mulkindan nizom ketmish.

Bu bazmda san qolibsan-u man,
Bu bazmi, gal, edalim muzayyan.

San ver boda, man aylayim no‘sh,
Man nazm o‘xuyum, san onga tut go‘sh.

Bir davrdayamki, nazm o‘lub xor,
Ash’or bo‘lub kasodi as’or.

Ul rutbada qadri nazmdir dun —
Kim, kufr o‘qinur kalomi mavzun.

Bir mulkdayamki, gar yudub qon,
Mazmuni iborata chekib jon.

Ming rishtaya turfa la’l cheksam,
Ming ravzaya nozanin gul eksam,

Qilmaz anga hech kim nazora,
Derlar gula xor, la’la xora.

Anjaq demazamki, xoki Bag‘dod,
Oloyishi nazmdandir ozod.

Yo‘xdir bir mulk bu zamonda —
Kim, nazm rivoji o‘la onda.

Na Hind, na Fors, na Xuroson,
Na Rum-u Ajam, na Shom-u Shirvon.

O‘lsaydi birinda bir suxansanj,
Albatta ayon o‘lurdi ul ganj.

Ganjinayi nazm gizli qolmaz,
Sonmang gunash o‘lsa, nur solmaz.

Koni nechakim nihon tutar dosh,
Aylar oni la’l olama fosh.

Holo magar iqtizoyi davron,
Uldurki, o‘la u ganj pinhon.

Davron ila man naqiz sayram
Davr ahlindan magarki, g‘ayram.

Davron istarki, xor o‘la nazm,
Beizzat-u e’tibor o‘la nazm;

Man muntaziram — veram rivojin,
Bemor esa aylayam ilojin.

Ul nafyi kamoli hikmat aylar,
Lozim biluram xasorat aylar.

Ta’miri xaroba tolibam man,
Inshollohki, g‘olibam man.

SOQIYNOMA

Soqiy, madad etki, dardmandam,
G‘am silsilasina poybandam.

G‘am daf’ina jomi may davodir,
Tadbiri g‘am aylamak ravodir.

Sandan na inoyat o'lsa voqe',
Fikr etmaki, manda o'la zoe'.

Man bir sadafam, san abri nayson,
Ver qatravu ol durri g'alton.

Sansan xurshidu man siyah xok,
Ver otash-u ol javohiri pok.

Rahm etki, g'aribu xoksoram,
Bemunisu yor-u g'amgusoram.

Ul bir necha hamdam-u muvofiq,
Ya'ni shuaroyi davri sobiq.

Tadrij ila keldilar jahona,
Ta'zim ila o'ldilar ravona.

Davron ulari muazzam etdi,
Har davr birin mukarram etdi.

Har birina homiy o'ldi bir shoh,
Zavqi suxanindin o'ldi ogoh.

Turk-u Arab-u Ajamda ayyom.
Har shoira vermish edi bir kom.

Shod etmish edi Abu Nuvosi,
Horun xalifaning atosi.

Bo'lmishdi safoyi dil Nizomiy,
Shirvonshaha dushub kiromi.

O'lmishdi Navoiyi suxandon
Manzuri shahanshahi Xuroson.

So‘z gavharina nazar solonlar,
Ganjina verib, guhar olonlar,

Chun qolmadi, qolmadi fasohat,
Arbobi fasohat ichra rohat.

Ul toifa chekdi xirqaya bosh,
Holatlarin etmaz o‘ldilar fosh.

To o‘lmaya rasmi she’r mafqud,
Abvobi fununi nazm masdud.

Lozim manga o‘ldi hifzi qonun,
Zabti nasaqi kalomi mavzun.

Nochor tutub tariqi nomus,
Rohatdan o‘lub mudom ma’yus.

Ahdi so‘za ustuvor qildim,
Ash’or demak shior qildim.

Chun xalqa xilofi muddaoyam,
Onlar za’mincha sustro’yam,

Har so‘zki, kelur zuhura mandan,
Ming ta’na bo‘lur har anjumandan.

Aylar hasad ahli bog‘layub kin,
Tahsin evazina nafyu nafrin.

Ummidki, raf’ o‘lub kudurat,
Tag‘yirpazir o‘la bu surat,

Ul qavm bu gulshana kiranda.
Bu gulshan ichinda gul teranda,

Gul toza edi-yu, sabza navxez
Tebrandikcha nasimi gulrez.

Onlar guli terdilar, mani zor,
Holo tilaram, teram xas-u xor.

Bu bazma ular veranda tazyin
May sof edi, bazm ham navoyin.

May sofi ularа o'ldi ro'zi,
Qoldi manga dog'i durd so'zi.

Bu durda man o'lmisham havoxoh,
Bir nash'a verarmi, bilmazam, oh!

BU SOQIYI BAZMA BODA UCHUN XITOBDUR

Soqiy, karam ayla, jom kezdir!
Tutma qadahi, mudom kezdir!

Davrona cho'x e'tibor qilma,
Kezdir qadahi, qaror qilma!

To'k olib ala kumush surohi,
Zar sog'ara ruhbaxsh rohi.

Sarf ayla rioyatimda altof,
Tanholig'imi ko'r, ayla insof!

Shug'lim bu bisot ichinda cho'xdur,
Sandan o'zga madadchi yo'xdur.

Hamdamligim ila or qilma,
Mandan nafrat shior qilma!

Gar bilmaz esangki, man na zotam,
Na zulmati chashmayi hayotam,

Fayzi hunarim sharobdan so‘r,
So‘zi jigarim kabobdan so‘r!

Tutsang alini mani faqiring,
Haq o‘la hamisha dastgiring.

Man shoiri Musoyi kalomam,
Sohirlara mo‘’jizi tamomam.

Man sohiri Bobili najodam,
Horuta bu ishda ustodam.

So‘z darkina sarf edib farosat,
Amlokina bo‘lmisham rayosat.

Goh tarzi qasida aylaram soz,
Shahbozim o‘lur balandparvoz.

Gah da’bi g‘azal o‘lur shiorim,
Ul da’ba ravon verar qarorim.

Gah masnaviya o‘lub havasnok,
Ul bahrda istaram duri pok.

Har dildaki vor ahli rozam,
Majmuyi fununa ishqbozam.

Bir korgaram hazor pesha,
Jonlar chekib istaram hamisha.

Do‘konim o‘la rivoji bozor,
Har istadiging bo‘la xaridor.

BU BIR TARIQ ILA KASRI NAFSDUR

Soqiy, na edi bu jomi gulgun —
Kim, ayladi holimi digargun?

Sarmast o'lubam, so'zim habodur.
Har lofki, aylaram xatodur.

Ta'sir solib dimog'a tashvir,
Tashviri mizojim etdi tag'yir.

Man qandanu lofi husni guftor —
Kim, so'z demaya o'lam sazovor.

O'lsaydi manim so'zimda bir hol,
Albatta o'lurdim ahli iqbol.

Mustavjibi izzu joh o'lurdum,
Shoyistayi borgoh o'lurdum.

Maqbul dushardim ostona
Manzuri shahanshohi zamona.

Ul podshohi balandbinish —
Kim, xoki rahidir ofarinish.

Mustahfazi din, panohi islom,
Maxdumi zamon, malozi ayyom.

Abristehsonu barqkina,
Shohanshohi Makkayu Madina,

Mustalzami Haq, muhilli botil,
Sultoni murodbaxshi odil,

Arbobi hunar umidgohi,
Turk-u Arab-u Aajam panohi.

Daryo kibi aylayan damodam
Andishayi qurbu ba'di olam.

Lutfi-la veran yoxina lu'lu',
Abri-la irog'a ko'ndaran suv,

Lu'lu'sini aylayan jahontob,
Labtashnalari dur ila serob.

Gardun kibi lutf edanda zohir,
Doman-doman to'kan javohir.

Kun kibi o'landa juda mazhar.
Xirman-xirman nisor edan zar,

Tug'roy misoli oli Usmon,
Sultoni sipahshikan Sulaymon.

Yerda dushar o'lsa fayzi xoka,
Ta'n aylaya xok ruxi poka.

Ko'kda nazar etsa gar humoya.
Xurshid solur humoya soya.

Gar Sharqa ura sinoni sarkash.
Kun kibi chiqor sipehra otash.

Var G'arba chalarsa tig'i burron,
Garduna yetar shafaq kibi qon.

Dun charx yana nigoh qildim,
Nazzorayi lavz-u moh qildim.

Ko'rdum bu xatiki, xomayi hur,
Ul lavhada aylamishdi mastur.

Yorabki, muzaffar o'la doim,
Zotina binoyi adl qoim.

Shoyista anga sariru afsar,
Olamlara adli soyagustar.

BU SABABI NAZMI KITOBDUR VA BOYISI IRTIKOBI AZOBDUR

Soqiy, tut alimki, xastaholam!
G'am rahguzarinda poymolam.

Sansan mani mubtaloya g'amxor,
Sandan o'zga daxi kimim vor?

Mushkul isha dushmusham, madad qil,
May hirzi ila balomi rad qil!

Hal aylaya ko'r bu mushkuloti,
Kam etma qulingdan iltifoti!

Bir kunki, mayi suhayl ta'sir,
Vermishdi mizoji poka tag'yir,

Hamrangi bahor o'lub xazonim,
Do'nmushdi aqiqa za'faronim,

Jam' edi yonimda ittifoqi:
Sozu mazavu sharobu soqiy.

Payvasta labolab-u payopay,
No'sh aylar edim qadah-qadah may.

Zavq uzra may orttirurdi zavqim,
Shavq uzra ziyod o'lurdi shavqim.

Ul bazm edi ofiyat bahori,
Man bulbuli zori beqarori.

Bir hadda erishdi nash'ayi jom —
Kim, qolmadi ahli bazma orom.

Asrori dil o'ldi oshkoro,
Masdud o'lubon dami madoro,

O'lmishdi rafiq-u hamzabonim,
Oyinayi to'tiyi ravonim.

Bir necha zarifi xuttayi Rum,
Rumiyki, deding qaziya ma'lum.

Ya'niki, qamu daqoyiq ahli,
Har mas'alada haqoyiq ahli.

Ham ilm-faninda nuktadonlar,
Ham so'z ravishinda durfishonlar.

Kim aylar edi haqoyiqi roz,
Shayxiydanu Ahmadiydan og'oz.

Kim so'ylar edi o'qub kalomi,
Avsofi Jaliliyyu Nizomiy.

Bilmishlar ediki, husni guftor,
Qadrim qadarincha manda ham vor,

Chun vor edi mastlikda lofim,
To anglana sidqimu xilofim.

Man xastayi etdilar nishona,
Bir rang ila tiri imtihona.

"Lutf ayla, — dedilar, — ey suxanganj!
Fosh ayla jahona bir nihon ganj!

Layli-Majnun Ajamda cho'xdur,
Atrokda ul fasona yo'xdur.

Taqrira ketur bu dostoni,
Qil toza bu eski bo'stoni".

Bildim bu qaziya imtihondir,
Zeroki, bu bir baloyi jondir.

Savdosi daroz-u bag'ri ko'toh,
Mazmuni fig'on-u nola-vu oh.

Bir bazmi musibati balodir —
Kim, avvali g'am, so'ngi fanodir.

Na bodasina nishotdan rang,
Na nag'masina farahdan ohang.

Idroki verar xayola ozor,
Afkori edar maloli afkor.

O'lsaydi tavajjuhi munosib,
Tavjihina cho'x o'lurdi rog'ib.

O'lsaydi tasarrufinda rohat,
Cho'x komil anga qilurdi rag'bat.

Billohki, na xush demish Nizomiy,
Bu bobda xatm edib kalomi.

"Asbobi suxan nishot-u nozast,
Z-in har du suxan bahonasozast.

Maydoni suxan farox boyad,
To tab' suvorayi namoyad.

Dar garmii regu saxtiyi ko'h,
To chand suxan ravad ba anbo'h"[1].

Bir ishki qilur shikoyat ustod,
Shogirda o'lur ruju'yi bedod,

Garchi biluram bu bir sitamdur,
Taklifi buning g'am uzra g'amdur.

Ammo necha etmak o'lur ikroh?
Bir voqeadirki, dushdi nogoh.

Yakdur yana ushrdan shuru'im,
Bu ishda tavakkula ruju'im.

Ey tab'i latifu aqli volo!
Idroki baland-u nutqi go'yo.

Dushdi safarim diyori darda,
Kimdir manga yor bu safarda?

Har kimdaki vor istitoat,
Dard-u g'am-u mehnat-u qanoat.

---

[1] So'zlarning sababi sevinch noz bo'lur,
Har bir dard, bahona undan tuzalur.
So'zlarinng maydoni keng bo'lsin mudom
Otini har yonga sakratsin ilhom.
Bu tog'-tosh qumlikka singib ketarmi?
Ketsa-da mo'l-u ko'l ta'sir etarmi?

O‘ldi bu musofiratda yorim,
Zavq ahlina yo‘xdur e’tiborim.

Markab kerak o‘lsa azmi roha,
Basdur biza xoma-vu siyoha.

B-ar to‘shayi roh o‘lursa matlub,
Mazmuni xush-u iborati xo‘b.

Azm aylayalim taallul etman,
Manzil kesalim, tag‘ofil etman.

Ey baxt, vafosiz o‘lma san ham,
Hamrohliq et bizim-la bir dam!

BU TUG‘ROI MISOLI MUHABBATDUR VA DEBOCHAYI DEBONI MEHNATDUR

Dehqoni hadiqayi hikoyat,
Sarrofi javohiri rivoyat.

Ma’ni chamaninda gul dikanda,
So‘z rishtasina guhar chekanda,

Qilmish bu ravishda nuktadonlik,
Gulrezligu guharfishonlik —

Kim, xayli Arabda bir javonmard,
Jam’iyatu izzu joh ila fard;

Mustajma’yi jumlayi fazoyil,
Bo‘lmishdi rayosati qaboyil.

Amrina Arab mute’u munqod,
Gah Basra maqomi, goh Bag‘dod.

Bir buq'ada o'lmayub qarori,
Kezmakda kechardi ro'zgori.

Har lahza urardi ul yagona,
Sarchashmalara siyah xona.

Sayr aylar edi surub tana'um,
Go'zlar uzra misoli mardum.

Avzoyi xiyomi mushkfomi,
Xalqa shabi Qadrtak kiromi.

Har manzilakim, guzor edardi,
Sahroyi binafshazor edardi.

Gulzorlar ichra lola chog'i,
Bengzardi evina lola dog'i

Amvoli jami'i jinsdan cho'x,
Ammo bu jahonda vorisi yo'x.

Gar qilsa oni talaf havodis,
Yo'x bir xalafiki, o'la voris.

Farzandsiz odami talafdir.
Boqiy edan odami xalafdir.

Nasl ila o'lur baqoyi inson,
Nazmi bashar-u nizomi davron.

Jon javharina badaldir avlod.
Avlod qo'yon, qo'yor hamin od.

Xush ulki, xalafdan o'la xushdil,
Dunyoda bir o'g'li o'la qobil.

Piroyasi o‘la dastgoha,
Sarmoyasi o‘la izzu joha.

Oh, ar o‘la bir sahifu sarkash,
Advori karihu xulqi noxush,

Tashne’ o‘qina o‘lub nishona,
Bezor o‘la andan ota-ona.

Alqissa, ul afzali qaboyil,
Ul piri hamidat ul-xasoyil,

Farzanda o‘lub hamisha tolib,
Tahsili baqoyi nasli rog‘ib.

Cho‘x mohliqo sanamlar oldi,
Cho‘x turfa zamina tuxm soldi.

Cho‘x nazrlar etdi har mazora,
Cho‘x qildi niyoz Kirdigora.

Ta’sir qilib fig‘on-u ohi,
Avn etdi inoyati ilohi.

Bir kecha ochildi bobi rahmat,
Bo‘ldi asari duo ijobat.

Maqsud sham’i munavvar o‘ldi,
Sandug‘i amal dur ila to‘ldi.

Tadrij ila qildi kilki taqdir,
Naqshi g‘arazi rahimda tasvir.

Bar verdi niholi bog‘i maqsud,
Ochildi guli hadiqayi jud.

Chun va'da erishdi, tug'di bir oy,
Xurshid ruxi-la olamoroy.

Shod o'ldilar andan ota-ona,
Shukrona verildi cho'x xazona.

Alqissa, adamdan o'ldi paydo,
Bir tifli muzakkar-u muzakko.

Xurshid kibi kamola qobil,
Iso kibi tifllikda komil.

Ul damki, bu xokdona dushdi,
Holini bilub, fig'ona dushdi.

Oxir kunin avval aylayub yod,
Oqitdi sirishk-u qildi faryod.

Ya'niki: "Bujud domi g'amdir,
Ozodalaring yeri adamdir;

Har kimki, asir o'lur bu doma,
Sabr etsa kerak g'ami mudoma".

O'lmishdi zaboni holi go'yo
So'ylardiki: "Ey jafochi dunyo!

Bildim g'amingi saningki, cho'xdur.
G'am chekmaya bir harif yo'xdur.

Galdimki, o'lam g'aming harifi,
Gal, tajriba ayla man zaifi!

Har qanda g'am o'lsa, qilma ehmol.
Jam' ayla, dili hazinima sol!

Ham ver manga g‘am yemak kamoli,
Ham olami g‘amdan ayla xoli!

Payvasta mani asiri g‘am qil!
Kam qilma nasibimi, karam qil!

Zavq ila kechurma ro‘zgorim,
Foniy o‘lana yo‘x e’tiborim.

Ey ishq, g‘aribi olam o‘ldum,
Ovorayi vodiyi g‘am o‘ldum.

Tadbiri g‘am etmak o‘lmaz o‘ldi,
Galdim geri ketmak o‘lmaz o‘ldi.

Sandan dilaram madadki, doim
Tamkinim o‘la san ila qoim.

Bu bazmdakim, sharobi qondur,
Soqiy jallodi beamondur.

Bir may manga sunki, mast-u madhush,
Doim o‘zimi qilam faromush.

Na galdiyimi bilim jahona,
Na oniki, nechadir zamona.

Olam ko‘zima ko‘rinmaya hech,
Bu rishtada bo‘lmayam xam-u pech”

Doya oni pok qildi qondan,
Qoldirdi bu tiyra xokdondan.

G‘uslin verub obi chashmi tardan,
Sud yerina verdi qon jigardan.

Aqvomu qaboili o‘lub shod,
Ul navrasa Qays qo‘ydilar od.

Jon ila qilurdi doya e’zoz,
Asbobi kamoli tarbiyat soz.

Lokin ul edib hamisha nola,
Xushnud dagildi hech bu hola.

A’zosin edib alila afgor,
Aylardi mudom nola-vu zor.

Sut ichsa sonurdikim, ichar qon,
Emchak ko‘rinurdi anga paykon.

Yo‘x edi firib ila qarori,
Yoninda firibin e’tibori.

Bir kun ani kezdirurdi doya,
Dardini yeturmaya davoya.

Bir evda magarki bir parivash,
Ul tifli base ko‘rub mushavvash,

Rahm etdi, alina oldi bir dam,
Tifl oni ko‘runcha o‘ldi xurram,

Husnina boqib, qaror tutdi,
Faryod-u fig‘onini unutdi.

O‘lduqcha alindan o‘ldi xandon,
Dushdukcha alindan o‘ldi giryon.

Mohiyatini chu doya bildi,
Ul mohi anga anis qildi.

O‘ldi bu daxi oning-la mu’tod,
Na doya, na ona ayladi yod.

Zotinda chu vor edi muhabbat,
Mahbubi ko‘runcha tutdi ulfat.

Ishq ediki, o‘ldi husna moyil,
Husnu na bilurdi tifli g‘ofil.

Ma’lum edi ahli hola ul hol —
Kim, nusxayi ishqdur bu timsol.

Albatta bu tifli zor edar ishq,
Oshuftayi ro‘zgor edar ishq.

Albatta qilur bu subh ta’sir,
Xurshid chiqib, o‘lur jahongir.

Chun tarbiyati adibu doya
Verdi asari tamom ul oya.

Kun-kundan edib kamol hosil,
Ul mohi nav o‘ldi badri komil.

Galdikcha mayi vafodan ayyom,
Har davrda sundi anga bir jom.

To qildi ani tamom sarmast,
Tadrij ila domi ishqa pobast.

Chun sur’at ila do‘nub zamona,
O‘n yoshina yetdi ul yagona.

Otasina muqtazoyi odat,
Farz o‘ldiki, oni eda sunnat.

Jam' etdi aholiyi diyori,
Har sohibi izzu e'tibori.

Bazl ayladi ul qadar zar-u sim —
Kim, yetdi qiyosa faqrdan bim.

Xalq onda ko'randa kasrati mol,
Bim o'ldiki, mun'aks o'la hol.

Ul sof zamir, pok mashrab,
Bir bazmgoh ayladi murattab —

Kim, ko'rmadi oni chashmi sog'ar,
Jamshiddan o'zgaya muyassar.

Itmoma yotib tariyqi sunnat,
Ta'limi uluma yetdi navbat.

Asbob anga aylayub murattab
Verdilar aningla zebi maktab.

BU BUNYODI BINOYI BALODUR VA MUQADDIMAI ALAMI IBTILODUR

Maktabda aningla o'ldi hamdam,
Bir necha malakmisol qiz ham.

Bir saf qiz o'tirdi, bir saf o'g'lon,
Jam' o'ldi behishta hur-u g'ilmon.

O'g'lonlara qizlar o'lsalar yor,
Ishqa bo'linur rivoji bozor.

Qiz nargisi mast etib fusunsoz,
O'g'lona sotonda ishva-u noz.

O‘g‘lon necha sabr pesha qilsin,
Var sabri ham o‘lsa nesha qilsin?

Ul qizlar ichinda bir parizod,
Qays ila muhabbat etdi bunyod.

Bir turfa sanamki, aqli komil
Ko‘rdukda ani o‘lurdi zoyil.

Zulfini musalsali girehgir
Jon bo‘ynina bir baloli zanjir.

Abrusi xami baloyi ushshoq,
Ham juft latofat ichra, ham toq.

Har kirpigi bir xadangi xunrez,
Paykoni xadangi g‘amzayi tez.

Daryoyi balo jabini poki,
Chin junbishi mavji sahmnoki.

Chashmi siyahina surmadan or,
Hindusina surma ham giriftor.

Ruxsorina rangi g‘ozadan nang,
Hargiz anga g‘oza vermamish rang,

Ko‘z mardumagindan o‘lsa xoli,
Ko‘z mardumagi o‘lurdi xoli.

La’lu dur-u go‘starardi hardam,
Avroqi gul ichra iqdi shabnam.

Abvobi takallum etsa maftuh,
Amvota verardi mujdayi ruh

Shamshodi latifina murakkab
Sebi zanaxu turunji g'abg'ab.

Andomi latifai ilohi,
Daryoyi latofat ichra mohi.

Shahboz boqishli, oh-u ko'zli,
Shirin harakatli, shahd so'zli.

Rohu ravishi mudom g'amza,
Boshdan oyog'a tamom g'amza.

Ayruqcha shaklu xushcha paykar,
Yaxshicha sanam, go'zalcha dilbar,

Olam sari mo'yining tufayli,
Mahbubai olam, odi Layli,

Qays oni ko'rub halok o'ldi,
Ming shavq ila dardnok o'ldi,

Ul nodira hamki, Qaysni ko'rdi,
Ming zavq bo'lub o'zin yiturdi.

Ko'rdiki, bir ofati zamona
Misli daxi kelmamish jahona.

BU SIFATI MAJNUNDUR VA IBTIDOYI MEHNATI FUZUNDUR

Bir dilbari savqadd-u gulro'y,
Sarvi xush-u gulrux-u sumanbo'y.

Shirin labi mansha'yi latofat,
Ra'no qadi durdug'ila ofat.

Avsofi latofatinda so‘z cho‘x,
Altofi malohatinda so‘z yo‘x.

Shahlo ko‘zi nargisi purafsun,
Zebo qoshi nargis uzraki nun.

Husni guli lolayi shafaqfom,
Zulfi xami lola uzraki lom.

Og‘zi sifatin xud etmak o‘lmaz,
Asrori nihona yetmak o‘lmaz.

Zulfi so‘zi — zikri halqayi roz,
La’li labi obi chashmayi noz.

Davri mohi ro‘yi chashmayi nur,
Xoki kafi poyi — surmayi hur.

Bir g‘oyat ila shamoyili xo‘b —
Kim, Layli o‘landa anga matlub.

Bir ko‘zguya gar ochib ko‘zini,
Ko‘zguda ko‘raydi o‘z-o‘zini,

O‘z orazina o‘lurdi mayli,
Qilmazdi havoyi husni Layli.

Ul iki sumanbaru sihi qad,
Bir-birina o‘ldilar muqayyad.

Ul ikki xarobi bodayi zavq,
Bir jomdan ichdilar mayyi shavq.

Girdobi baloya o‘ldilar g‘arq,
Qolmadi arolarinda bir farq.

Avzoyi muxolif o'ldi yakson,
Go'yo ikki tanda edi bir jon.

Har kim so'rar o'lsa Qaysa bir roz,
Laylidan anga yetardi ovoz.

Kim Layliya qilsa bir xitobi,
Qays edi anga veran javobi.

Aylarlar edi xati vafo mashq,
Ortardi damodam onlara ishq.

Laylida o'xumoq iztirobi
O'lsa, ruxi Qays edi kitobi.

Mashq etmaya Qays olsa bir xat,
Layli qoshi edi anga sarxat.

Xat uzra qilurdi ul go'zallar,
Ming noz ila bahslar, jadallar.

Ammo na jadal — kamoli ulfat,
Na bahs — nihoyati muhabbat.

Chun bir necha muddat ul iki pok,
Avqot kechirdilar tarabnok.

Ishq o'ldug'i yerda mahfi o'lmaz,
Ishq ichra o'lon qaror bo'lmaz.

Ishq otashina budur alomat —
Kim, bosh cheka shu'layi malomat.

Husn ofati ishq o'lub damodam,
Galdikcha irodat o'ldi mahkam.

Bir g'oyata yetdi nash'ayi hol —
Kim, o'ldi havasu aql pomol.

Qolmadi zamona tobi guftor —
Kim, aylayalar muhabbat izhor.

Kayfiyati holi qilmog'a fosh,
Galmishdi takalluma ko'z-u qosh.

Aylardi ko'zi-la bu xitobi,
Qoshi-la verardi u javobi.

Qoshu ko'z ila o'lon takallum,
Ham qilmadi daf'i zanni mardum.

Mardumdan o'lam, dema kanora!
Mardum ko'z ichindadur na chora?!

Hamroz ekan ul iki vafodor,
Damsoz ekan ul iki jigarxor.

Raf' o'ldi hijobi shohidi roz;
Ishq o'ldi malomat ila damsoz.

Oshiqlara gizli qolmadi hol,
Ma'lum o'ldi jam'i ahvol.

Gard oyinayi nishota dushdi,
Minba'd ish ehtiyota dushdi.

So'ylashmaya ul iki yagona,
Qolmadi sabab magar bahona.

To o'lmaya roz oshkoro,
Davron ila qildilar madoro.

Bir nav' bahona ila har dam
Ko'nglini qilurdi Qays xurram.

Qasddan unudurdi darsin ul zor,
Layliya deyurdi: "Ey vafodor!

Hifzi sabaq etdi bag'rimi xun,
Mandan, biliram, bilursan afzun,

Man bilmadigim manga o'qutgil,
Darsim o'quyam, quloq tutgil!"

Chun lavhalar uzra xat yozardi,
Qasddan xatini g'alat yozardi.

Ya'niki, xato tavahhum eda,
Ul gul ochilib tabassum eda.

Guftora kelarki: "Bu g'alatdir,
Tark etki, xilofi rasmi xatdir".

O'la sababi takallumi yor,
Fahm etmaya muddaoyi ag'yor,

Atfol qilanda davr bunyod,
Vori bo'yli aylayanda faryod.

Ul yorina arzi hol edardi,
O'zga davrin xayol edardi.

Qilmazlar edi so'zini ma'lum,
Bilmazlar edi so'zina mahfum.

Maktabdan o'lon zamonlar ozod,
Vasl uchun edardi hiyla bunyod:

Qasd ila nihon edib kitobin,
Haddan oshirardi iztirobin.

Layli yo'lini tutub turardi,
"San ko'rding o'la?" — deyub so'rardi.

Ya'ni bu bahona ila bir dam,
Yorin ko'rub, o'la shod-u xurram.

Ilmi xata umrin aylayub sarf,
Mashq etmish edi hamin iki harf.

Bir safhada "Lom"u "Yo" mukarrar.
Yozardi oni qilardi azbar —

Kim: "Bu iki harfdur murodim,
Ravshan bular iladur savodim"[1].

BU LAYLIYA ONASI ITOB ETDIGIDUR VA BAHORI VASLINA XAZON ETDIGIDUR

Chun makr ila Qaysi badsaranjom,
Bir necha zamon kechurdi ayyom.

Tadbir ila ishq zavq vermaz,
Tadbir diyori ishqa kirmaz.

Ishq ila riyo dagil muvofiq,
Rasvoy kerak hamisha oshiq.

Dildan-dila dushdi bu fasona,
Fosh o'ldi bu mojaro jahona —

[1] Arab yozuvida *"l"* (lom) va "y" (yo) haprflari takroridan "Layli" so'zi hosil bo'ladi.

Kim: "Qays o'lubon asiri Layli,
Layli daxi solmish anga mayli".

Tadriji mabodi ila nogoh,
Laylining onosi o'ldi ogoh.

O'dlara tutushdi, ya'sa botdi,
Ul g'unchadahona dil uzotdi.

Yonar o'd o'lur chekub zabona,
Ul gulruxa dedi yona-yona:

"K-ey sho'x, nadur bu guftugo'lar?
Qilmoq sanga ta'na aybjo'lar?

Nechun o'zingga ziyon edarsan?
Yaxshi odingi yomon edarsan?

Nechun sanga ta'na eda badgo'?
Nomusinga loyiq ishmidir bu?

Nozik badan ila bargi gulsan,
Ammo na deyim ekan, yengilsan?

Lola kibi sanda lutf cho'xdur,
Ammo na deyim, yuzing ochuqdur.

Tamkini jununa qilma tabdil!
Qizsan, ujuz o'lma, qadringi bil!

Har surata aks kibi boxma!
Har ko'rdiginga suv kibi oxma!

May garchi safo verar dimog'a,
Oxdig'i uchun dushar oyog'a.

Ko‘zgu kibi qotti yuzlu o‘lma!
Nargis kibi xira ko‘zlu o‘lma!

Ko‘zdan kerak o‘lasan nihon san,
To demak o‘la sangaki, jonsan.

San sham’san, uymagil havoya —
Kim, sham’i havo verar fanoya.

Lu’bat kibi o‘zingi bezatma!
Ravzan kibi ko‘chalar ko‘zatma!

Sog‘ar kibi kezmayi harom et!
Nag‘ma kibi pardada maqom et!

Soya kibi har yera yuz urma!
Hech kimsa ila o‘turma, durma!

San sodasan, o‘zga ahli nayrang,
Jahd ayla, verilmasin sanga rang!

Derlar sani ishqa mubtalosan,
Begonalar ila oshnosan.

San qandanu ishq zavqi qandan?
San qandanu do‘st shavqi qandan?

O‘g‘lon ajab o‘lmas o‘lsa oshiq,
Oshiqlik ishi qiza na loyiq.

Ey iki ko‘zum, yomon o‘lur or!
Nomusimizi yiturma zinhor!

Biz olam ichinda neknommiz,
Ma’rufi tamomi xos-u ommiz.

Na nang ila daxi edalim lof?
Biz demayalim, san ayla insof!

Tutkim, sanga qiymazam mani zor,
Mandan ulu bir mudabbiring vor.

Naylarsan agar otang eshitsa,
Qahr ila sanga siyosat etsa?

Minba'd, gal, ayla tarki maktab,
Bil, abjadingi hamin jadu ab.

Etma qalam ila mashqdan yod,
So'zan tutu naqsh ayla bunyod.

Atfoldan ayla qat'i ulfat,
Hamroz yetar yoningda lu'bat.

But kibi bir evda ayla manzil,
O'lma daxi har yangoya moyil!

Anqo kibi uzlat ayla pesha,
O'yla ravish aylakim, hamisha!

Garchi oding o'la dilda mazkur,
Ko'rmak sani o'la g'ayri maqdur.

Xush ulki, qizi hamisha gizlar,
Xud gizli kerak hamisha qizlar".

BU INKOR ILA LAYLI ONASINA JABOB VERDIGIDIR VAMAKTABDAN CHIQIB, SAROYI MEHNATA KIRDIGIDUR

Layli bu itobi chun eshitdi,
O'z ko'nglinda muqarrar etdi —

Kim: sho''badayi sipehri zolim,
Tarh ayladi naqshki, nomuloim.

Ayyomi visola yetdi hijron,
Baqt o'ldi jigarlar o'la biryon.

Ammo, na desun, na chora qilsun,
Tadbir na o'ldug'in na bilsun!

Nochor tutub tariqi inkor,
Osori tajohul etdi izhor.

Gulzori itoba ob verdi,
Giryon-giryon javob verdi:

"K-ey munisi ro'zgorim ona!
Durji duri shohvorim ona!

So'zlar dersanki, bilmazam man,
Mazmunini fahm qilmazam man.

Dersan ma'shuqu ishq-u oshiq,
Man sodazamir tifli sodiq.

Bilman, nadur ul hadisa mazmun?
So'yla, necha o'lmayim digargun?

Ishqing qilmazdi kimsa yodin,
Ho sandan eshitdim endi odin.

Billoh! Nadur, ona, ishqa mafhum?
Bu sirri nihoni ayla ma'lum!

Hodiyi rahi murodim o'lg'il!
Bu shevada ustodim o'lg'il!

Man maktaba ra'yim ila getman,
Bir shug'li xilofi ra'ying etman.

Ham san dersanki: "Maktaba vor!"
Ham dersan sanki: "Ketma zinhor!"

Qong'i so'za e'tiqodim o'lsun?
Sanga necha e'timodim o'lsun?

Man ham dagilam bu azjra qoil —
Kim, har dam o'lub chirog'i mahfil,

Nojinslar ila hamdam o'lam,
Bir yerda muqayyadi g'am o'lam.

Har diydadan eda-eda parhez,
Avqot kecha kuduratomiz.

Payvasta muallim aylayub javr,
Gohi sabaq o'quda, gahi davr.

Billoh, manga ham bu edi maqsud,
Maktabda o'lurmi tifl xushnud?

Ayriq bu so'zi mukarrar etma,
Lutf ayla, mani mukaddar etma!"

Chun ona eshitdi bu javobi,
Tark etdi shikoyatu itobi.

Shaksiz anga ravshan o'ldi k-ul moh
Oshiqlikdan dagildur ogoh.

Behudadur ul qamu fasona —
Kim, oshiqdur falon falona.

Chun voqea shak mahalli o'ldi,
Ul voqeadan tasalli o'ldi.

Layli ham o‘tirdi evda nochor,
Duzdi sadafina durri shahvor...

Bir burjda sobit o‘ldi axtar,
Mahbusi xazona o‘ldi gavhar.

La’l o‘ldi asiri siynayi sang,
Habs o‘ldi guloba shishayi tang.

G‘amdan siyah o‘ldi ro‘zgori,
Navmid dili ummidvori.

Oh aylar edi, vale na hosil,
Ul yel ochmazdi g‘unchayi dil.

Ko‘z yoshi to‘kardi, lek na sud,
Bitmazdi oningla naxli maqsud.

Zulfi kibi pech-u toba dushdi,
Hayron qolib iztiroba dushdi.

Og‘zi kibi xulqin etdi g‘am dor,
Chashmi kibi jismi o‘ldi bemor.

Na dardini soxlasa qarori,
Na sharhi g‘am etsa g‘amgusori.

Fonusi xayola do‘ndi ul sham’,
Ko‘nglini qilib xayol ila jam’,

Hardam chekib ul g‘am ichra ming oh,
Sabr etdi zarurat ila ul moh.

Dard ila duzub taronayi g‘am,
Bu bir g‘azali o‘xurdi har dam:

G‘azali Layli

Falak oyirdi mani javr ila jononimdan,
Hazar etmazmi, ajab, nola-vu afg‘onimdan?

O‘da yondirmasa gar shu’la ila no‘h falaki,
Na bitar otashi ohi dili so‘zonimdan.

G‘ami pinhon mani o‘ldirdi, bu ham bir g‘amkim,
Gulruxim o‘lmadi ogah g‘ami pinhonimdan.

Oh edi hamnafasim, ohki, ul ham oxir,
Chiqdi ikroh qilub kulbayi ehzonimdan.

Man, na hojatki, qilam dog‘i nihonim sharhin,
Oqibat zohir o‘lur choki giribonimdan.

Haq bilur, yor dagil jon-u dilimdan g‘oyib,
No‘la gar g‘oyib esa diydayi giryonimdan.

Jon agar chiqsa tanimdan asari mehri ila,
Asari mehrini sonmangki, chiqar jonimdan.

Lutf edub, san, magar, ey bod, bu kundan bo‘yla
Berasan bir xabar ul sarvi xiromonimdan.

Ey Fuzuliy, g‘ami hajr ila parishondur hol,
Kimsa ogoh dagil holi parishonimdan.

Tamomiyi suxan

Soqiy, ketur ul mayi mug‘oniy —
Kim, unudalum g‘ami jahoniy!

Rahm aylaki, qasdi jon edar g‘am,
Bag‘rim sitam ila qon edar g‘am.

Qil aqlimi boda ila zoyil,
Charxing sitamindan ayla g‘ofil.

Faryodki, charx bevafodur.
Doim ishi javr ila jafodur.

Bir odat ila madori yo‘xdur,
Davronining e’tibori yo‘xdur.

Gar hamnafas etsa iki yori,
Bir yera getira iki zori.

Albatta, sabab solar aroya;
Onlari asir edar baloya.

Billoh, na yomondur oshnoliq,
Chun voqe’ o‘lur yana judoliq.

GUZORISHI HOLI MAJNUN

Gulzori kalom bog‘boni
Bo‘yla bezamish bu bo‘stoni —

Kim, sarvi riyozi mehnat-u dard,
Savdozada Qaysi dardparvard.

Har subh gedardi maktaba shod,
Maktabda o‘lurdi g‘amdan ozod.

Mashqi xati husni yor edardi,
Daf’i g‘ami ro‘zgor edardi.

Zavq ila tutub tariqi sobiq,
Odat uzarina subhi sodiq.

Galdi yana maktaba farahnok,
Tokim, qila zavqi vasli idrok.

Ko‘rdiki, behishta hur galmaz,
Kun chiqdi, hanuz nur galmaz.

Xurshidsiz o‘ldi ro‘z to shab,
O‘ldi boshina qorong‘u maktab.

Bildiki, sipehri sho‘’badaboz,
Bir sho‘’bada aylayubdur og‘oz.

Albatta, jafoyi ta’ni ag‘yor,
Ul gul yo‘lina buroqdi bir xor.

Navmid o‘lub, etdi nola bunyod,
Dedi: “Nadur, ey falak, bu bedod?

Netdim sanga, qasdi jonim etding,
Qat’i rohi dilsitonim etding?

Kesding talabi g‘arazda rohim,
Bildir mangakim, nadur gunohim?

Avval mani aylading mukarram,
Vasli sanam ila shod-u xurram.

Do‘ndung, neya bo‘yla javr edarsan,
Ul davri naqiz davr edarsan!

Vahm aylamadingmikim, chekub oh,
So‘zi jigar ila bir sahargoh,

Yondiram o‘da do‘quz ravoqing,
So‘zin sanga bildiram firoqing.

Tadbir qil, ey muallimi pir,
Et sehr ila ul parini tasxir!

Anjaq manga sonma yetdi bu g'am —
Kim, yetdi manga etan sanga g'am.

Dush, ey alif, istiqomatingdan!
Sharm ayla bu qadd-u qomatingdan!

Qaddi havasi-la dam urarsan,
Ul ketdi, ajabki, san durarsan.

Ey nun, chu nihondur abro'yi yor,
San daxi nazarda durma zinhor!

Ey mim, chu og'zi o'ldi g'oyib,
O'ldi sanga ham adam munosib!

O'lsang no'la, ey davot, diltang,
Oyinayi xotiring tutub chang,

Ul turrayi mushkbo'dan ayru,
Hijron qora bag'ring aylamish suv.

Ey xoma, sirishkbor o'lubsan,
Sargashta-vu beqaror o'lubsan!

Go'yo bu kun etmamish muyassar,
Davron sanga dastbo'si dilbar.

Ey lavh, u xatting ayla yodin,
Qil siynada naqshi g'am savodin!

Bir necha kun ul asiri hijron,
Maktabga kelib qilurdi afg'on.

Har ro‘z fig‘oni ila to shab,
Ta’zib chekardi ahli maktab.

Shab ham qilibon fig‘on-u zori,
Aylardi muxotab ul nigori:

“K-ey ko‘z nuri, ko‘ngul sururi!
Sansiz ko‘ziming yo‘x o‘ldi nuri.

Avval na edi bu oshnoliq?
Oxir neya aylading judolik?

Avval neya aylading mani mast,
Izhori muhabbat ila pobast.

Oxir na uchun xumora solding,
Bu mehnati intizora solding?

Solding dili zora nori furqat,
Qilding ko‘zimi purobi hasrat!

Ko‘nglim o‘di qildi yona-yona,
Ohang shafaqtak osmona.

Yoshim suyi o‘ldi vora-vora,
Bir bahrki, yo‘x, anga kanora.

Man istamazam bu kunda hamdam,
Yonimdan elit xayolingi ham!

O‘lmaya dushub xayoling, ey mah,
O‘da yona, suvya bota nogah.

Sarmasti sharobi ishtiyoqam,
Madhushi tahayyuri firoqam,

Qo‘yma, g‘amingi manim-la hamroh,
Fosh aylaram oni xalqa nogoh.

Sarmastda ixtiyor o‘lmaz,
Madhushda e’tibor o‘lmaz.

Jon o‘ldi g‘aming yo‘linda barbod,
Tashvishi fanodan o‘ldim ozod.

Go‘stardi manga g‘aming mazoqi,
Ayshi abadiy, nishoti boqiy.

Gar kelsa ajal, manim nam ola.
Jon xud yo‘xdur magar g‘am ola,

Sham’i shabi mehnat-u baloyam,
Oshuftayi junbushi havoyam.

So‘zi dil ila to‘kilsa yoshim,
Tig‘i g‘am ila kesilsa boshim,

Jondan chixorib havoyi ishqi,
Tark aylamazam baloyi ishqi.

Bu kunlarikim, g‘am ichra zoram,
Hijron alami-la beqaroram,

Gar nomayi umra kilki taqdir,
Kundur deyuban qilursa tahrir,

Aylar mani ul hisob mag‘bun —
Kim, surati holdir digargun.

Kun sharti demishlar oftobi,
Billohki, bu nuktadur hisobi.

Har kunki ko'runmaz oftobim,
Man kun demazam, budur hisobim.

Yo'x kimsa bu dardi dildan ogoh,
Bu dardi dil ila naylayim? Oh!

Dardim so'za keldigicha ortar,
O'ddur yel ila zabona tortar".

Ayyomi visoli aylayub yod,
Ul xasta bu she'ri etdi bunyod:

G'azali Majnun

Ey xush ul kunlarki, man hamroz edim jonon ila,
Ne'mati vaslin ko'rub, nozin chekardim jon ila.

Ko'rmamishdi gulshani ayshim xazoni tafriqa,
O'lmamishdi tiyra ayyomim shabi hijron ila.

Mahvashimdan, do'stlar, davron judo istar mani,
Dushmanimdur, hech bilman netmisham davron ila.

Yetsa gar oshiqlaring afloka afg'oni, na sud,
Yetmak o'lmaz mohvashlar vaslina afg'on ila.

Yoshurib soxlardim eldan dog'i hijronin, agar
Etmak o'lsaydi madoro diydayi giryon ila.

Zavqdan debocha bog'landi kitobi umrima
Qo'ymadi davron kecha avqotim ul unvon ila.

Ey Fuzuliy, axtari baxtim musoid o'lmadi —
Kim, o'lam bir dam muqorin ul mahi tobon ila.

So‘z muxtasar, ul asiri savdo,
Bir nav’ ila o‘ldi xalqa rasvo —
Kim, Qays ekan, o‘ldi odi Majnun,
Ahvolini etdi g‘am digargun.

BU LAYLIYA MAJNUN GUZARDA MUQOBIL O‘LDUG‘IDUR VA KUN MUQOBILINDA HILOLI MEHRI BARDI KOMIL O‘LDUG‘IDUR

Bir kunki, bahori olamafro‘z
Vermishdi jahona fayzi Navro‘z.

Solmishdi niqob chehradan gul,
Chekmishdi surud nola bulbul.

Shabnam mayi nobi ila lola,
Do‘ldurmish edi qizil piyola.

O‘lmishdi gul ila sabzayi tar,
Feruzafuruz, la’lparvar.

Bir necha musohibi vafodor
Majnuni shikastani ko‘rub zor,

Har yon dedilarki: “Ey balokash!
Gul chog‘idur, o‘lmagil mushavvash!

Bu faslda odami kerak shod,
Anduh-u balo-vu g‘amdan ozod!

Chun abr dagilsan, o‘lma giryon!
Chun sel dagilsan, etma afg‘on!

Gul kibi buroqma siynanga chok!
Sabza kibi etma bistaring xok!

Kamtar o‘zingi asiri g‘am qil!
Lutf ayla, xiroma gal, karam qil!

Sahro tutalim, may ichalim shod,
Anduh ila o‘lma bo‘yla mu’tod!

Ey g‘uncha dahon-u sarvqomat,
Kul, o‘yna zamone, et farog‘at!

Pokiza vujuda hayfdur g‘am,
Bo‘yla daxi qolmaya bu olam.

Shoyad ochila guli muroding,
Mahkam qil asosi e’tiqoding!

Sayr uzra bu navbahor fasli
Shoyad bo‘lina nigor vasli”.

Majnuni hazin oyog‘a durdi,
Sahrolara sayr uchun yuz urdi.

Giryon-giryon qilardi sayron,
Hayron-hayron kezardi har yon.

Gah sabzaya arzi roz edardi,
Gah lolaya ming niyoz edardi.

Chashmina surardi lola dog‘in,
Oshiq sonubon o‘pib oyog‘in.

Nargis ko‘zina nigoh edardi,
Yorin ko‘zin ongub, oh edardi.

So‘ylardi binafshaya g‘ami dil —
Kim, so‘ylaya yora o‘lsa vosil.

Bulbullara sharh edardi holin,
Qumrilara mehnat-u malolin.

Har turfa chechak ko‘rub, chekib oh,
Manzil-manzil kezardi, nogoh

Bir manzila dushdi rahguzori —
Kim, sayrda edi anda yori.

Bir necha parirux ila hamdam,
Majnuni shikastadan muqaddam

Layli guzar etmish ul fazoya,
Solmish gul-u lola uzra soya.

Bir sabzaya sabz xirgah urmish,
Mah sahni chamanda hola qurmish.

G‘uncha kibi ul latif har goh,
Gul bargi kibi ichinda ul moh.

Majnuna muqobil o‘ldi Layli,
Bahri g‘ama yetdi dard sayli:

Layli dema — sham’i majlisafro‘z,
Majnun dema — otashi jigarso‘z.

Layli dema — jannat ichra bir hur,
Majnun dema — zulmat ichra bir nur.

Layli dema — avji husna bir moh,
Majnun dema — mulki ishqa bir shoh.

Layli dema — bir yagonayi dahr,
Majnun dema — bir fasonayi shahr.

Layli — chamani balo niholi,
Majnun — falaki vafo hiloli.

Layli — mahi osmoni hashmat,
Majnun — shahi kishvari malomat.

Layli — safi ahli husn amiri,
Majnun sari ko'yi g'am faqiri.

Layli ishi — ishva-vu karashma,
Majnun ko'zi yoshi chashma-chashma.

Layliyu nishoti husn komi,
Majnunu baloyi ishq domi.

Layliyu latofati diloroy,
Majnunu malomati g'amafzoy.

Laylida kamoli husn ila zavq,
Majnunda jamoli Layliya shavq.

Layli — sadafi hayoya bir dur,
Majnuna aning-la ming tafoxur.

Laylida visoli do'st mayli,
Majnunda ham orzuyi Layli.

Ul iki sahiqadu sumanbar,
Bir-birina o'ldilar barobar.

Fo'loda satashdi sangi xora,
O't dushdi qaroru ixtiyora.

Bir soza duzildi ul iki tor,
Garm o‘ldi rivoji nolayi zor.

Ul boqdi bunga — nishot bo‘ldi,
Bu ko‘rdi oni muqayyad o‘ldi.

Majnunda qaror tutmoyub hush,
Daryoyi tahayyur ayladi jo‘sh.

Bir dam boqa bilmadi ul oya,
Do‘shandi yer uzra misli soya.

Layli ham yiturdi ixtiyorin,
Bir dam ko‘ra bilmadi nigorin.

Hayronlig‘i ul maqoma yetdi —
Kim, dushdi oyoqdan, esi ketdi.

Gul suyi sepib ravon yuzina,
Laylini gatirdilar o‘zina.

Har yon dedilar angaki: “Ey moh!
Nogoh o‘lur otang-onang ogoh —

Kim, g‘ayr ila oshno o‘lubsan,
Bir dilbara mubtalo o‘lubsan.

Vermaz bu ravish natijai xo‘b,
Shoyista dagil sanga bu uslub!

Yaxshi nazar aylasang — yomondur,
Ham biza va ham sanga ziyondur!”

Andan keturub bisot-u har goh,
Ul mahliqoyi xohi-noxoh,

O‘z burjina qildilar ravona,
To o‘lmaya voqif ota-ona.

So‘z demadilar bu mojarodan,
Na ganjdan-u na ajdahodan.

Majnunni ham etdi chashmi xunbor,
Suvlar sochibon yuzina bedor.

Ko‘rdiki, nigordan nishon yo‘x,
Bir jismi fusurda vor, jon yo‘x.

Devona qolib, pari ketibdur,
Solib ani dilbari ketibdur.

Chok ayladi joma, chekdi nola,
Holi badal o‘ldi o‘zga hola.

Tark etdi libosi lolaguni,
Raxt o‘ldi tanina ashk xuni.

Gar motam uchun misoli xoma,
Solmishdi bosha siyah amoma.

Chirkindi boshina dudi ohi,
Yondirdi amomai siyohi.

Ikroh ila chixdi pirahandan,
Or etdi shahidi g‘am kafandan.

Na’layni buroqdi ul balojo‘ —
Kim, oshiqa poybanddur bu.

Hamdamlara uzr qildi og‘oz:
— K-ey bir necha hamnishin-u hamroz!

Selobi hujumi ishq yetdi
Man sheftaholi g‘arq etdi.

O‘lmang mani xasta ila hamdam,
To botmayasiz bu suvya siz ham.

Man rangi malomata bo‘yondim
Savdozadalik o‘dina yondim.

Albatta, bu o‘dki, dushdi jona,
Oxir tutushib, chekar zabona.

Dushvor balomi sahl sonmang!
Siz doxi manim o‘dima yonmang!

Mandan siza dushmasin bir axgar,
Chun degmadi xayr, degmasin shar.

Savdo siyah etdi ro‘zgorim,
Ishq oldi inon-u ixtiyorim.

Man bir qusham, uchdim oshyondan,
Man qandanu mayli xona qandan?

Qilmang manga ev hikoyatin cho‘x,
Daxi manim anda ketmagim yo‘x!

Sizdan so‘rar o‘lsa ota holim,
Kayfiyati mehnat-u malolim.

So‘ylangki: “Fanoya verdi raxtin,
Ayyom siyoh qildi baxtin.

Ey piri shikastaholu noshod!
Tangri-chun alimdan aylama dod.

Demaki: “Nadur bu mojarolar?”
Sandan manga yetdi bu balolar.

Man bilmaz edim g'ami jahoni,
Tashvishi zaminu osmoni.

Osuda sarochayi adamda
Na g'ussada edimu na g'amda.

Bilmazlik ila xush edi holim,
Na husn, na ishq edi xayolim.

San vositayi vujudim o'lding!
San mone'yi fayzi judim o'lding!

Umdingki, manim-la o'lasan shod,
Dardoki, umiding o'ldi barbod.

Man yo'x o'lubam, san endi vor o'l!
O'zga xalafa umidvor o'l!

Ma'zur tut, ey aziz, ma'zur!
Man qasd ila sandan o'lmadim dur.

Cho'x sidq ila ayladim anga azm —
Kim, davlati vaslinga edam jazm.

Suv soldi yo'lima ashki hasrat,
Domonimi tutdi xori mehnat.

Tahrir qilib munosibi hol,
Bu she'ri ham anga etdi irsol:

G'azal

Fazoyi ishq chun ko'rdim, salohi aqldan duram,
Mani rasvo ko'rub ayb etma, ey nosihki, ma'zuram.

Agar choki giribon aylasam, man' aylamang, chun man
Mato'yi nangdan ori, libosi ordan o'ram.

Manu sahroyi vahshat, manzil etmam ofiyat kunjin,
Asiri domi zulmat o'lmazam, chun tolibi nuram.

Tamarrud, aql farmonindan etsam, do'stlar, billoh,
Mani ra'yim-la sonmang, ishq sultonina ma'muram.

Mana kim ta'na aylar, kim nasihat ahli olamdan,
Xushamkim, e'tibori ishq ila har dilda mazkuram.

Baloyi ishq-u dardi do'st tarkin qilmazam, zohid,
Na mushtoqi behishtam san kibi, na tolibi huram.

Xayoli chini zulfu toqi abro'si-la zavqim ko'r,
Sonarsan hashmat ila kasriyam, qadr ila fag'furam.

G'araz bir od emish olamda, man ham aylaram bir od,
Bihamdilloh, Fuzuliy, rindu rasvoliqda mashhuram.

Tamomiyi suxan

Ul shevayi ishq ichinda mohir
Qildiqda vasiyatini oxir,

Qildi kuzatib tariqi vahshat,
Ashobdan inqitoyi ulfat.

Sahroya dushub gunash misoli,
Tanho yurur o'ldi louboli.

Har doshaki yetdi, to'kdi yoshin,
La'l ayladi ko'hu dasht doshin.

Ko'z yoshini baski, to'kdi har so'
Har marhaladan oxitdi ming jo'.

Bir abri balo edi guvohi,
Boron sirishki, barq ohi.

Boron ila barq jism-u jondan,
Bir martabadaki, bundan, ondan.

Daryolara yetsa lam'ai tob,
Sahrolara dushsa qatrayi ob.

Daryolar o'lurdi jumla sahro,
Sahrolar o'lurdi jumla daryo.

Faryod ila do'ldurub bu dayri,
Faryoda gatirdi vahsh-u tayri.

Afg'oni yeturdi osmona,
Otash solib oh ila jahona.

BU MAJNUN OTASI BOQIFI HOL O'LDUG'IDUR VA ONI BIYOBONI MEHNATDA BO'LDUG'IDUR

Ganjinakushoyi ganjguftor
O'lmish bu ado ila guharbor:

K-ul bir necha beqaror-u mahzun,
Nochor qilib vido'yi Majnun,

Navmid do'nub shikasta-vu xor,
Qildilar otasini xabardor.

Ul pir chu voqif o'ldi hola,
Majnun kibi etdi oh-u nola.

Sahrolara tutdi seltak yuz,
Vodilara ochdi chashmatak ko‘z.

Cho‘x oradi, kezdi har makoni,
Bo‘linmadi o‘g‘lining nishoni.

To oqibat ul shikastaholi,
Bir go‘shada ko‘rdi louboli.

Dushmish yera xokisoru g‘amnok,
Ahvoli xarob-u siynasi chok.

Do‘nmish guli surxi za’farona,
Shamshodi latifi xizirona.

Oyinasini g‘ubor tutmish,
Zangi g‘ami ro‘zgor tutmish.

Etmish alifin sitam yuki dol,
Qilmish qalamin falak g‘ami nol.

Hamsuhbati mo‘ru hamdami mor,
Tak’yagahi xoku bistari xor.

Xor uzra anga dilik-dilik tan
Ochmish g‘am uyina durli ravzan.

Ul pir chu ko‘rdi surati hol,
Surat kibi qoldi bir zamon lol.

Bir lahza oni tahayyur oldi,
Hayrat ko‘zi ila boqa qoldi.

So‘ngra yaqo yirtub, etdi faryod:
“K-ey bulbuli bo‘stoni bedod!

Holi dilingi manga bayon et,
Asrori nihoningi ayon et!

Kim oldi alingdan ixtiyoring?
Kim ayladi tiyra ro'zgoring?

Billoh, nega beqaror o'lubsan,
Oshuftayi ro'zgor o'lubsan?

Na sayrdasan, sanga talab na?
Bu nolayi zoringga sabab na?

Daryoda esa sanga duri kom,
San so'yla, man aylayim saranjom.

Sh o‘ x u sh a n g — chaqqon, harakatlari nozik va go‘zal, malohatli, go‘zal.

E v — uy, xona.

E h m o l — beparvolik, sustkashlik.

E ’ v i j o j — egrilik, noto‘g‘rilik. Arab alifbosidagi alif (“a”) — tayoqday to‘g‘ri, yo (“i”, “e”) — kamonday egri. Bu yerda shunga ishora qilinmoqda.

E ’ l o m — e’lon qilish.

E ’ t i d o l — tik, to‘g‘ri, kelishgan.

E ’ t i m o d — ishonch, suyanch, tayanch.

E ’ t i r o z — saqlanish, o‘zini chetga olish, hazar qilish.

E h t i m o m — ahamiyat berish, diqqat qilish.

Yu v o — uya.

Yu q u — uyqu.

Ya k — yaxshi.

Ya k s o n — teng, barobar.

Ya t i m — matnda: tartibsiz, quloqsiz.

Ya ’ s — umidsizlik.

Ya g‘ m o — talon-toroj, g‘oratgarlik.

O‘ k s u k — kam, oz.

O‘ k s u l m o q — kamaymoq, ozaymoq.

O‘ k u sh — ko‘p, hisobsiz.

O‘ l i j o q — bo‘ladigan.

O‘ n g a r m a — tuzatma.

O‘ n g m o q — tuzalmoq, sog‘aymoq.

O‘ n g u l m o q — ishi yurishmoq , toleyi o‘ng kelmoq .

O‘ r — yalang‘och.

O‘ s o n m o q — bezmoq, zerikmoq.

O‘ t o g‘ a — boshga taqiladigan jig‘a.

O‘ t o n m o q — uyalmoq, hijolat tortmoq.

O‘ g‘ r a m o q — kirishmoq, qo‘l urmoq, biror ishni mo‘ljallamoq.
O‘ g‘ r o t m a d i n g — duch qilmading.
Q a n g‘ i — qaysi.
Q a b o i l — qabilalar.
Q a b o p o‘ sh — qabo kiyuvchi.
Q a b o — erkaklarning oldi ochiq uzun va keng ustki kiyimi.
Q a v i (y) — kuchli.
Q a v l — so‘z, gap.
Q a v s — 1) o‘y, kamon; 2) o‘n ikki burjdan to‘qqizinchisi.
Q a y d — band; zanjir. Bu erda: fikr, xayol, g‘amxo‘rlik.
Q a m u (g‘) — hamma, barcha.
Q a r i n a — 1) yaqin; 2) dalil, hujjat.
Q a s s o m — taqsimlovchi.
Q a t l i o m — yalpi qirg‘in.
Q a t ’ — bosib o‘tish, yurish.
Q a t ’ i n a z a r — ko‘zni uzish, e’tibor qilmaslik.
Q a t ’ i u l f a t — ulfatdan uzilish.
Q a t ’ i h a yo t — o‘lim.
Q i yo m — ibodat qilish uchun tik turish.
Q i l u q o l — gap-so‘z, bahs-munozara.
Q o y i m — mustahkam, barqaror.
Q o l a b — qolip; tan, badan.
Q o n e ’ — qanoat qiluvchi, rozi bo‘luvchi.
Q o p u — eshik, darvoza.
Q o s i d — elchi, xabarchi.
Q o t i d a — qoshida, oldida, huzurida.
Q o f i l a s o l o r — karvonboshi, sarbon.
Q u l z u m — Qizil dengiz.
Q u l l o b — ilgak, changak, qarmoq.
Q u l u b — qalblar.
Q u r b u j i v o r — yaqinlik.
Q u r t u l m o q — qutulmoq, ozod bo‘lmoq.
Q u t — 1) taom, egulik; 2) rizq, nasiba.
G‘ a v v o s — suvga sho‘ng‘uvchi, suzuvchi.
G‘ a v r — biror narsaning haqiqati, mohiyati, tagi.
G‘ a d d o r — makkor, hiylagar, xoin.

G‘ a d r — 1) bevafolik; 2) makr, hiyla.
G‘ a y r — yot, begona, o‘zga.
G‘ a y r a t i r o‘ z — kunning hasadi.
G‘ a y r i — boshqa, o‘zga.
G‘ a y r i m u q a r r a r d u r — muqarrar bo‘lmagan.
G‘ a m g‘ u s o r — g‘amdan xalos qiluvchi, g‘amxo‘r, mehribon.
G‘ a m z a d a — g‘amgin, qayg‘uli.
G‘ a m m o z — chaqimchi, gap teruvchi.
G‘ a m n o k — g‘amgin, qayg‘uli.
G‘ a n i y — boy, badavlat.
G‘ a r a z — maqsad, niyat, muddao.
G‘ a sh — nopok, iflos.
G‘ i n o s o z — bastakor; sozanda.
G‘ o l i ya m o‘ — muattar hidli qora sochli.
G‘ o r a t — talon-toroj, buzg‘unchilik.
G‘ o r a t g a r — talon-toroj qiluvchi, vayron etuvchi.
G‘ u l o m — qul, banda.
G‘ u r o b — zog‘, qora qarg‘a.
G‘ u s l — pok bo‘lish uchun maxsus tartibda obdan yuvinish.
H a b i b — 1) do‘st, qadrdon; 2) mahbuba, sevgili.
H a b o — 1) chang, g‘ubor; 2) arzimas.
H a b s — qamoq, qafas, zindon.
H a v a s n o k — havasli.
H a v o d i s — hodisalar, voqealar.
H a v o n i n g e ’ t i d o l i — 1) havoning mo‘’tadilligi; 2) orzuning ahamiyati.
H a v o x o h — tolib, do‘st; majozan: oshiq .
H a d a f — nishon.
H a d i q a — bog‘.
H a d i q a i r o‘ z — kun bog‘i.
H a y o t a h l i — tiriklar.
H a z i m a t — mag‘lubiyat.
H a z i n — xafa, g‘amgin, qayg‘uli.
H a z o r — ming.
H a y ’ a t — shakl, ko‘rinish, surat.

Hakkok — muhr yasovchi.
Halohil — halok qiluvchi.
Hamzabon — tili bir.
Hamzod — egizak.
Hamidat ul-xasoil — go'zal xislatlar sohibi.
Hamin — shu, ushbu.
Hamnishin — birga o'tiruvchi, ulfat.
Hamoyil — osilgan, osib qo'yilgan; qilich osadigan tasma.
Hamoyil qilmoq — quchmoq, quchoqlamoq.
Hamoma — kabutar; majozan: sohibjamol.
Hamsang — teng, barobar.
Hamsar — yostiqdosh, umr yo'ldoshi.
Hamto — teng, sherik.
Hamul — o'sha-o'sha.
Hamxob — birga uxlovchi.
Hargiz — aslo, hech qachon.
Harimi vasl — visol xilvatxonasi.
Harif — 1) yor, do'st; 2) raqib, dushman.
Haromi — bu erda: g'oratgar, yo'lto'sar, hiylagar.
Hasan — chiroyli, go'zal, yaxshi.
Hasud — hasadgo'y.
Haft — yetti.
Hasham — matnda: yaqinlar, urug'-aymog'.
Hashmat — 1) dabdaba, shon-u shavkat, buyuklik, saltanat. 2) hurmat, obro'-e'tibor.
Ahli hashmat — saltanat va dabdaba egalari.
Hayun — uchqur tuya.
Haqoyiq — haqiqatlar.
Hiddat — o'tkir, tez.
Hindu — hind millatiga mansub kishi. Majozan qora rang, ma'shuqaning xoli, qora rangli qul ma'nolarida keladi.
Hirz — mustahkam va tinch joy, panoh.
Hirmonlik — mahrumlik, benasiblik.
Hisor — qal'a, qo'rg'on, istehkom.
Hifz — saqlash, muhofaza qilish.
Hifzi sabaq — darsni o'zlashtirish, saboqni yod olish.

H o d i y i r a h — yo'l boshlovchi, rahnamo.
H o d i s — sodir bo'lgan, yuz bergan.
H o z i h i j a n n a t — jannat shulardir.
H o y i l — to'siq; mone'lik qiluvchi.
H o l i y o — hozirda, shu paytda.
H o l o — hozir.
H o m u n — dasht, sahro, cho'l.
H o r i s — 1) ekin ekuvchi, dehqon;
2) posbon, nazorat qiluvchi.
H o s i l i k a l o m — xullasi kalom.
H o s h o — 1) Xudo asrasin; 2) hech, hech qachon.
H u d u s i q i d a m – koinotning azaliyu qadimiy ekanligi yoki keyin yaratilganligidan bahs etuvchi ikki nazariya.
H u k k o m — hokimlar, podsholar, hukm qiluvchilar.
H u l u l — kelib etish, yuz berish.
H u m o yu n — qutlug', muborak.
H u n a r — fazilat.
H u r p a y k a r — qomati hurday, go'zal.
H u s u l — hosil bo'lish, erishish.
H u q q a — 1) quticha; 2) og'iz.

DINIY-TASABBUFIY SO'Z VA TUSHUNCHALAR IZOHI

A d a m m u l k i — yo'qlik olami.
A l o y i q — aloqalar, munosabatlar; dunyo ne'matlariga maylu havas.
A l - f i r o q — ayriliq vaqtida va hijron azobida aytiladigan nido so'zi.
A m v o t a e h ' yo — o'liklarni tiriltirish.
A m r i m a ' r u f – yaxshi ishlarga buyurish.
A r a z — narsalarning ichki alomatiga bog'liq bo'lmagan zohiriy belgilari.
A r b o b i y a q i n — haqiqat ahli: oriflar, vliylar.
A h l i a z o b — do'zaxiylar.

A h l i b a q o — Haqqa yaqin kishilar, tarki dunyo qilganlar.

A h l iv a r a ' — taqvodorlar, parhezkorlar.

A h l i d a r d — darmandlar, bemorlar; majozan: oshiqlar.

A h l i d i l — ma'rifat ahli, oriflar.

A h l i i r f o n — ma'rifat ahli, oriflar.

A h l is a f o — ko'ngli sof, pokiza kishilar, ilohiy olamdan bahra oluvchilar.

A h l i j u n u n — oshiqlar, devonalar.

A h l i n a z a r — oriflar, karomat sohiblari.

A h l i f a n o — dunyoga berilganlar, Ollohni unutganlar.

A h l i h o l — tasavvuf ahli.

B a y t u l l o h — Ollohning uyi. Ka'ba.

B a n i o d a m — odam avlodi.

B a r o t — sha'bon oyining o'rtasidagi kun: bu kun islom dinida bayram hisoblanadi.

B e t a r i q a t l a r so'zi bu yerda ikki ma'noda qo'llanayapti: 1) yo'lsizlar; 2) tariqat — so'fiylik yo'liga kirmaganlar.

B e x u d — o'zidan bexabar. Mastlik va oshiqlik maqomidagi kishi.

B i l l o h (B i l l a h) — Xudo haqi, azbaroyi Xudo.

B i s m i l l o h — Olloh nomi bilan.

B i h a m d i l l o h — Xudoga shukr, Ollohning hamdi uchun.

B i h i s h t — jannat.

B o d a — may, sharob, mast qiluvchi ichimlik. Boda va uning may, sharob kabi ma'nodoshlari tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalliy timsoli, ishq va irfon (ma'rifat) ramzi bo'lib keladi.

B u t — 1) sanam; 2) ma'shuqa.

B u t p a r a s t — butga sajda qiluvchi.

B u t x o n a (B u t k a d a) — butparastlar ibodatxonasi. Butxona deganda oshiqlar Olloh vaslini, ilohiyot huzurini tushunadilar.

B a j d i ya t — muhabbat, zavq-u shavq , bexudlik.

B a r a ' — tariqatning ikkinchi maqomi bo'lib, taqvo, parhez ma'nolarini bildiradi: til vara'i, ko'z vara'i, qalb vara'iga bo'linadi.

B a h d a t (T a v h i d) — Olloh taoloning birligi, yagonaligi. Bu tushunchaga ko'ra borliq yagona bir vujuddan, olamdagi barcha narsalar uning tajalliysi — namoyon bo'lishidan iborat.

B o d i y i v a h d a t — tariqatning beshinchi vodiysi. Ikkilikning o'rtadan ko'tarilib, Haq va banda orasida birlikning qaror topishi.

B a h y i — Olloh taoloning o'z payg'ambarlariga farishtalar orqali yuborgan buyruq yoki ko'rsatmalari; ilohiy xabar.

B a h h o b — Olloh taoloning go'zal ismlaridan biri: o'z ne'matlarini tekin ato etuvchi.

B i r d — kundalik bajariladigan vazifa, o'qiladigan duo.

G a b r — otashparast, majusiy.

G' i l m o n — 1) g'ulomlar, xizmatkorlar;
2) jannatdagi xizmatkor bola.

D a y r — 1) dunyo, olam; 2) otashparastlar ibodatxonasi; Tasavvuf tushunchasida — mayxona: oriflar majlisi va zoti ahadiyatdan huzurlanishni bildiradi.

D a r v e sh — tasavvuf istilohotida izlovchi, istovchi ma'nosini ifodalab, so'fiy, faqir, oshiq, orif, sohibdil, sohibasror, sohibnazar kabi o'zini Haqqa bag'ishlagan kishilarning timsoli bo'lib keladi.

D a r i g' u f r o n — afv eshigi.

D a h o n — og'iz. So'fiylar istilohida ilohiy kalomga, uning chiqish o'rniga ishora. Shunga muvofiq , og'izning angishvonaday kichkinaligi, goho hatto ko'rib bo'lmas darajada ekanligi — ilohiy asrorni aql bilan anglab etishning imkonsizligidan nishona.

D e v o n a — ishqqa oshig'i hayron-u sargashta bo'lgan va sulukka mansub kishi.Oshiqning mag'lubiyati ham devonalik deyiladi.

D o r u l a m o n — tinchlik uyi.

D u r d — may quyqasi, qoldig'i. Tasavvufda — qanoat va nomurodlik. Ma'shuqaning oshiqni betoqat qiluvchi yodini ham bildiradi.

D u r d k a sh — may quyqasini ichuvchi, o'ta mayxo'r. Tasavvuf adabiyotida yakrang so'fiylar, malomatiylar tushunchasida o'tgan, qo'ldan ketgan ish ma'nosida keladi.

J a v o n m a r d l i k (F u t u v v a t) — X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda xalqning og'irini yengil qilish, zolim hukmdorlarga qarshi kurashish, uyushgan holda el-u yurtni tashqi

dushmanlardan himoya etish maqsadida paydo bo'lib, o'zida xalq ichidan chiqqan turli kasb-hunar egalarini birlashtirgan harakat. Bu toifa javonmardlar, fatiylar, axiylar, ayyorlar deb ham yuritilgan.

J i l v a — soliki orif dilida porlab, uni volayu shaydo aylaydigan ilohiy nur.

J o m — qadah, piyola. Jom va uning ma'nodoshlari tasavvufda ma'rifat ziyosiga limmo-lim ko'ngil ma'nosida keladi.

J u z v-u k u l l — qism va butun.

K u l l — vahdat, Olloh, j u z v — kasrat, olam va undagi narsalar. Kasrat olami Bahdatdan ajralib chiqqan, uning behisob suratlari hisoblanadi. Juzv hamisha kullga intiladi.

J u n u n — oshiqlik, beqarorlik, savdoyilik, o'zidan bexabarlik.

Z a n a x d o n — iyak. Tasavvufda solikni abadiy chohdan zulmat chohiga soladigan mahbubaning qahromez itobi.

Z o t deganda tasavvuf ahli Mutlaq ruhning o'zini, ilohiyot olamining javhari, ya'ni abadiy va azaliy Bahdatning mohiyatini tushunganlar.

Z o h i d — uzlat va taqvoni kasb qilib olib, dunyo lazzatlaridan yuz o'girgan kishi. Bu toifa ishq va irfon (ma'rifat)dan bexabar bo'lib, ularning maqsadi taqvo bilan oxirat mag'firatini qozonish, Qur'onda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga etishish. So'fiylarning har ikki dunyodan maqsadi Xudoning o'zi, uning diydori bo'lganligi uchun ham zohidlarning bu ishini tamagirlik deb hisoblaydilar va ularni tanqid qiladilar.

Z u n n o r — nasroniy dinidagilar beliga bog'laydigan chilvir. Islom mamlakatlarida g'ayri musulmonlar ham zunnor bog'lab yurishgan. Tasavvufda zunnor — haqiqiy mahbuba xizmati va toatiga bel bog'lash.

Z u h d — dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug'ullanish, taqvodorlik, parhezkorlik, porsolik.

Z u h h o d — zohidlar.

I y d — hayit, bayram.

I r f o n (M a ' r i f a t) — Olloh mohiyati haqidagi ilm.

I r sh o d — to'g'ri yo'l ko'rsatish, rahbarlik qilish.

S u b h — tong. Bahdat yoki vahdat nuriga ishora.

I s t i g‘ n o — ehtiyojsizlik. So‘fiyning riyozat bosqichlaridan biri — Xudo haqida o‘zida bilim hosil qilgan kishi Olloh xayoli va ishqi bilan o‘ziga ehtiyojsizlikni shior etadi.

K a v s a r — jannatdagi hovuz, buloq . Uning suvi asaldan shirin, qor va sutdan oq bo‘lib, ichgan kishi abadulabad tashnalik nimaligini bilmaydi.

K i r d i g o r — Yaratuvchi, Xudo..

K u n-f a k o n (K u n - f a ya k o n) - olam.

Q a z o — taqdir, qismat. Olloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qanday bo‘lishini oldindan bilishi.

Q a t ’ i t a a l l u q — bog‘liqliklardan xalos bo‘lish.

K u l b a y i e h z o n — g‘am kulbasi, qayg‘u uyi; majozan: dunyo.

K u f r i z u l f — tasavvufda dunyoga bog‘lanib, Haqni unutish. So‘fiy nazdida ishqning kofiri bo‘lish haqiqiy iymonga ega bo‘lishdir. Tasavvufda kofir sifatlar, ismlar va fe’llar darajasidan o‘tmagan odam.

L a v h — Olloh insoniyatning taqdirlarini yozgan ulkan kitob (Lavhi mahfuz).

L i l l o h i l h a m d — Ollohga hamd.

L o m a k o n — vahdat olami bo‘lib, u zuhur etadigan joy irfon sohiblarining sof ko‘ngillaridir.

L o t-u M a n o t — arablar islomdan avval topingan sanamlar.

M a y — tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalli timsoli, ishq va irfon (ma’rifat) ramzi bo‘lib keladi. Shunga muvofiq, mastlik ilohiy ma’rifatdan huzurlanishni, ma’naviy zavq daryosiga g‘arq bo‘lishni bildiradi.

M a y i m u g‘ o n a — tasavvuf she’riyatida ilohiy tajalliy va pirning pok nafasi ko‘zda tutiladi.

M a y x o n a (M a y k a d a) — shavq-u zavq-u ilohiy fayzga kon komil orifning botini. Ilohiy olam ma’nosida ham keladi.

M a l a k x a y l i — farishtalar.

M a l o i k — malaklar, farishtalar.

M u b d i ’ i d u n yo — dunyoning yaratuvchisi, ya’ni Xudo.

M a x m u r — mast, xumor. Maxmurlik — bexudlik martabasi.

M a h sh a r — qiyomat kunida barcha o'lganlar tirilib, so'roq uchun to'planadigan joy.

M e ' r o j — Muhammad alayhissalom Jabroyil yordamida osmonga chiqib, Olloh bilan uchrashgan kecha.

M e h r o b — 1) sajdagoh, masjidda imom turadigan tepasi qayrilma joy; 2) go'zallarning qayrilma qoshi.

M u g' — otashparast; ba'zan otashparastlar ruhoniysi ma'nosida ham keladi; majozan: piri komil.

M u g' b a ch a — mug' (otashparast)lar ibodatxonasidagi dastyor bola. Tasavvuf ada-biyotida sodiq murid, chin oshiq va soqiy timsoli bo'lib keladi.

M u j g o n — kiprik, mija. Tasavvufda ma'shuqaning nozu karashmasi tufayli oshiqning ko'ksiga sanchilib, uni yaralaydigan o'q, nayza, xanjar ko'zda tutiladi. Solikning valoyati, holi va martabi yo'lidagi hijobga ham ishora qilinadi.

M u r i d — tolib, talabgor, biror shayx yoki pirga qo'l berib, unga ergashuvchi. Tasavvufda moddiy bog'liqliklar va o'z xohish-irodasidan voz kechib, Haqqa intilayotgan kishi.

M u s h a f — Qur'on.

M u t r i b (M u g' a n n i y) — oriflar dilini ramzlar kashfiyu haqiqatlar bayoniga to'ldiradigan, fayz etkazuvchi. Ilohiy olamdan ogoh etuvchilar va komil pirlarga ham ishora qilinadi. Uning kuyi — ma'rifat, qo'shig'i — haqiqat.

M u t t a q i y — taqvodor, parhezli.

M u h t a s i b — shariat amrlarining bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor.

N a z r — Xudo yo'lida biror narsani bag'ishlash; xayr, sadaqa.

N a u z i b i l l o h — Alloh o'z panohida asrasin.

N a ' t — madh, vasf, ta'rif-tavsif, maqtov. Ezgu va go'zal xislatlar, sifatlar, xulqlar, ishlar ta'rifi. Na't so'zi umuman madh ma'nosida bo'lsa ham, Sharq adabiyotida u asosan Muhammad alayhissalom vasfiga qaratilgan. Xususan, Sharq mumtoz adabiyotida yirik asarlarning muqaddima qismida Alloh taolo hamdidan keyin Payg'ambar na'tini keltirish bir an'anaga aylangan. Shuningdek, alohida na't qasida, g'azal, ruboiy va qit'alar ham ko'p uchraydi.

N a h y i m u n k a r — yomon ishlardan qaytarish.

N o m a — xat, maktub. Tasavvufda mahbubi haqiqiy bilan g'oyibona sirlashuv.

N o m a y i a ' m o l — amallar daftari.

N u b u v v a t — 1) payg'ambarlik; 2) mo''jiza ko'rsatish.

N a h y i — man' etish, qaytarish.

O b i z i n d a g o n i y — tiriklik suvi, obi hayot.

O b i h a y o t — Xizr alayhissalom yer osti — zulmat qa'ridan topgan va bir qatra ichib, abadiy hayotga noil bo'lgan mangulik suvi. Obi hayot tasavvufda sa'y-harakat bilan erishib bo'lmaydigan, Olloh tomonidan o'zi xohlagan bandalariga beriladigan laduniy (ilohiy) ilm ma'nosida keladi.

O b i k a v s a r — kavsar suvi. Kavsar — jannatdagi hovuz, buloq. Uning suvi asaldan shirin, qor va sutdan oq bo'lib, ichgan kishi abadulabad tashnalik nimaligini bilmaydi.

O z o d a — 1) erkin, ozod, dunyoviy bog'liqliklardan qutulgan; 2) javonmard, ezgu xislatlar sohibi.

O r i f — ma'rifat sohibi, Ollohni tanigan kishi, komil inson. Ollohning zoti, sifatlari va ismlarini mushohada etadigan zavqiy va vajdiy ilmlar egasi bo'lgan zot.

O s o r i r a h m a t — rahmat alomati.

O f a r i n i s h — 1) yaratilish, vujudga kelish; 2) borliq, koinot.

O h i s a h a r — tongda urilgan oh. Tasavvufda ahli tongda urilgan oh ilohiy mahbubaga yetib boradi, deb hisoblaydilar.

P i r i m u g' o n — mug'lar — otashparastlar piri. Tasavvufda ma'naviy rahbar, komil inson ma'nolarida qo'llanadi.

R a v z a y i b a r i n — eng go'zal bog', ya'ni jaant; eng go'zal jannat.

R a v z a y i r i z v o n — jannat bog'i.

R a z z o q — Olloh taoloning go'zal ismlaridan biri: barcha tirik mavjudot rizqini etkazib beruvchi.

R i n d — shariat va tariqat bosqichlaridan o'tib, haqiqat asroriga etgan kishi. Tasavvuf adabiyotida rind mol-u davlatni ko'zga ilmagan hurfikrli, isyonkor, mayparast, ilohiy ishqdan sarxush va sargardon oshiq timsoli bo'lib keladi. Rind ahli ilohiy jazava chog'ida omma qabul qilmaydigan nozik ma'nolar va chuqur

haqiqatlarni oshkor qilishlari, mutaassib dindorlar tomonidan kufr sifatida baholanadigan fikrlarni ilgari surishlari bilan mashhur bo'lganlar.

R o h — may.

S a b o — Sharq tomondan esadigan tonggi yoqimli va salqin shamol. Tasavvufda u Olloh taoloning rahmoniy nafasiga nisbat berilib, xayrga bois bo'lishi aytiladi. Sabo oshiqning oh-u nolasini Ollohga, o'z navbatida, Ollohning xabarini oshiqqa etkazadi.

S a j j o d a – joynamoz.

S a l o h — yomon ishlardan o'zni saqlash, parhezkorlik, to'g'rilik, axloqlik.

S a m o ' — so'fiylarning vajdu holga erishish maqsadida uyushtiradigan she'r, qo'shiq , musiqa va raqs majlislari.

S a n a m p a r a s t — butparast.

S a f o — riyozat chekish natijasida dilning nafs xohishlari, yomon illatlar, g'addor dunyo va Xudo yodidan bo'lak narsalardan qutulib poklanishi.

S i f o t – sifatlar. Ilohiy zotning ayonlashuvi, uning qudrat va xususiyatlari. Barcha ruhiy va moddiy olamlar, jumladan inson ham shu sifatlardan iborat.

S o g' a r — may ichadigan piyola, jom, qadah. Tasavvufda g'ayb sirlarini mushohada qiladigan orifning qalbi. Mastlik va shavqni ham sog'ardan tilaydilar.

S o q i y deganda so'fiylar Ollohni, Muhammad alayhissalomni, ma'shuqani, pir yoki komil insonni nazarda tutadilar. Soqiy davraga may ulashgani kabi ular ham odamlar qalbiga ilohiy fayz bag'ishlaydilar, haqiqiy ishq o'tini soladilar, g'ayb marhamatidan bahramand etadilar.

S o l i k — tariqat yo'liga kirgan va xudo sari sayr qilayotgan kishi. M a y — tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalliy timsoli, ishq va irfon ramzi bo'lib keladi.

S o h i b k a sh f — karomat sohibi.

S o h i b n a z a r — orif; karomat egasi.

S u b h i a z a l — yaratilish tongi.

S u b h o n — Olloh taoloning sifatlaridan biri: pok, beayb.

S u l u k — yo'l. Ilohiy ma'rifatga intilgan solikning ruhiy-axloqiy kamolotga erishish jarayoni. Tariqat.

S u n n a t — islomda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan Muhammad alayhissalomning so'zlari, amallari va xatti-harakatlari.

S u n ' — 1) yaratish, mahorat; 2) Qudrat.

S u r o h i y — bo'yni uzun may idishi. So'fiylar istilohida uns (yaqinlik, do'stlik) maqomini surohiy deydilar.

S o' f i y — tariqatga kirib, dunyodan ko'ngil uzgan, riyozat bosqichlarini bosib o'tib, Haqqa intilayotgan kishi.

T a a l l u q — dunyoga bog'liqlik.

T a b o r a k a l l o h — Ollohning ismlaridan biri.

T a b o r a k — Qur'oni karimning 67-surasi.

T a v a k k u l (T a v a k k a l) — tariqat maqomi. Komil e'tiqod va to'la ishonch bilan o'zini YAratganning ixtiyoriga topshirib, dunyo, tirikchilik va nafs tashvishidan butunlay forig' bo'lish.

T a j a l l i (y) — ko'rinish, jilvalanish. Haq zoti va siftalarining hamisha, hamma joyda, har xil darajada namoyon bo'lishi, ya'ni o'zini-o'zi ayon etishi. G'aybdan keladigan va qalbda namoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar.

T a j a r r u d — yolg'izlik, dunyoviy narsalardan voz kechish, tarki dunyo qilish.

T a j r i d — yolg'izlanish, dunyoni ko'ngildan chiqarish, Olloh bilan tanholikda bo'lish.

T a r i q a h l i — so'fiylar, darveshlar.

T a r i q — 1) yo'l, odat; 2) usul, qoida, maslak.

T a r i q i s h a r — shariat yo'li.

T a r s o — nasroniy. So'fiylar nazdida nafsi ammorani mahv etib, nafsi hamidaga erishgan orif inson.

T a r s o b a c h a — nasroniy dinidagi bola. Tasavvufda go'zallik, husn-u malohat mazhari. Oriflar rabboniy joziba va ruhoniy joliba (jalb qiluvchi, mahbuba) ni tarsobacha deydilar.

T a h q i q — narsaning mohiyatini bilish, haqiqatga etish. Tasavvufda bandaning haqiqatni kashf etish uchun qiladigan sa'yu harakati.

T o l i b — izlovchi; shogird. Tasavvufda tariqatga kirib, riyozat bosqichlarini bosib o'tish orqali Xudo sari sayr qilayotgan yo'lovchi, murid, solik.

U q b o — oxirat, narigi dunyo.

F a q i r — dunyoviy ne'mat va lazzatlarni tark etib, faqat ilohiy shavq bilan yashaydigan kishi. Tariqat bosqichlarini bosib o'tib, Olloh yo'lida fano bo'lgan oshiqqa faqir, uning maqomiga faqr-u qano deyiladi.

F a q i h — shariat bilimdoni, huquqshunos.

F a q r — tariqatning to'rtinchi maqomi. Dunyo ne'matlari, vujud ehtiyojlaridan qo'l tortib, faqat Haqqa muhtoj bo'lish.

F a q r a h l i — faqr maqomiga mansub kishilar; so'fiylar.

F a q r-u f a n o — tariqatning so'nggi maqomi. Ollohdan bo'lak hamma narsadan uzilib, yolg'iz Haqqa bog'lanish, tavakkul e'tiqodi bilan yashash.

F a n o — o'lim, ajal, yo'q bo'lish. Tasavvufda bandaning Haqda fano bo'lishi, ya'ni bashariy xususiyatlarining ilohiy sifatlar ichra mahv bo'lishi.

F i r d a v s i b a r i n — eng go'zal jannat.

F o n i y — yo'qolish, mahv bo'lish. Tasavvufda moddiy boqliqliklardan butkul qutulib, faqat Xudo yodi bilan yashash, Xudodan o'zgaga ehtiyojsizlik.

F u r q o n — Qur'on.

X a r o b o t — mayxona; komil inson huzuri; bashariy sifatlarning xarob va jismoniy vujudning foniy bo'lishi.

X a r o b o t a h l i — rindlar.

X a t (t) — qizlarning labi ustidagi mayin tuklar. Tasavvuf istilohida g'ayb olami.

X i r q a — janda. Shayxu muridlar kiyadigan maxsus kiyim

X o l — tasavvufda ilohiy zotning yagonaligi timsoli, vahdat nuqtasi.

X u m — zavq ahli nazdida sulukning ibtidosi. Bunda solik xumga endigina solingan maydek qaynab-toshadi.

Ch a sh m a y i h a y v o n — Xizr alayhissalom yer ostidagi zulmat qa'ridan izlab topgan va suvidan ichib, abadiy hayotga

noil bo'lgan mangulik bulog'i. Obi hayot, obi hayvon, obi Xizr, Xizr suvi, Xizr chashmasi, tiriklik suvi kabi ko'pdan-ko'p nomlar bilan ham yuritiladi. Obi hayot tasavvufda sa'y-harakat bilan erishib bo'lmaydigan, Olloh tomonidan o'zi xohlagan bandalariga beriladigan laduniy (ilohiy) ilm ma'nosida keladi.

Sh a b i Q a d r — Qadr kechasi.

Q a d r — ramazon oyning 26-dan 27-ga o'tar kechasi. Qur'oni karim shu kechada nozil etila boshlagan. Bu kechada farishtalar yerga tushib, musulmonlarning gunohlarini kechirilishini so'rab, Ollohga iltijo qilar ekanlar. Shuning uchun bu kechada qilinadigan duo-iltijolar darhol ijobat bo'lar emish.

Sh a r — shariat. Sh a r i a t — Olloh joriy qilgan amaliy hukmlar majmuasi, islom qonunchiligi, fiqh.

Sh a f o a t — Muhammad alayhissalomga qiyomat kunida bandalarini shafoat qilish huquqi berilgan.

Sh i r k – Ollohga sherik keltirish, unga xos sifatlarni boshqaga nisbat berish.

Sh o k i r — shukr qiluvchi.

Sh o h i d — hozir, dalil, qalbdagi holat, g'oyib bo'lgan narsani ko'rsatadigan va qalbga huzur baxsh etadigan narsa.

Sh o h i d i g' a y b — g'oyib etadgan ishora.

Sh u k r i l i l l o h — Ollohga shukr.

E z i d — Xudo, Tangri.

E h r o m — 1) musulmonlarning haj qilish chog'idagi maxsus kiyimi: 2) qasd etish, niyat qilish.

Q a y yu m — asmoi husna — Ollohning go'zal ismlaridan biri: o'z-o'zidan turuvchi, boshqalarni turg'izuvchi.

Q u r b — yaqinlik, etishish. Solikning o'zini Olloh taologa yaqinlashganini his etish holati, Xudoning huzurini bevosita sezish, Haq nigohining tushishini ham anglatadi.

G' i l m o n — 1) g'ulomlar, xizmatkorlar;
2) jannatdagi xizmatkor bola.

G' u s l — pok bo'lish uchun maxsus tartibda obdan yuvinish.

H a v r o — hurlar. Jannatdagi taqvodorlarga nasib qiladigan shahlo ko'zli go'zallar.

H a j a r u l — a s v a d — Ka'ba devorlaridan biriga tashqaridan joylashtirilgan, hajga borgan musulmonlar o'pib yoki qo'l tekkizib ziyorat qiladigan qora tosh.

H a y y — asmoi husna — Ollohning go'zal ismlaridan biri: tirik, barhayot.

H a s b a t a n l i l l o h — Xudo haqqi.

H a sh r — qiyomat, mahshar.

H i j o b — parda. Tasavvufda Haq va banda, oshiq va ma'shuq o'rtasidagi mone'liklarga ishora qilinadi.

H o d i y — yo'l ko'rsatuvchi, rahbar, pir.

H o sh a l i l l o h — Olloh saqlasin.

H u b o b — suv yuzida paydo bo'ladigan pufakcha, ko'pik. Bu so'z mavj bilan birgalikda harakat, mohiyatning zuhurotini bildiradi.

KISHI ISMLARI IZOHI

A b u N u v o s — abbosiylar davrining zabardast shoiri (762–813). May kuychisi sifatida mashhur..

J a m sh i d (J a m) — qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid. U "Jomi jahonnamo" — jahonni ko'rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo'lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o'tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar ham aks yetar ekan. May qadahi va komil inson qalbini ham ilohiy sirlarni o'zida saqlashi jihatidan Jamshid jomiga nisbat beradilar. Jamshid jomidagi may ichgan bilan sira tugamas emish.

Z u l a y x o — Yusuf alayhissalomning ma'shuqasi. Bu yerda Sharqda mashhur Yusuf va Zulayho qissasiga ishora qilinmoqda. Boshqa ishqiy qissalardan farqli, unda Yusuf — ma'shuq, Zulayxo — oshiq hisoblanadi. Ilohiy husn-u malohat sohibi bo'lgan Yusuf muhabbatiga erisholmagan Zulayxo tuhmat bilan uni zindonga soladi.

I b r o h i m x o n — Bag'dod hokimi.

K o' h k a n — Farhodning laqabi: tog' qazuvchi.

M a r ya m — Iso alayhissalomning onasi.

M a s i h — Iso payg'ambar. Uning qo'li tekkan — silagan o'likka jon kirar ekan. Shuning uchun ham ul zot al-Masih — silovchi deb ulug'langan. Nafasi oshiqqa jon bag'ishlaydigan ma'shuqaga ham Masih sifatini berishadi.

M u s o — Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambar. Unga Tavrot nozil qilingan.

N u h — eng uzoq umr ko'rgan payg'ambar. U o'z qavmlari orasida 950 yil yashab, ularni Haq yo'liga hidoyat qiladi. Lekin Olloh payg'ambarining da'vatiga quloq tutmaganlari uchun ular oxir-oqibat buyuk to'fon balosiga giriftor bo'ladilar.Bu to'fon balosidan faqat Nuh alayhissalomga ergashganlargina omon qoladilar.

N o' sh i r a v o n (A n u sh e r v o n) — sosoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi. Odillik bilan nom chiqargan va Sharq adabiyotida adolat ramzi bo'lib keladi.

S u l a y m o n — shon-shavkatli podshoh va payg'ambar. Uning mol-mulki had-hisobsiz bo'lgan. Unga Xudoning sirli va muqaddas ismi — Ismi A'zam ma'lum bo'lgan va bu ism uning sehrli uzugiga naqsh qilingan. Bu uzuk vositasida u nafaqat odamlar, balki hayvonlar, qushlar, barcha ins-u jinslarga, tabiat hodisalariga ham hukmini o'tkaza olgan.

X a l i l — Ibrohim alayhissalomning laqabi: do'st, Ollohning do'sti (Xalilulloh).

H a s s o n — ilk bor islomni ulug'lab she'rlar yozgani uchun Muhammad payg'ambarning shoiri sifatida shuhrat topgan mashhur arab shoiri Hasson ibn Sobit (563–674).

X i z r — obi hayvon — tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, abadiy hayotga noil bo'lgan payg'ambar. U odamlarni mushkul ahvoldan qutqaradigan, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan xaloskor va oshiqlar homiysi hisoblanadi.

X u s r a v P a r v e z — qadimgi Eronning sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor (hukmronlik yillari — 590–628).

Sh a k a r — Isfahon go'zali. Xusrav Parvezning Bizantiya qaysarining qizi Maryamdan va oddiy xonadonga mansub qiz Shirindan keyingi xotini.

Sh i r i n — Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni qahramoni. Xusravning xotini.

Yu s u f — husn-u malohatda tengsiz Yusuf alayhissalom. Ma'lumki,Olloh taolo husnni yuz hissa qilgan. To'qson to'qqiz qismini Momo Havoga berib, bir qismini butun dunyo ahliga ravo ko'rgan. Shu bir ulushni yana o'nga bo'lib, to'qqiz qismini Yusuf alayhissalomga va bir qismini bani basharga bergan. Majozan: go'zal mahbuba.

Yu s u f i K a n ' o n — kan'onlik Yusuf, ya'ni Yusuf payg'ambar.

Q o r u n — Muso alayhissalom davrida yashagan, had-hisobsiz boyligini xayrli ishlarga sarflamay, xasislikda nom chiqargan shaxs. Bu takabbur kimsani oxir-oqibat butun mol-dunyosi bilan birga yer yutgan. U Sharq adabiyotida harislik va xasislik timsoli hisoblanadi.

H o r u t — ayolga oshiq bo'lgani uchun Bobildagi chohga tashlangan farishtalardan biri, ikkinchisi Morut. Ular sehr bilimdonlari bo'lib, sehrgarlik havasida choh qoshiga borganlarga sehr-u jodu ilmini o'rgatar emishlar.

H o r u n — abbosiylar sulolasiga mansub Xalifa Horun ar-Rashid (hukmronlik yillari (786–809).

JOY NOMLARI IZOHI

A d a n — YAmanning (Saudiya Arabistoni) janubida joylashgan shahar. U o'zining oliy navli durlari bilan mashhur bo'lgan.

A j a m — Arabistondan boshqa o'lkalar. Ko'proq Eron tushunilgan.

B a s r a — Iroqdagi shahar.

B e s u t u n — Hamadon shahri g'arbidagi tog'. Farhod shu tog'ni kesib yo'l ochgan, degan rivoyat bor.

B o b i l — (akkad tilida — tangri darvozasi) — Iroq (Ko'fa yaqinida) hududidagi miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning boshidan miloddan avvalgi 538-yilgacha mavjud bo'lgan qadimiy davlat. Hozirgi Hilla shahri o'rnida bo'lgan. Horut va Morut ismli farishtalar shu shahar chekkasidagi chohga tashlangan.

J a y h u n — Amudaryo.

J a m sh i d — qadimgi Eronning afsonaviy podshohi.

Z a m z a m — Ka'ba yonidagi muqaddas buloq.

Q o f — butun dunyoni o'rab olgan tog' tarzida tasavvur qilinadi.

K o f i r i s t o n — kofirlar mamlakati, kofirlar turadigan joy.

R u m — O'rta asrlarda hozirgi Kichik Osiyo (Bizantiya) va Gretsiya yerlari Rum deb atalgan.

X u r o s o n — III asrdan XVIII asr o'rtalarigacha hozirgi Eronning shimoli-sharqiy qismi, Marv vohasi, hozirgi Turkmanistonning Janubiy qismi va Afg'onistonning shimoliy va shimoli-g'arbini o'z ichiga olgan hudud. Mashhad, Nishopur, Marv, Balx, Hirot, Tus, Saraxs, Obivard, Niso, Sabzavor Xurosonning muhim shaharlari bo'lgan.

Ch i n — Xitoy.

Sh o m — Suriya.

E r a m — afsonaviy go'zal bog'. Yamandagi Od qavmining hukmdori Shaddod yer yuzida jannat yaratish da'vosi bilan uni bunyod etgan emish.

SAMO JISMLARI IZOHI

A b r — bulut.

A n j u m — yulduzlar.

A s a d — burjning biri. Saraton va Sunbula burjlari o'rtasida joylashgan.

A t o r u d (U t o r u d) — Tir sayyorasi, Merkuriy. O'tmish munajjimlari ikkinchi falakdagi bu sayyorani falak kotibi, qalam ahlining homiysi deydilar. Ilm va aqlni unga nisbat beradilar.

A f l o k — falaklar.

A x t a r — yulduz.

A q r a b — O'n ikki burjning biri. Mezon va Qavs burjlari o'rtasida joylashgan.

B a d r — o'n to'rt kunlik oy, to'lin oy.

B a d r i k o m i l — to'lin oy.

B a n o t u n-n a ' sh — sunbula burji. Shimoliy qutbdagi etti yulduz, ularning to'rttasini na'sh (qizlar), uchtasini banot (qizlar) deyiladi.

B a h r o m — Mirrix (Mars) sayyorasi. Qadimgi munajjimlar uni fitna, urush timsoli, kishilarga badbaxtlik keltiruvchi bexosiyat sayyora hisoblaganlar.

B u z g' o l a — echki bolasi. Jadiy burji.

B u r j i a f l o k — falakning eng yuksak cho'qqisi.

G a r d u n — 1) osmon, falak; 2) dunyo, olam.

G o v i f a l a k — falak ho'kizi. O'n ikki burjdan ikkinchisi, Savr burji.

G u n a sh — quyosh.

G u n b a d id a v v o r — aylanib turuvchi falak, o'zgarib turuvchi dunyo.

D a b a r o n — Savr burjida paydo bo'ladigan yorqin yulduz.

D a l v — o'n ikki burjning biri. Jady va Hur burjlari o'rtasida joylashgan. Qo'lidagi idishdan suv to'kib turgan kishi tarzida tasavvur qilinadi.

D o' q u z r a v o q — to'qqiz falak.

J a v z o — o'n ikki burjning biri. Saraton va Savr burjlari o'rtasida joylashgan. Bir-biriga yopishgan egizaklar shaklida bo'ladi.

J a d i y — O'n ikki burjning biri. Dalv va Qavs burjlari o'rtasida joylashgan.

Z u h r a — Benera sayyorasi: uni falak cholg'uvchi deydilar hamda go'zallik, musiqayu raqs va shodligu xursandchilik timsoli hisoblaydilar.

K a v k a b — yulduz, sayyora.

K a v o k i b — yulduzlar.

K a y v o n — Zuhal, Saturn. O'tmish munajjimlarlarining aqidasiga ko'ra, u ettinchi osmonda harakat qilib, nahs — badbaxtlik keltiruvchi hisoblanadi.

M a h t o b (M o h t o b) — to'lin oy.

M e h r — quyosh.

M i r r i x — Mars sayyorasi. O'tmish munajjimlari uni jangu jadal timsoli deb hisoblaydilar.

M o h — oy.

M o h i a n v a r — porloq quyosh.

M o h i n a v — yangi oy, hilol.

M o h i t o b o n — porloq oy.

M o h t a l ' a t — oy yuzli, go'zal.

M u sh t a r i y — quyosh tizimidagi eng katta sayyora bo'lmish Yupiter. O'tmish munajjimlari uni muborak, saodatli hisoblab, Sa'di Akbar va Falak qozisi deb ataganlar.

N a s r i t o y i r — burgut, uqob. Majozan, burgutga o'xshab ko'rinadigan yulduzlar turkumining nomi. At-toyir yulduzi.

N a j m i s o q i b — uchar yulduz. Xalq aqidasiga ko'ra go'yo devu jinu shaytonni uradi.

N u j u m — yulduzlar.

N o' h f a l a k — to'qqiz falak. Qadimiy tasavvurga ko'ra, etti osmon va to'qqiz falak mavjud: 1) Oy, 2) Atorud (Merkuriy), 3) Zuhra (Benera), 4) Quyosh, 5) Mirrix (Mars), 6) Mushtariy (Yupiter), 7) Zuhal (Saturn) va 8) burjlar, 9) osmonning eng yuqori qismi.

S a ' d v a n a h s — O'tmish munajjimlari yulduzlarni sa'd (baxt keltiruvchi) va nahs (badbaxtlik keltiruvchi) deb ikkiga ajratishgan — go'yo odamlarning baxtli yoki baxtsiz bo'lishi ularga bog'liq emish. Masalan, Mushtariy (Yupiter) — sa'd, Zuhal (Saturn) — nahs hisoblanadi.

S a h o b — bulut.

S i m o k — Asad burji oxiridagi ikki yulduz. U oy manzili hisoblangan 14-manzilda.

S u r a y yo — olti yulduzning bir yerda jam bo'lishidan iborat yulduzlar turkumi.

S u h a y l — osmon janubidagi porloq yulduz. Yaman mamlakatida ravshanroq ko'ringani uchun uni Yaman Suhayli ham deydilar.

S u h o — hulkar yulduzlar to'plamidagi eng xira yulduz.

T i r — Merkuriy sayyorasi.

X a r ch a n g — qisqichbaqa. Saraton burji. O'n ikki burjning beshinchisi.

X u r sh i d — quyosh, oftob.

Xurshidtal'at — go'zal yuzli.

Shartayn — yulduz.

Qamar — oy.

Qiron — ikki sayyoraning bir burjda to'qnashuvi. O'tmish munajjimlarining bashorat qilishlaricha, Oyning Aqrab burjiga yaqinlashishi xavf-xatardan darak beradi.Bu yerda shoir ma'shuqaning chayonday burama zulflarining oyday porloq yuzlariga tushib turganini shu hodisaga o'xshatyapti.

Hamal — O'n ikki burjdan biri. Hut va Savr burjlari orasida joylashgan.

Hilol — 1) yangi chiqqan — uch kunlik oy; 2) go'zallarning yarim oy shaklidagi chiroyli qoshi.

Hilolabro' — qoshi hilol, qayrilma qosh.

Hola — oy va quyosh atrofidagi gardish.

Hut — o'n ikki burjning biri. Dalv va Hamal burjlari o'rtasida joylashgan. Hut dumlari bir-biriga tasma b-n bog'langan baliqlar shaklida tasavvur qilinadi.

MA'DANLAR NOMLARI IZOHI

Aqiq — qizil rangli qimmatbaho tosh. Ma'shuqaning cho'g'day labi va qizil mayning sifati bo'lib keladi.

Guhar — gavhar. Guharbor — gavhar yog'diruvchi.

Guharposh — gavhar sochuvchi; majozan: ko'z yosh to'kuvchi.

Damir — temir.

Durj — sadaf, javohir qutisi.

Durri Adan — Adan duri. Eng a'lo sifatli dur.

Duri maknun — sadaf ichidagi dur.

Durri nob — toza, tiniq, qimmatbaho dur.

Durri samin — qimmatbaho dur.

Durri tar — toza dur.

Durri yatim — shohona, qimmatbaho dur.

Duri g'alton — yumaloq dur.

J a v h a r — 1) gavhar; 2) asos, mohiyat; 3) nodir, noyob; 4) hayot.

I yo r — mahak: oltin va kumushga surtib, ularning toza-notozaligini ajratadigan tosh; majozan: qadr, qimmat, baho, daraja.

L a ' l — qizil rangli yaltiroq qimmatbaho tosh. Ma'shuqaning qizil labini unga nisbat beradilar.

L a ' l i B a d a x sh o n — la'lning eng a'lo navi bo'lib, Badaxshon tog'larida hosil bo'ladi.

L a ' l g u n — la'l rangli, ya'ni qizil.

L a ' l i n o b — toza va tiniq la'l; majozan: sof va tiniq may.

L a ' l i x a n d o n — ma'shuqaning kulib turgan labi.

L o' ' l o' — gavhar.

L o' ' l o' i x u sh o b — serjilo marvarid.

O h a n — t emir.

S a d a f — ichida gavhar etiladigan huqqa.

S a n g — tosh.

S i y m — 1) kumush; 2) kumush tanga, boylik; 3) oqbadan.

S i y m a n d u d — kumush qoplangan, kumush yuritilgan.

S i y m b a r — oqbadan, kumushbadan; go'zal; ma'shuqa.

S i y m i n x a d — oq yuzli go'zal.

S i y m u z a r — oltin-kumush.

F o' l o d — po'lat.

X a z a f — sopol.

X o r a — tosh, qattiq tosh.

DARAXT BA GIYOHLAR NOMLARI IZOHI

A r g' u v o n — gullari nihoyatda qizil bo'ladigan daraxt; majozan: qizil rang.

B u s m a — o'sma.

G u l b u n — gul butasi.

G u l i x a n d o n — ochilgan gul; majozan: mahbuba.

G u l i t a r — 1)yangi ochilgan gul; 2) navnihol mahbuba.

G' u n ch a v a sh — g'uncha kabi.

Yo s a m i n (Yo s m i n) — suman: xushbo'y oq gul.

Z a ' f a r o n — sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik; sariq rang.

N a y — qamish.

N a r g i s — bo'tako'z; majozan: ma'shuqaning ko'zi. Tasavvufda amal orqali qo'lga kiritiladigan ilmning natijasidan shod-u xurramlik sifatida tushuniladi.

N a r g i s i x u m o r — xumor ko'z.

N a s r i n — oq xushbo'y gul.

N a s t a r a n — oq yoki qizil tusli xushbo'y go'zal gul, novdalarda g'ujum-g'ujum bo'lib ochiladi.

N a x l — ko'chat, nihol.

N o r v a n — sersoya, chiroyli va xushbo'y hidli daraxt.

O b n u s — qora tusli qattiq va xushbo'y daraxt.

O g' o c h — daraxt.

S a b z a — ko'kat, maysa, ko'kalam, yashillik;

S a b z a y i t a r — barra ko'katlar.

S a v s a n — gulsapsar.

S a r v — qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan ignabargli go'zal va xushqomat daraxt. Ma'shuqaning kelishgan zebo qaddi-qomatini sarvga nisbat beradilar.

S a r v i x i r o m o n — xirom etuvchi sarv, ya'ni kelishgan qomatli, chiroyli yuruvchi mahbuba.

S a r v i o z o d — tik va baland; majozan: go'zal mahbuba va uning kelishgan qomati.

S u m a n — oppoq gullaydigan jasmin guli, yosuman.

S u m a n u z o r — suman yuzli, ya'ni oq yuzli.

S u n b u l — ingichka bargli, gullari halqa-halqa, qo'ng'iroqsimon o'simlik. Ma'shuqaning sochi halqa-halqaligi va muattar hid taratishi jihatidan sunbulga nisbat beriladi.

T o' b i y (T o' b o) — jannatdagi rang-barang mevali va xushbo'y sersoya daraxt.

T o' b i x i r o m — to'biy yurishli.

U d — o'tga tashlaganda xushbo'y hid taratadigan yog'ochning bir turi.

X a s h x o s h — ko'knori.

X o m a y i s a b z a — maysa qalami.

X o r — tikan.

Sh a j a r — daraxt, nihol.

Sh a m sh o d — kichik va xushbo'y gulli, hamisha ko'm-ko'k yashnab turadigan xushqomat va chiroyli daraxt.

Sh u k u f a — gul, chechak, g'uncha.

QUSH BA HAYBON NOMLARI IZOHI

A n d a l i b — bulbul.

A n q o — Qof tog'ida yashaydigan afsonaviy qushning nomi; majozan: topilmas, nodir, yagona.

A n o d i l — bulbullar.

A f ' i y — zaharli ilon; majozan: zulf, soch o'rimi.

A sh j o r — daraxtlar.

A q r a b — chayon; Chayon burji.

B a h o y i m — hayvonlar.

B o d p o — uchqur ot.

B u q a l a m u n — turlanib-tuslanadigan, ikki yuzlamachi.

B u h u sh — vahshiy hayvonlar.

G a v a z n — tog' yovvoyi buqasi.

G u r g — bo'ri.

G o' r — yovvoyi eshak, qulon.

J a m o z a — chopqir tuya.

Z a n b u r — ari.

M o r — ilon.

M u r g' — qush.

M u r g' i d i l — dil qushi.

M u r g' i t e z r a f t o r — tez yuradigan, yuguradigan qush.

M u s i q o r — 1) qadimiy musiqa asbobi;
2) tumshug'idagi teshiklardan rang-barang ovozlar chiqaradigan afsonaviy qush.

M o' r — chumoli.

N a x ch i r - ohuga o'xshash cho'l hayvoni.

N o q a — urg'ochi tuya.

O h u b a r a — oh-u bolasi.

P a l a n g — yo‘lbars.

P a r v o n a — kechasi sham yoki chiroq atrofida aylanib, o‘zini unga uradigan hasharot.

Sh a m v a p a r v o n a — tasavvuf she’riyatidagi mashhur timsollardan. Bunda sham — ilohiy ishq, parvona — oshiq timsoli bo‘lib keladi.

R o‘ b o h — tulki.

S a k — it.

S a m u r — qunduz.

S i b o ’ — yirtqich hayvonlar.

T a v s a n — 1) arg‘umoq, o‘ynoqi ot; 2) sho‘x, asov, sarkash.

T o y i r — qush.

T u yu r — qushlar.

U q o b — burgut.

Ch u g‘ z — boyqush, boyo‘g‘li.

Sh o h b o z — lochin.

Q u m o r i — qumrilar.

G‘ i z o l (G‘ a z o l) — kiyik, ohu.

H u m o — soyasi (yoki pari) kimning boshiga tushsa, o‘sha kishi podshoh (yoki baxtli) bo‘ladi, deb e’tiqod qilinadigan davlat qushi.

MUNDARIJA

Laylo she'riyatning Majnun shoiri. (*Ergash Ochilov)* 3

"TURKIY DEVON"DAN

G'azallar.....18
Tarje'bandlar.....200
Tarkibband.....205
Muxammaslar.....207
Musaddas.....212
Murabba'lar.....214
Qit'alar.....219
Ruboiylar.....234

"FORSIY DEVON"DAN

G'azallar.....248
Qit'alar.....269
Ruboiylar.....274
Hikmatlar.....279

LAYLI VA MAJNUN 281
LUG'AT VA IZOHLAR 523

F 96 Muhammad Fuzuliy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 584 b.
ISBN 978-9943-8725-5-4

UO'K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

MUHAMMAD FUZULIY

58-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 36,5. Nashriyot-hisob tabog'i 27,8.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 125-1/22 Buyurtma raqami № 22-341

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUHAMMAD FUZULIY